

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 9(58) 301:33:677.008:37.398(584.4)

Doniyev Sardor Ixtiyor o‘g‘li

**XX ASRNING 80 – YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATIDAGI
IJTIMOIY – SIYOSIY VA MADANIY JARAYONLAR**

5A120301 - O‘zbekiston tarixi mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: t.f.n, dots. Yermetov A.A

Toshkent 2018

Mundarija

Kirish.....	3
I.BOB. XX asrning 80-yillari birinchi yarmida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy – iqtisodiy ahvol	10
I.1. Qashqadaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalari va ularning faoliyatidagi xususiyatlar.....	10
I.2. Viloyatdagi ijtimoiy jarayonlar: muammo va yechimlar.....	17
II.BOB. “Qayta qurish” yillarida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar	25
II.1. Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar	25
II.2. O‘zbekistonda “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kampaniyalari boshlanishi va uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi	43
III.BOB. Qashqadaryo viloyatida madaniyat sohasidagi o‘zgarishlar (XX asr 80-yillarida)	56
III.1. Viloyat ta’lim tizimidagi ahvol: muammo va ziddiyatlar	56
III.2. Viloyatdagi adabiyot va san’atning ahvoli, teatrlarning faoliyati	65
Xulosa	77
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	82

Kirish

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida tarixiy tafakkurni kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda yaqin o'tmishda, jumladan mustaqillika erishish arafasida bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni tahlil etish va ulardan tegishli saboq chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr 80-yillarida ittifoq miqyosida yuzaga kelgan tanglik holati, respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi muammolarning keskinlashuvi, xalqning og'ir ahvoli, bu jarayonlarning viloyatlardagi xususiyatlarni birlamchi hujjatlar asosida tadqiq etish va xulosalar chiqarish bugungi kundagi erishilayotgan yutuqlarni qadriga yetishda, yoshlarni vatanpararlik ruhida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida tarixiy haqiqatni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov sovet tuzumi davrida, xususan mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuz bergan ziddiyatli holatlar haqida to'xtalib: "O'zbekiston mana shunday tahlikali va murakkab vaziyatda qanday maqsadlarni ko'zda tutib, qanday amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirganini, bu harakatlarning ilmiy-tarixiy, mantiqiy va qonuniy zmini va omillari, kerak bo'lsa, istiqlol o'zbek xalqiga tuhfa tariqasida berilmagani – bularning barchasi haqida har taraflama chuqur yoritib, va isbotlab beradigan izlanish va tahlil bugungi kunda ham o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaganini qayd etishimiz zarur"¹, deb ta'kidlaydi.

Istiqlol yillarida tarixiy jarayonlarni tadqiq etishda eskirib qolgan, hayot sinovidan o'ta olmagan metodologiya o'rnini tamoman yangicha metodologiya egallay boshladi. Tarix fanida ham tom ma'noda inqilobiy o'zgarishlar yuz berib, necha yillar davomida buzib talqin etilgan yoki yashirib kelingan tarixiy voqealarni

¹ Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодий-тимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. - Тошкент: Ўзбекистон, 2008. - Б. 4.

xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida tadqiq qilishga kirishildi. Asrlar davomida ezilgan, sha'ni va g'ururi yerga urilgan xalqimizning ezgu niyatlari ro'yobga chiqa boshladi. Vatanimiz tarixshunosligida, uning fidoyi namoyondalari ilmiy faoliyatida erishilayotgan jiddiy, ijobiy o'zgarishlar, erishilgan yutuqlar buning yaqqol dalilidir.

Shunday bo'lgani holda, mustaqillikka erishish arafasida respublikada yuzaga kelgan tanglik holati viloyatlar miqyosida ham bir-biridan o'zaro farqlanib, viloyatlardagi vaziyat turlicha bo'lgan. Jumladan, ijtimoiy sohadagi muammolarning keskinlashuvi (Qashqadaryo viloyatidagi ko'rsatkich juda past bo'lgan), sanoat sohasidagi holat, boshqaruvdagi murakkabliklar, madaniy sohadagi vaziyat viloyatlarda o'ziga xos ko'rinishda bo'lgan. Bu davrdagi tarixiy jarayonlarning xususiyatlarini viloyatlar kesimida o'rganilishi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi deya ko'rsatish mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan omillar XX asr 80-yillarida Qashqadaryo viloyatidagi jarayonlarni xolisona o'rganishni taqozo etadi va bu jihat mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. XX asrning 80-yillarida O'zbekiston SSR hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holatlarga bog'liq ravishda Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlar holati tadqiqot ob'yekti bo'lib, tadqiqot predmeti esa bu jarayonlarning xususiyatlari va bu orada tegishli davlat tashkilotlarning faoliyati, ularning viloyat miqyosida tutgan o'rnini ilmiy asosda o'rganishdir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiq etilayotgan dissertatsiya mavzusining muhimligi va dolzarbligini o'rganilish omillari darajasidan kelib chiqib, XX asr 80- yillarida Qashqadaryo viloyatida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarni tahlil etish tadqiqot maqsadini tashkil qiladi.

Shu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- Sovet davrida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy soha, og'ir va yengil sanoat, qishloq xo'jaligi tizimida sodir bo'lgan yangilanishlar va o'zgarishlar, jumladan, viloyat hududida kasalxonalar, davolanish maskanlari, dam olish uylari

qurilishi, yangi sanoat korxona va zavodlarini barpo etilishi, yangi yo‘llar chiqarish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, xutor tizimini tugatish, yo‘llarga asfalt yotqizish, chekka tuman va qishloqlarga ichimlik suvi va tabiiy gazni quvurlar orqali olib borishning ijobiy tomonlarini yoritish;

- Sovet hokimiyati hukmronligi yillarida butun ittifoqda mavjud bo‘lgan “Sotsialistik majburiyatlar va ularni respublika va viloyat miqyosida bajarishning iloji mutlaqo yo‘qligi va uning shartlarini yildan-yilga oshirilib borishi tufayli qo‘shib yozishlarning kelib chiqishi va uni tepasida kommunistik partiyaning turganligini” manbaalar yordamida tahlil qilib, ilmiy xulosalar berish;

- Markazning O‘zbekiston uchun og‘ir oqibatlarga olib kelgan uydurmasi: “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kampaniyalarini o‘ylab topishdan ko‘zlagan maqsadini tadqiq va tahlil etish;

- “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” natijasida viloyatdagi ahvolning yomonlashuvi, buning natijasida qishloq xo‘jaligida yuzaga kelgan salbiy holatlarni ko‘rsatib berish;

- Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining inqirozi kuchayishi yillarida Qashqadaryo viloyati kompartiyasi birichi kotibi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning O‘zbekiston mustaqilligi uchun boshlagan amaliy faoliyatini tahlil qilish;

- Sotsializm davrida kommunistik mafkuraga bo‘ysundirilgan madaniy va ma’naviy soha, ta’lim tizimining Qashqadaryo viloyatidagi ahvolini o‘rganish, sohadagi yutuq va kamchiliklarni tadqiq etish;

- Madaniy oqartiruv muassasalarining viloyat miqyosidagi faoliyatini tahlil etish;

Ilmiy yangiligi. Magistrlik dissertatsiyasi ishida XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyatida ro‘y bergan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar birlamchi manba va hujjatlar, ommaviy nashrlar, og‘zaki tarix materiallari asosida o‘rganildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. XX asrning 80 – yillarida Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy –iqtisodiy vaziyat, “qayta qurish” nomini olgan

davlat dasturi yillarida viloyatda sodir bo'lgan jarayonlar, "paxta ishi", "o'zbek ishi" kampaniyalarining Qashqadaryo viloyatidagi ko'rinishlari, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning viloyatdagi bosh kotibligi davri faoliyati asosiy masala bo'lib, quyidagi farazlar ilgari surildi:

- Qashqadaryo viloyatida mavjud og'ir ahvolga qaramasdan sanoat, ishlab chiqarish, madaniy sohalar rivojlanishdan to'xtab qolmadi;
- "Paxta ishi", "o'zbek ishi" kampaniyalari natijasida viloyatda qator mas'ullar, rahbar kadrlar ishdan olinib, jinoiy javobgarlikka tortildi;
- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning viloyatdagi bosh kotibligi davrida "Paxta ishi", "o'zbek ishi" kampaniyalari natijasida javobgarlikka tortilgan viloyat aholisining ko'pchiligining nomlari oqlandi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Tadqiq etilayotgan mavzuga tegishli adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarni 2 davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

1. Sobiq sovet davri adabiyotlari;
2. Mustaqillik yillarida chop etilgan manba va adabiyotlar.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sobiq sovet davrida mavzuga oid bo'lgan adabiyotlar juda kam uchraydi. Shunday bo'lsada ayrim adabiyotlarni keltirib o'tish mumkin².

Mustaqillik tufayli haqqoniy tarixni o'rganish talabi tarixchilar oldiga qo'yilishi bilan boshlangan harakatlar ijobiy samara bera boshladi. O'zbekistonning sovet hokimiyati mustamlakachiligi davriga bag'ishlangan kitoblar nashr etildi³.

² Шермухаммедов С.Ш. Некоторые вопросы теории и практики развития социалистической культуры. - Тошкент: ТГПИ, 1984; Рўзметов А. Клуб муассасалари ва қишлоқ аҳолисига маданий хизмат кўрсатиш. - Тошкент: Ўзбекистон, 1980; Юнусов Н.Халқ маорифининг нурли йўли. -Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Косимова А. История библиотечного дела в Узбекистане. -Тошкент: Ўзбекистон,1981; Баракаев Д.Б. Развитие культуры Узбекистана за годы Советской власти. -Тошкент: Ўзбекистон, 1984; Усмонов К. Руководство Компартий Узбекистана подготовкой и воспитанием кадров интеллигенции. -Тошкент: Фан, 1985; Мавлонов Р. Развитие национального образование в Узбекистане. -Тошкент: Ўзбекистон, 1985; Мухаммедов А.Педагогика культурнопросветительной работы. -Тошкент: ТашГУ, 1985; Йўлдошева С.Х. Ўзбекистонда музика тарбияси ва таълимнинг ривожланиши. -Тошкент: Ўқитувчи,1985; Содиков С.С.Ўзбекистонда олий таълимни ривожланиши. -Тошкент: Ўзбекистон, 1986;

³ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. -Тошкент: Шарқ, 2000.

Mamlakatning poytaxtidagina emas, viloyat, shahar va tumanlarda ham yurtimizning oʻtmishiga bagʻishlangan asarlar yozib chop ettirish harakati jonlanib ketdi.

Ular qatoriga O.Joʻraqulov⁴, B.Poʻlatova⁵, Vladimir Sosnin⁶, Mahmud Xudoyqulov⁷, Mamat Saidov⁸, Poyon Ravshanov⁹, Egamberdi Ergashev¹⁰, Meyli Farmonov¹¹, Nomoz Sariqov va M.Bobojonov¹², Gʻ.Gʻofurov, I.Shoymardonov, J.Toʻxliyev¹³, T.Raxmatullayev¹⁴, N .Muhammadiyev¹⁵, G.Moʻminova¹⁶, Mahliyo Sohibova¹⁷, Ozod Parmonov, Ahad Berdiyev¹⁸ va boshqalarni kiritish mumkin.

Tadqiq etilayotgan davrda sovet davlatining “paxta ishi” qatagʻonlari bilan bogʻliq bir qator asarlar, maqolalarni ham alohida taʼkidlab oʻtmoq lozim.

Xususan, t.f.d X.E.Yunusovanning “XX asrning 80-yillarida Oʻzbekistonda millatlararo munosabatlar va maʼnaviy jarayonlar” mavzusidagi monografiyasida, shuningdek, “Oʻzbekistonda Sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari” monografiyasida Oʻzbekistonda “paxta ishi” qatagʻonlariga oid materiallar ishning bir bobida tadqiq etib beriladi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishini yoritishda XX asr 80-yillariga oid “paxta ishi” qatagʻonlari bilan bogʻliq xotiralar va vaqtli matbuotda eʼlon qilingan rasmiy hujjatlardan¹⁹ ham ilmiy tadqiqot ishida unumli foydalanildi.

⁴ Жўрақулов О. Чандир туркманлари.-Тошкен: Фан, 1992. Қашқадарё манғитлари.-Тошкент: Фан,1993. Қашқадарё мармар саноати.-Тошкент: Фан,2000.

⁵ Пулатова Б. Деновликлар тарих кўзгусида.-Тошкент:Фан,1994.

⁶ Соснин В. Чўл уйғонмоқда.-Тошкент: Мехнат,1993.

⁷ Худойкулов М. Қарши чўли.-Тошкент: Фан,1998.

⁸ Саидов М. Ғузор тарих сарҳадларида.- Қарши: Насаф,2003.

⁹ Равшанов П. Қашқадарё: истиклол арафасида.- Тошкент: Маънавият,2003.

¹⁰ Эргашев Э. Бешкент тарихи.- Қарши: Насаф,2000.

¹¹ Фармонов М. Мангу ёник чирок.- Қарши: Насаф,1996.

¹² Сариков Н, Бобожонов М. Касбиликлар.- Тошкент: Наврўз,1996.

¹³ Гофуров Ғ, Шоймардонов И, Тўхлиев Ж. Яккабоғ тумани. - Тошкент: Шарқ, 1997.

¹⁴ Рахматуллаев Т. Қўрғон садоси.- Қарши: Насаф, 2003.

¹⁵ Муҳаммадиев Н. Косон-тарих саҳифалари.- Қарши: Насаф, 1997.

¹⁶ Муминова Г.Э. Медицина и здравоохранение Узбекистана. проблемы и последствия(1946 - 1990гг.) (на примере южных областей Узбекистана).Афтореф.дисс.на соиск.уч.ст.канд.ист.наук.Ташкент.:2000.

¹⁷ Соҳибова М.Т. Ўзбекистонда маданият ҳаёт.тажриба ва муаммолар (Жанубий вилоятлар мисолида).Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация афтореферати.-Тошкент.:2008.

¹⁸ Пармонов О, Бердиев А. Китоб тумани.-Тошкент:Фан,1996.

¹⁹ СССР Прократураси Т.Х.Гдлян бошчилик қилган тергов гуруҳи фаолияти билан боғлиқ бўлган материалларни текширувчи комиссиянинг ахбороти // Совет Ўзбекистони. 1989-йил, 27-декабр.; Моргасов А.С. Хушёрлик, матонат, қатъият. Давлат Ҳавфсизликорганларива қайта қуриш //Совет Ўзбекистон. 1989-йил, 12-июл.

B.Yoriyevning “Умидли дунё” hujjatli qissasida Normo‘min Turopovning Surxon-Sherobod cho‘llarini o‘zlashtirishda faol qatnashishi, o‘zining halol mehnati, tashabbuskorligi bilan oddiy agronomlikdan Surxondaryo viloyat Ijroiya qo‘mitasining raisi, O‘zbekiston KP Qashqadaryo viloyat qo‘mitasining birinchi kotibi darajasigacha bo‘lgan sharaflı yo‘lni bosib o‘tib, XX asrning 80-yillarida mustabid tuzum o‘ylab topgan “o‘zbeklar ishi”, “paxta ishi” niqoblari ostida boshlangan qatag‘onda nohaq ayblanishi, uning boshiga tushgan qattiq qiynoq azoblari, oila a‘zolari tortgan og‘ir kunlar badiiy tarzda ishonarli ko‘rinishda bayon etilgan. Kitobda markazdan kelgan desantchi Gdlyan bilan Ivanovning Turopovga O‘zbekiston hukumatining va Moskvadagi ba‘zi rahbarlarga “pora berdim” deb majburan xat yozdirib olishlari ishonarli tarzda tasvirlangan. Uning Moskvadagi izolyatorda qiynoqqa solinishi, jumladan N.Turopovning aybsiz bo‘lishiga qaramasdan o‘n besh oydan ko‘proq qamoqda saqlab turilishi dalillar asosida ko‘rsatilgan²⁰.

XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyatida ro‘y bergan voqealarni o‘rganish natijasida, “XX asrning 80-yillarida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar” mavzusini tadqiqot obyekti qilib tanladik.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotning uslubiy asoslarini haqqoniylik, tarixiylik va xolislik tamoyillari hamda qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan tarixni xolisona o‘rganishda manbalarga asoslanish, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yilning 3-avgust kuni fan mutaxassislari va olimlari bilan bo‘lgan uchrashuvida ilgari surilgan fikrlari, jumladan, “Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”²¹ deb aytgan ta’kidi, O‘zbekistonning yangi tarixini yaratishga doir ilmiy-nazariy tamoyillar,

²⁰ Ёриев Б. Умидли дунё. – Тошкент: Ёзувчи, 2001.

²¹ <http://sputnik.uz>. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning respublika ilmiy ziyolilari bilan bo‘lgan uchrashuvidagi nutqi. 2017-yil, 3-avgust.

hamda ushbu mavzuga daxldor qarorlar, ilmiy tadqiqotlardagi ayrim fikr-mulohazalar magistrlik dissertatsiyasi nazariy-uslubiy asoslari vazifasini o'tadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasida Sovet hokimiyati davrida O'zbekistonning janubiy viloyatlaridan biri bo'lgan Qashqadaryo hududidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilish natijasida vujudga kelgan ma'lumotlar, xulosalar va umumlashtirishlar bu davr tarixini tarixiy nuqtayi-nazardan xolisona o'rganishga xizmat qiladi. To'plangan turli hujjatlardan, ma'lumotlardan, tadqiqot xulosalardan, ta'limning barcha bosqichlarida, o'quv-tarbiya maqsadlarida foydalanish mumkin. Mustaqillikka erishib milliy qadriyatlar tiklanayotgan hozirgi sharoitda O'zbekistonning yangi tarixini yaratishda maktablar, kollejlari, o'quv yurtlari uchun O'zbekiston tarixidan darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda magistrlik dissertatsiyasi ilmiy xulosalaridan foydalanilsa bo'ladi.

Shuningdek, universitetlar va institutlar, tarix fakultetlarida olib borilayotgan maxsus kurs va seminarlar uchun ham o'rganish obyekti bo'lishi mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi: Kirish, uchta bob, oltita paragraf, xulosa, foydalanilgan manba, adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Magistrlik dissertatsiyasining umumiy hajmi 85 betni tashkil etadi.

Ishning birinchi bobida XX asrning 80-yillari birinchi yarmida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy – iqtisodiy ahvol yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida “Qayta qurish” yillarida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tadqiq etilgan.

Ishning uchinchi bobida Qashqadaryo viloyatida madaniyat sohasidagi o'zgarishlar (XX asrning 80-yillarida) tahlil etilgan.

I BOB. XX asrning 80-yillari birinchi yarmida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar.

I.1.Qashqadaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalari va ularning faoliyatidagi xususiyatlar.

Sovet davrida “turgʻunlik davri” deb ataydigan yillarda butun Oʻzbekistonda boʻlgani singari Qashqadaryo viloyatida ham ishlab chiqarish va sanoati rivojiga eʼtibor kuchayib, yangidan yangi sanoat korxonalari, fabrikalar, kombinatlar ishga tushirila boshlandi.

1979-80yillarda Qashqadaryoda 12ta yirik sanoat korxonasi ishga tushirildi. Shahrisabz paxta tozalash va konserva zavodlari, Qarshi yogʻzavodi rekonstruksiya qilinib qayta taʼmirlandi. 200 ta texnik yangilik ishlab chiqarishga joriy qilindi, 62ta yangi mahsulot oʻzlashtirildi. Xalqning moddiy farovonligini yaxshilashga 275 mln soʻm sarflandi. Xalqning daromadlari 322 mln soʻmga koʻpaydi. 11 ming oila yangi uylarga koʻchib oʻtdi. Qishloq joylarida 7500 kvartira gazlashtirildi. Qarshi aeroportida Leningrad, Orenburg, Dushanbe, Andijon, Urganch yoʻnalishi boʻyicha yangi havo yoʻllari ochildi. Qarshi va Shahrisabzda yangi aerovokzal va aeroport qurilishi boshlandi. Muborak gazdan oltingugurt ajratib olish zavodida gaz tozalash sexining ikkinchi navbati foydalanishga topshirildi. Shuningdek, respublikada eng yirik Shoʻrtangaz majmuining birinchinavbati, Beshkent, Nishon paxta tozalash zavodlari va Koson yogʻ ekstraksiya zavodlari ishga tushirildi²². Qashqadaryo qishloq xoʻjaligida xizmat qiladigan traktorlar quvvati 1mln 55 ming ot kuchiga ega boʻldi. Qashqadaryolik paxtakorlar 1979-80yillarda davlatga 1mln 120 ming tonna paxta topshirishga muvaffaq boʻldilar. Ushbu koʻrsatkich rejadagidan 87 ming tonna koʻp edi. Qarshi, Shahrisabz tumanlarining mehnatkashlari har 1 gektar yerdan oʻrtacha 40,5 sentnerdan hosil olishga muvaffaq boʻldilar. Kitob tumani paxtakorlari har bir gektardan 38 sentnerdan, Qamashi tumani paxtakorlari 37 sentnerdan, Yakkabogʻ tumani paxtakorlari 36 sentnerdan paxta hosili oldilar. Qashqadaryo boʻyicha

²² ҚВДАнинг Қарши филиали, 1-жамғарма, 15-рўйхат, 2-иш, 12-варак.

birgina 1980-yilda davlatga 584 ming tonna paxta topshirildi. Bu rejadagidan 40 ming tonna ko'p edi. Davlatga qimmatbaho 100 ming tonna ingichka tolali paxta topshirishga muvaffaq bo'ldilar²³.

Shu bilan birga 1980-yildagi Qashqadaryodagi 11 ta xo'jalik, 368 ta paxtachilik brigadasi davlatga paxta tayyorlash rejasini uddalay olmadilar. Qashqadaryodagi 4 ta tuman, 22 ta xo'jalik har bir gektar yerdan 25 sentnerdan past hosil oldilar. Qashqadaryoda bog'dorchilik, mevachilik, poliz ekinlari, uzumchilikni rivojlantirishga e'tibor qaratildi. 12 ta ixtisoslashgan meva sabzovotchilik sovxozlari tashkil etildi. 10 ta chorvachilik majmuasi ishga tushirildi. Koson, Qarshi, Dehqonobod, Chiroqchi tumanlarida o'rdakchilikka ixtisoslashgan majmua, Qamashi tumanida yiliga 12 ming tonna go'sht yetkazib beradigan yirik parrandachilik majmuasi qurilishi davom ettirildi²⁴.

1980-yil 12-martda Qarshi cho'lini o'zlashtirilishi munosabati bilan Tallimarjon tumani tashkil etildi. Uning markazi etib 1964-yilda barpo etilgan cho'lquvarlarning dastlabki qishlog'i, 1976-yil 26-martda shahar maqomiga ega bo'lgan Tallimarjon shahri tasdiqlandi²⁵.

1981-yilga kelib Qarshi cho'lida 176 ming gektar yangi yer o'zlashtirildi. Bu o'zlashtirilgan yangi yerlar hisobida 96 ta yangi xo'jaliklar tashkil etildi va xo'jalikning markaziy qo'rg'oni qad rostladi. Xo'jalik markazlariga yo'llar yotqizildi. Markaziy qo'rg'on bilan yangitdan qurilgan dala shiypolari o'rtasidagi yo'llarning ko'p qismiga asfalt yotqizildi. Qolgan qismiga shag'al to'kib tekislandi²⁶.

Qashqadaryo viloyatining hamma tuman markazlariga, xo'jaliklariga avtomobil yo'llari va avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yildi. Qishloqda ishlaydigan kishilarning yarmidan ortiqrog'i oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega edi. Qishloqlarda bu vaqtda 25 ming mexanizator mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich 1965-yilga nisbatan 5 marta ko'pdir. 1982-yilda qashqadaryoliklar 590 ming tonna paxta yetishtirdilar. Bu 1940-yilga nisbatan 15 marta ko'p demakdir. Shundan 230 ming

²³ Кашкадарьинская правда, 1-января 1981-года.

²⁴ Кашкадарьинская правда, 1-января 1981-года.

²⁵ ҚВД Аниинг Қарши филиали, 1-жамғарма, 15-рўйхат, 3-иш, 30-варақ.

²⁶ Худойкулов М. Қарши чўли.- Тошкент: Фан, 1998. 224-бет.

tonnasini cho‘lquvarlar yetishtirdilar. Davlatga 200 ming tonna sabzavot, qovuntarvuz sotdilar. Keyingi 10yil ichida (1972-1982) ichida viloyat dehqonlari 5 mln 300 ming tonna paxta yetishtirib, davlatga sotdi.

Ma'lumki, 1981-yilga kelib, quvvati 1.5 mlrd.kub metr bo‘lgan Tallimarjon suv ombori qurib ishga tushirildi. Qarshi cho‘lida tashkil etilgan xo‘jaliklarni va Tallimarjon, Nishon, Qarshi, Usmon Yusupov, Bahoriston, Koson, Muborak tumanlari aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash muammosini hal etishda katta qadam tashlandi.

Tallimarjon suv omborining atrofida geologik izlanishlar natijasida topilgan gaz konlari zaxiralarining ko‘pligini hisobga olib, markaz hukumatining qarori bilan 1981-yilda Markaziy Osiyoda eng yirik hisoblangan Tallimarjon GRESi qurilishi boshlab yuborildi. Tallimarjon GRESining quvvati 3mln.200ming kv.t bo‘lib, uning tarkibida har qaysisi 800 ming kv.t bo‘lgan 4 ta energiya blok qurilishi ko‘zda tutilgan edi. Tallimarjon GRESining loyiha quvvatining summasi 500 mln so‘m edi²⁷. O‘zbekiston hukumati quruvchilar oldiga xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan ulkan inshootni bunyod etishni tezlashtirish vazifasini qo‘ydi. Quruvchilar yashab ishlashlari uchun yangi shaharcha Nuriston qo‘rg‘onini qurishni jadallashtirish lozimligini ta’kidladi. O‘zbekiston hukumatining qaroriga asosan 1982-yilning oktabrida „Таллимаржон ГРЭСстрой (Tallimarjon GRES qurilish boshqarmasi)“ tashkil etildi.

1982-yilda Qarshi Bosh kanalida qurilgan 7-nasos stansiyasida 7 ta agregat montaj qilindi. Sultontog‘ – Amudaryo zax suvini oqizib yuborish yo‘li qurildi. Tallimarjon-Nishon suv quvuri qurilib, Tallimarjon va Nishon tumanlari aholisi ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Yiliga 400 ming kv.metr gipsoprokat buyumlari ishlab chiqaradigan zavod, Qarshi magistral kanalining boshlanish qismidan kapsulli nasos stansiyasi qurildi²⁸.

Qashqadaryolik dehqonlar 1983-yilda davlatga 621 ming tonna paxta topshirdilar. Qashqadaryoning faqatgina Tallimarjon tumani paxta tayyorlash

²⁷ ҚВД Анинг Қарши филиали, 1-жамғарма, 28-рўйхат, 3-иш, 45-варак.

²⁸ Кашкадарьинская правда, 13-октября 1982-года.

rejasini bajara olmadi. 1983-yilda Qashqadaryoda paxtaning ingichka tolali navini yetishtirish ancha ko‘paydi. Davlatga ipak-paxta sotish rejasini oshirib ado etildi. Qashqadaryolik dehqonlar 1983-yilda 37.7 ming tonna go‘sht, 227.3 ming tonna sut, 120.4 mln dona tuxum yetkazib berdilar. 1983-yilda Qashqadaryoda 18.8 ming gektar yangi sug‘oriladigan yerlar foydalanish uchun qabul qilindi. 358.6 ming kv. metr uy-joy, 2274 ta yangi, shinam kvartira, yakka tartibda uy-joy qurildi. 29 mingdan ortiq odamning uy-joyi yaxshilandi²⁹.

1983-yilda Qarshida sut kombinati, Shahrisabzda mebel fabrikasi, Bahoristonda non zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. Kitob va Shahrisabzda ip-gazlama kombinatining filiali qurilishi, Bahoristonda Qarshi to‘qimachilik fabrikasining filiali qurilishi, Qamashida parrandachilik majmuasining qurilishi, Tallimarjon suv omborining qurilishi davom ettirildi, 1940 km kollektor drenaj tarmog‘i, 847 km lotok betonlashtirildi. 780 km elektr uzatish liniyasi, 320 km beton yotqizildi³⁰.

1983-yilda Qashqadaryoda Davlat va kooperativ savdosining chakana tovar oboroti 828,9 mlnni tashkil etdi va 1983-yildagiga nisbatan taqqoslama narxlarda 68.3 mln so‘m ko‘paydi.

1983-yilda Nishon tumani aholisiga savdo xizmati ko‘rsatish va umumiy ovqatlanishni tashkil qilish borasida ko‘pgina yutuqlar qo‘lga kiritildi.

1983-yil tuman matlubot jamiyatiga qarashli 37 ta magazin, 8 ta laryok, 5 ta avtolavka, 1 ta univermag, umumiy ovqatlanish sohasida 6 ta oshxona, 10 ta bufet, 8 ta gaz budka, 5 ta somsa sexi, 17 ta umumiy ovqatlanish muassasalari aholiga savdo xizmatlari ko‘rsatdi.

Nishon tuman matlubot jamiyati boshqaruvining umumiy ovqatlanish korxonalari 1983-yilning 8 oylik rejasini 330,0 so‘m o‘rniga, 356,0 so‘mga, ya‘ni 107,8 foizga bajardilar. ORS-5 ishchilar ta‘minotining umumiy ovqatlanish muassasalari 8 oylik rejasini 288 ming so‘m o‘rniga, 324,8 ming so‘mga, ya‘ni 112,8 foizga bajardi³¹. Shuning bilan birgalikda, Nishon tuman matlubot jamiyati

²⁹ Qashqadaryo haqiqati, 1984-yil, 8-fevral.

³⁰ QVDAning Qarshi filiali. 1-jamg‘arma, 28-r‘yxat, 2-ish, 15-varak.

³¹ QVDAning Qarshi filiali. 373-jamg‘arma, 1-r‘yxat, 93-ish, 32-varak.

va ORS-5 ishchilar ta'minoti xodimlarning aholiga savdo va umumiy ovqatlanish sohasida ko'rsatayotgan xizmati talablar darajasida emas edi.

Biroq Markaz hukumati tomonidan qo'yilgan talab qanday bo'lmasin rejani bajarish, „sotsialistik majburiyatni oshirib bajarish” talablari Qashqadaryo dehqonlarini ham ishlab chiqarish topshiriqlarini shoshma-shosharlik bilan, qo'shib yozishlar bilan, aldash yo'li bilan bajarish illatlarga muhtalo qildi.

Talablarni bajarish imkoniyati kam bo'lgani uchun 1983-yilda Qashqadaryodagi 1 ta tuman, 19 ta xo'jalik, 860 ta brigada davlatga paxta topshirish rejasini uddalay olmadi va davlatga rejadagidan 25 ming tonna kam paxta topshirildi.

1984-yil 2-fevralda Normo'min Turopov O'zbekiston KP Qashqadaryo viloyat qo'mitasining birinchi kotibligiga saylandi. N. Turopov rahbarlik qilgan vaqtda qamoq jazolarini berish ishlari avj oldirildi.

1984-yilgi davlat rejalarinig ko'pchiligi Qashqadaryo viloyati bo'yicha bajarilmadi. 1984-yilda Qashqadaryo viloyatida Davlat va kooperativ savdosining chakana tovar oboroti 838,6 mln so'mni tashkil etdi va 1983-yildagiga nisbatan 9.7 mln so'mlikka ko'paydi. Biroq tovar oboroti yillik rejasi bajarilmay qoldi. Qashqadaryoda inqiroziy holat yuz berdi. Davlatga bor-yo'g'i 338.1 ming tonna paxta topshirildi. Qashqadaryoda 1984-yilning 1-yanvarida bir million 600.8 ming bosh qo'y-echkilar boqilgan bo'lsa, 1985-yilning 1-yanvariga kelib bu raqam 1mln 497.7 ming boshni tashkil qildi xolos³².

1984-1985 yillarda Qashqadaryoda „paxta ishi”, „o'zbeklar ishi” siyosati avj olib ketib, viloyatning ko'plab hududlaridagi xo'jalik rahbarlar, yetakchi mutaxassislar, ekspeditorlar, bosh hisobchilar, kassirlar, bo'lim mudirlari, paxta zavodi direktorlari, paxta qabul qilish punktlarining hodimlari ustidan tergov ishlari boshlanib ketdi. 1984-yilda Qashqadaryodagi xo'jaliklarda haqiqatda mavjud bo'lmagan 94 ming qo'y qo'shib yozilgani ma'lum bo'ldi. 1985-yilning

³² Қашқадарё ҳақиқати. 1985-йил, 8-феврал.

yanvarida 1984-yilning yanvariga nisbatan qoramol tuyoqlari soni 4 ming 400 taga, qo'y-echkilar soni 39 mingga kamayib ketdi³³.

1985-yilda Qashqadaryoda yuzaga kelgan muhit ishchi va kolxozchilarning, rahbar xodimlarning o'z vazifalarini samarali ado etishlariga imkon bermadi. Turli sabablar bilan ishdan qolishlar va sifatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchilarga murosasizlik vaziyati vujudga keltirilmadi. Ish vaqtidan unumli foydalanilmadi. Kadrlar qo'nimsizligi yuqori darajaga ko'tarildi. Viloyat rahbariyatining iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi faoliyati qoniqarli yo'lga qo'yilmadi. Ba'zi mehnatkashlar ter to'kib ishlasa, boshqalar esa kun bo'yi bekorchilikdan qo'li bo'shmay, ish haqini olib kelmoqda edi. Xo'jalik rahbarlari, joylardagi partiya tashkilotlari yetarlicha adolatli rahbarlik qila olmadi. Natijada davlat tomonidan belgilangan ishlab chiqarish rejalarini bajarish imkoniyati bo'lmadi.

1985-yilda Qashqadaryo sanoati talab darajasidan past ko'rsatkichlarda ishlab, 98 ta sanoat korxonasidan 14 tasi rejalarini bajara olmadi³⁴. 1985-yilda qashqadaryolik paxtakorlar davlatga 434,4 ming tonna xom-ashyo, shu jumladan, 106,3 ming tonna ipak paxta topshirdilar. Viloyat 1985-yilda davlatga paxta yetkazib berish rejasini bajara olmagan bo'lsada, 1984-yilga nisbatan 96,3 ming tonna paxtani ko'p topshirdi³⁵.

Shuningdek, Qashqadaryo mehnat ahli davlatga 159,1 ming tonna don, 7,0 ming tonna kartoshka, 136,0 ming tonna sabzovot ekinlari, 48,2 ming tonna poliz ekinlari, 38,4 ming tonna meva ekinlari, 53,6 ming tonna uzum topshirdi, 29,7 ming tonna go'sht, 51,8 tonna sut mahsulotlari, 72,5 mln, dona tuxum topshirildi. Davlat viloyat Agrosanoat sohasiga 287,5 mln so'm pul sarfladi. 1985-yilda kapital qurilishga 453 mln so'm sarflandi. 17,1 ming gektar yangi yer o'zlashtirildi. 16,2 ming gektar yerni sug'orish qayta ta'minlandi³⁶.

1985 –yildan Qarshi qurilish jamoasi hisobidan samarali ishlar amalga oshirildi. Rejadan ortiq 620 ming so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi, 1 mlrd

³³ ҚВДАнинг Қарши филиали. 1 жамғарма, 36-рўйхат, 2-иш, 22-варак.

³⁴ Совет Ўзбекистони. 1986йил, 1февраль.

³⁵ Кашкадарьинская правда. 1986год, 8февраля.

³⁶ Кашкадарьинская правда. 1986год 8февраля.

525 mln kub metr suvga mo'ljallangan Tallimarjon suv ombori qurib tugallandi, shuningdek, 7-nasos stansiyasi qurilib ishga tushirildi. Rejada belgilangan 2400 bosh qoramolga mo'ljallangan molxona qurib foydalanishga topshirildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr 80-yillari birinchi yarmida Qashqadaryo viloyati sanoat, ishlab chiqarish sohasida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangidan yangi sanoat korxonalari, fabrika, zavodlar, kombinatlar qurib ishga tushirildi. Bu esa Qashqadaryo viloyati sanoati va ishlab chiqarish rivojiga ijobiy hissa qo'shdi. Lekin Qashqadaryo viloyatida sodir bo'lgan bunday ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan tan olish kerakki, viloyat sanoati va ishlab chiqarish sohalari bir tekisda rivojlanmadi. Butun O'zSSRda bo'lganidek, Qashqadaryo viloyatida ham "sotsialistik majburiyat"larni bajarish jarayonida ko'plab xato va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Bu esa keyinchalik viloyat sanoat, ishlab chiqarish sohalariga o'z ta'sirini o'tkazdi.

I.2.Viloyatdagi ijtimoiy jarayonlar: muammo va yechimlar.

XX asrning 80-yillari boshlaridan Qashqadaryo viloyatida aholi ijtimoiy hayotiga taaluqli bo'lgan sohalar: ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlashda muhim o'zgarishlar sodir bo'la boshladiki, bu o'zgarishlar Qashqadaryo aholisi ijtimoiy ta'minotini yuksalishiga xizmat qildi.

1979-1980 yillarda Qashqadaryo viloyatida 47 ta yangi maktab qurib ishga tushirildi,13 ta professional texnika o'quv yurti,Muborak industrial texnikumi ochildi.

1980-yilda Chiroqchi tuman aholisiga 690 o'ringa mo'ljallangan 9 ta kasalxona,5 ta ambulatoriya, markaziy tuman poliklinikasi,bolalar va xotin-qizlar konsultatsiyasi,49 ta feldsherlik-akusherlik punktlari,10 ta klinik,2ta biokimyoviy laboratoriya,8 ta dorixona xizmat qildi.Ularda 138 ta vrach,395 ta o'rta-maxsus ma'lumotli tibbiyot xodimlari faoliyat ko'rsatdilar.Chiroqchi tumanida 1981-yilda tug'ruqxona bo'limi 80 o'rindan 100 o'ringa,travmatologiya bo'limi 30 o'rindan 45 o'ringa, lor kasalxonasi 25 o'rindan 45 o'ringa ko'paytirildi.

G'uzor tumanida 1981-1982 yillarda quruvchilar tomonidan 2204 o'rinli maktab binosi,60 o'rinli tug'ruqxona,512 kv.metr dala shiypolari,1061 kv.metr hajmdagi turar joy binolari,sutni qayta ishlash zavodi,45 o'rinli bolalar kasalxonasi, 640 o'rinli qurilish texnikumi binosi qurib ishga tushirildi.60 o'rinli pionerlar uyi,Oxunboboyev nomli sovxozning 90 o'rinli bolalar bo'g'chasi qayta ta'mirlandi³⁷.

1982-yil sentabrda Qashqadaryoda maktablar soni 720 taga yetib,ularda 335 ming o'quvchiga ta'lim berildi.46 ta o'rta-maxsus o'quv yurtlarida 23 ming yoshlar o'qidi.Qashqadaryoda 290 ta klub va madaniyat uyi,530 ta ommaviy kutubxona xalqqa xizmat qildi.Qashqadaryodagi 814 ta davolash muassasalarida 32 yo'nalish bo'yicha tibiy yordam ko'rsatildi.Qashqadaryoning tibbiyot maskanlarida har 10 ming aholiga 106 ta koyka to'g'ri keldi.Aholini muhofaza qilishga 12 ming vrach va o'rta tibbiyot xodimi xizmat qildi³⁸.

³⁷ ҚВДАнинг Ғузор филиали. 316-жамғарма, 1-рўйхат, 216-иш 139-варак.

³⁸ Кашкадарьинская правда.1982 г. 16-декабря.

1981-1982 yillarda Nishon tumanida 280 o‘ringa ega bo‘lgan 2 ta bolalar bog‘chalarining qurib bitkazilganligi xotin-qizlarga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining yaxshilanganligiga misol bo‘ldi. Nishon tumanida ishlovchi onalar uchun bola tug‘ilgan paytda bir yo‘la nafaqa to‘lash va bola 1 yoshga to‘lgunga qadar qisman haq to‘lanadigan ta‘til berish joriy qilina boshlandi³⁹.

Onalik va bolalikning davlat tomonidan muhokama qilinishi natijasida butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi Nishon tumanida 14 ta oliy ma‘lumotli vrach, 105 nafar o‘rta-maxsus ma‘lumotli tibbiyot hodimi aholi sog‘ligini saqlash yo‘lida doimiy faoliyat ko‘rsatdi. 1982-yilda Nishon tumanida yashab, mehnat qilayotgan 123 nafar ayol “Qahramon ona” unvoniga sazovor bo‘lgan⁴⁰.

K.Marks nomli sovxozning pillchilari Toshoy Hazratqulova, Jangil Avliyoqulova, Nishon davlat naslchilik zavodining ishchisi Bozor Guliyeva, „СССР 50 йиллиги” sovxozining ishchisi Ma‘mura Niyozova kabi o‘nlab qahramon onalar bolalarni vatanimizning munosib farzandlari etib tarbiyalash bilan birgalikda, tumanda paxtachilik, donchilik, chorvachilik, pillachilikni rivojlantirishga ham munosib hissa qo‘shdilar.

Nishon tumanida ko‘p bolali bo‘lgan oilalarning moddiy ta‘minotini yaxshilash yo‘li tutildi. Tumanda 1309 nafar ko‘p bolali, 16 nafar yolg‘iz bolali onalar bo‘lib, ularga 1982-yilda 22120 so‘mdan ortiq pensiya va nafaqalar tarqatildi. Sovxozlar, tashkilot va muassasalarda ishlab chiqarish bilan band bo‘lgan, ko‘p bolali onalarga qo‘shimcha imtiyozlar berildi⁴¹.

Nishon tumanida 1982-yil sentabrida 14 ta maktab bo‘lib, ularda 8500 nafar o‘g‘il-qizlarga ta‘lim-tarbiya berildi. Tumanda tibbiyot muassasalari uchun yangi ko‘rinishdagi binolar qilishi davom ettirildi. Jumladan, markaziy kasalxonaning terapiya va bolalar bo‘limlariga yangi bino, To‘raqul uchastkasidagi feldsherlik-akusherlik punktlari 1982-yil qurilib ishga tushirildi. Nishon tuman markaziy kasalxonaning asosiy korpusi, poliklinika binolari ham 1982-yilda qurib ishga tushirildi.

³⁹ Кашкадарьинская правда. 1982 г. 16-декабря.

⁴⁰ ҚВД Анинг Қарши филиали. 373-жамғарма, 1-рўйхат, 75-иш, 9-варақ.

⁴¹ ҚВД Анинг Қарши филиали. 373-жамғарма, 1-рўйхат, 75-иш, 10-варақ.

Nishon tumani aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda el nazariga tushgan mehribon shifokorlarlar ko'pchilikni tashkil etdi. K.Marks nomli sovxozdagi qishloq uchastka kasalxonasinig bosh vrachi P.Xidirov, tuman markaziy kasalxonasi xirurgiya bo'limi boshlig'i Jabbor Xo'jayev, terapiya bo'limi boshlig'i B.Sattorov, shuningdek, bolalar vrachlari pediatrlaridan G'aybulla Bo'riyev, Xosiyat Rizayeva, Musurmon Markayev, feldsherlardan Nortoji Bozorova va Normurod Hamdamovlar shular jumlasidandir.

1982-yilda Nishon tumanida 567 ming kv.metr uy-joy, 9968 o'quvchi o'rniga ega bo'lgan umumiy ta'lim maktablari qurildi.Maktabgacha ta'lim muassasalari4 ming 50 o'ringa ega bo'ldi⁴².

1982-yilda Qashqadaryoda viloyatidagi o'rinlar soni 390 taga ko'paydi.O'quvning barcha turlarida 383 ming 4 o'quvchiga ta'lim berildi.Shundan 352,1 mingi umumiy ta'lim maktablarida ,11.4 mingi professional o'quv yurtlarida, 14.2 mingi o'rta-maxsus maktablarida shug'ullandi.Vrachlar soni 303 kishiga ko'payib,2937 taga yetdi⁴³ .Ishchi va xizmatchilarning pul bilan oladigan o'rtacha ish haqi 171.1 so'mni tashkil qildi⁴⁴. 1982-yilda Qashqadaryoda 11 ta yodgorlik ta'mirlandi.

1983-yil 1-yanvardan boshlab ishlab chiqarish tarmoqlarining 15 ish kuni muddatidan ta'til oladigan xodimlarga uzluksiz ish staji uchun qo'shimcha ta'til beriladigan bo'ldi. Ilgari ularga bunday qo'shimch ta'til berimas edi.Bir korxona,muassasa yoki tashkilotda kamida 25 yil mehnat qilgan, bolalari bo'lgan ayollar uchun 20 yil ish stajiga ega bo'lganishchi va xizmatchilarning uzluksiz ish staji uchun qarilik nafaqasiga beriladiganqo'shimcha 10 foizdan 20 foizga yetkazildi ⁴⁵.

Bolalari bo'lgan oilalarga davlat yordamini kuchaytirish tadbirlari amalga oshirildi. Ishlovchi onalar uchun bolasi bir yoshga yetguncha uni boqish uchun qisman haq to'lanadigan ta'til berish,ayni vaqtda haq to'lanmaydigan ta'tilni bir

⁴² ҚВДАнинг Қарши филиали.373-жамғарма,1-рўйхат,75-иш,12-варак.

⁴³ ҚВДАнинг Қарши филиали.373-жамғарма,1-рўйхат,75-иш,13-варак.

⁴⁴ Кашкадарьинская правда. 1983 г.5февраля.

⁴⁵ Қашқадарё ҳақиқати. 1983-йил, 5-февраль.

yarim yilgacha uzaytirish va chaqaloq tu'g'ilishi munosabati bilan bir yo'la nafaqa to'lash joriy etildi⁴⁶.

Umumiy ta'lim maktablarining hamma o'quvchilari darsliklar bilan bepul ta'minlana boshlandi. Dam olish lagerlariga yo'llanma sotib olish yuzasidan qo'shimcha imtiyozlar joriy qilindi.

Aholiga ko'rsatilayotgan maishiy xizmat hajmi 1982-yildagiga nisbatan, 1983-yilda 10,6 foizga, shu jumladan, qishloq joylarida 12.7 foizga o'sdi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish hajmi bo'yicha belgilangan reja bajarildi. Shu bilan birga maishiy xizmat buyurtmalarining sifati va bajarilish muddatlari hamisha ham aholini to'liq qanoatlantirmadi. Maishiy xizmat korxonalari va muassasalarining ish rejimini tartibga solish davom ettirildi⁴⁷.

Pul bilan ta'minlanishning hamma manbalari hisobiga Qashqadaryo viloyatida 1983-yilda jami hajmi 358664 kv.metr bo'lgan 2274 ta yangi shinam kvartira va yakka tartibdagi uy-joylar qurildi. Bu esa 29 mingdan oshiq kishining uy-joy sharoitlarini yaxshilash imkonini berdi. Yangi umumta'lim maktablari, maktabgacha tarbiya muassasalari, kasalxonalar va boshqa madaniy-maishiy obyektlar ishga tushirildi. Xalq maorifi va madaniyati yanada rivoj topdi. 371,4 ming kishi ta'limning har-xil turlariga jalb etildi, shundan 343,6 ming bola umumta'lim maktablarida, 9635 kishi hunar-texnika bilim yurtlarida, 13657 kishi o'rta maxsus o'quv yurtlarida, 4520 kishi oiliy o'quv yurtlarida ta'lim oldi⁴⁸. Tibbiy xizmat va aholining tashkiliy dam olishi tobora yaxshilanib bordi. Viloyat kasalxonalaridagi o'rinlar soni 1820 taga ko'paydi. 15 mingga yaqin bola va o'smir yozni dam olish lagerlarida o'tkazdi.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi yomon ahvolda bo'lib, Oq Oltin, Leninobod, Samarqand, Kommunist sovxozlarida maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari ishlamayotgan edi. Tuman bo'yicha aholiga 14 tur o'rniga 10 tur bo'yicha

⁴⁶ Qashqadaryo haqiqati. 1984-yil, 9-fevral.

⁴⁷ Qashqadaryo haqiqati. 1984-yil, 9-fevral.

⁴⁸ QVDAning Qarshi filiali, 1-jam'g'arma, 28-ruyxat, 5-ish, 36-varaq.

xizmat ko'rsatildi. Tuman aholisiga pochta aloqa xizmati ko'rsatish ham susayib ketdi⁴⁹.

Tovar oboroti oshayotganligiga qaramasdan aholining ayrim oziq-ovqat va sanoat mollariga oshib borayotgan talabi hali to'la qondirilmadi⁵⁰.

Aholiga ko'rsatilayotgan maishiy xizmatlar hajmi 1983-yildagiga nisbatan 1984-yilda 16,3 foizga oshdi, shu jumladan qishloq joylarida 14,2 foizga ko'paydi.

Qashqadaryo viloyatida pul bilan ta'minlash barcha manbalari hisobidan jami 152,7 ming kv.metr bo'lgan 3300 ta yangi shinam kvartiralar va yakka uy-joylar qurildi. 10,2 ming o'rinli umumiy ta'lim maktablari, 2 ming koykali kasalxonalar: bir smenada 1,1 ming bemorning qatnashi uchun mo'ljallangan polinikalar, 2,9 ming o'rinli maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari foydalanishga topshirildi⁵¹.

Aholi punktlari obodonlashtirib borildi. Qashqadaryoda 1984-yil mobaynida gazlashtirilgan kvartiralar 3,4 mingga va qishloq joylarida 3,6 mingga ko'paydi⁵².

Viloyatda 383,7 mingga yaqin kishi o'quvning har xil turlariga jalb etilib, ulardan qariyb 348,7 ming kishi umumiy ta'lim maktablarida, 13796 kishi hunar-texnika bilim yurtlarida, 14054 kishi o'rta maxsus, 7141 kishi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olmoqda edi⁵³.

XX asrning 60-yillaridan boshlab Sobiq Ittifoq, shu jumladan, O'zbekistonda o'rta maxsus o'quv yurtlarida yangi tip sovxoz texnikumlar tuzila boshlandi. Ana shunday texnikumlardan biri Qashqadaryo viloyatida ham tashkil etildi. Qamashi qishloq xo'jalik texnikumi O'zbekiston KP Markaziy Komiteti va O'zSSR Ministrlar Sovetining 1978-yil 15-avgust N493-a qarori va O'zSSR qishloq xo'jalik ministrligining 1978-yil 25-avgust N407 buyrug'iga asosan 1978-yil 25-avgustda tuzildi va O'zSSR qishloq xo'jalik vazirligi tasarrufidagi Farg'ona sovxoz tarkibida Farg'ona sovxoz texnikumi ochildi.

⁴⁹ ҚВД Анинг Қарши филиали, 373-жамғарма, 1-рўйхат, 93-иш, 147-варак.

⁵⁰ Қашқадарё ҳақиқати. 1985-йил, 5-февраль.

⁵¹ Қашқадарё ҳақиқати. 1985-йил, 5-февраль.

⁵² Қашқадарё ҳақиқати. 1985-йил, 5-февраль.

⁵³ ҚВД Анинг Қарши филиали. 1 жамғарма, 28-рўйхат, 2-иш, 15-варак.

Texnikum 1978-yilda maktab uchun qurilgan 720 o'quvchiga mo'ljallangan ikki qavatli namunaviy loyihali binoning yarmiga joylashdi. 1959-yilda qurilgan har biri 50 o'quvchiga mo'ljallangan bir qavatli uchta bino texnikumga yotoqxonalar uchun ajratildi. Yotoqxonada gigiyenik, dazmollash, bichish-tikish, kir yuvish xonalari mavjud edi, shu bilan birga bufet, aralash mollar magazini, sartarashxona, poyafzal ta'mirlash ustaxonasi, aloqa bo'limi va qishloq vrachlik ambulatoriyasi o'quvchilar xizmatida bo'ldi.

O'quv jarayonini ko'ngildagidek olib borish uchun texnikumda majlislar zali, kutubxona, o'quv zali, sport zal va ikkita sport maydoni, tibbiy yordam ko'rsatish xonasi, oshxona hamda mashinalar saroyi, chilangarlik, mexanik, temirchilik va payvandlash sexlari, avtotrenajyor, avtotraktrodom va ikki gektarlik kolleksion tajriba maydoni mavjud edi.

1981-1982 o'quv yilida texnikumda jiddiy o'zgarishlar bo'ldi, ya'ni uch yo'nalish bo'yicha o'quvchilar qabul qilindi.

O'zSSR Ministrlar Sovetining 1983-yil 9-sentabr N 522 qarori va O'zSSR qishloq xo'jalik ministrligining 1984-yil 6-yanvar N 7 buyrug'iga asosan 1984 – yilda Farg'ona sovxoz texnikumi Qamashi qishloq xo'jalik texnikumiga aylantirildi va sovxoz ixtiyoridan chiqarildi⁵⁴.

1982-1983- o'quv yilida uch yo'nalishda 12 nafar o'quvchi, 1983-1984 o'quv yilida esa 180 nafar o'quvchi (jumladan, 8-sinf negizidan qabul qilish boshlanib, agronomiya va texnik mexanik yo'nalishlariga 30 tadan 60 ta) qabul qilindi yoki 1982-1983 o'quv yilida jami talabalar soni 275 nafarni tashkil etdi.

Ushbu o'quv yilida texnikumni 70 nafar o'quvchi tugatdi. 1983-1984 o'quv yilida texnikumda o'quvchilar soni 316 nafar bo'lib, shundan bitiruvchilar 102 nafar edi. 1983-yilda texnikumda 24 o'qituvchi bo'lib, shundan 19 nafari oliy ma'lumotli bo'lsa, 1984-yilda o'qituvchilarning soni 26 nafarga yetib 23 nafari oliy ma'lumotli edi.

⁵⁴ Қодиров Ф.Й. Совет мустанлакачилиги йилларида ўрта махсус маълумотли кадрлар тайёрлаш (Қашқадарё вилояти мисодида). Магистрлик диссертацияси. Қарши, 2006. 31-бет.

Texnikumda amaliyot darslari 1983-yilgacha Qamashi tumanining Fargʻona, Qorabogʻ, Chimqoʻrgʻon sovxozlarida oʻtkazilgan boʻlsa, 1984-yildan boshlab Qamashi shahridagi „Госкомсельхозтехника“, „Chimqoʻrgʻon PMK tresti“, „Қашқадарёводстрой“larda ham olib boriladigan boʻldi.

Qashqadaryo yuqorida keltirilgan sovxoz hududida tashkil etilgan texnikumga oʻxshash oʻrta maxsus oʻquv yurti U.Yusupov sovxoz-texnikumi Nishon tumanida OʻzSSR Markaziy Komiteti va Ministrlar Sovetining 1979-yil 18-sentabr № 661 qarori va OʻzSSR qishloq xoʻjalik ministrligining 1979-yil 25-sentabr buyrugʻi bilan 1979-yilning sentabr oyida tashkil etildi.

1979-1980 oʻquv yilida agronomiya boʻlimiga 60 ta, qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash boʻlimiga 60 ta qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishini rejalashtirish boʻlimiga 90 oʻquvchi qabul qilindi va 11 nafar oʻqituvchi ishga jalb qilindi⁵⁵.

Texnikum pedagogik jamoasi safi kengayib, 1983-yilda 21 nafarga, 1984-yilda 27 nafarga yetdi. Talabalarning amaliyot darslari yaxshi tashkil qilindi va texnikum sovxoz moddiy bazasidan foydalanildi. Shuning uchun amaliyot asosan sovxozda oʻtkazildi.

Oʻquv va diplomoldi yoki ishlab chiqarish texnologik amaliyoti esa U.Yusupov sovxozining markaziy taʼmir ustaxonasida, sut mahsulotlari fermasi, choʻchqachilik fermasi, parrandachilik fermasi, qoramolchilik fermasi, biolaboratoriyasi, sovxoz ishlab chiqarish boʻlimi, avtotraktorpark va yoqilgʻi moylash shahobchalarida olib borildi.

Shuningdek, oʻquv amaliyoti Nishon sovxozining vetlaboratoriyasi, veteranariya klinikasida, ishlab chiqarish texnologik amaliyoti esa Toshkent shahri Toshselmash zavodlarida oʻtkazildi. Bundan tashqari U.Yusupov sovxosi ishlab chiqarish boʻlimi, Nishon tumani vetlaboratoriyasi, veteranariya klinikasi, Qarshi shahri mashinalarni hisob-kitob qilish boshqarmasiga ekskursiyalar uyushtirildi.

1985-yilda Shahrisabz tuman Engels nomli kolxozda 900 oʻrinli, Miraki posyolkasida 400 oʻrinli klublar, Leningrad kolxosi va Hisorak suv havzasi

⁵⁵ Маматкулов Б. Нишон туманининг совет мустанлакачилиги йилларидаги аҳволи. Магистрлик диссертацияси. Қарши, 2007.86-бет.

boshqarmasida aholiga kompleks maishiy xizmat ko'rsatish uyi,choyxona,klub,sport zali qurilib,foydalanishga topshirildi.Shu yili tuman kasalxonalarida 1981-yilga nisbatan o'rinlar soni 205 taga kengaytirildi,shu vaqt ichida 60 o'rinli bolalar,50 o'rinli gepatit va 60 o'rinli onalar va bolalar kasalliklari shifoxonalar, „Shahrisabz”massivida 25 o'rinli ,G'ilon qishlog'ida 20 o'rinli qishloq uchastka kasalxonolari ishga tushirildi.Kasalxonalar soni 6 taga,qishloq vrachlik ambulatoriyalari 7taga,feldsherlik akusherlikpunktlari 5taga ko'paytirildi⁵⁶.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qashqadaryo viloyati aholisi uchun ko'rsatilgan ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy xizmatlar XX asrning 80 – yillarida birmuncha yaxshilanib, yuksalib bordi. Yangidan yangi o'quv muassasalar, kasalxonalar, qishloq vrachlik punktlari, sport zallari, klub va choyxonalar qurilib foydalanishga topshirildi. Mavjudlarini o'rin sonlari ko'paytirildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini moddiy ta'minlash choralarini yaxshilashga harakat qilindi.

⁵⁶ ҚВДАнинг Шаҳрисабз филиали. 3-жамғарма, 1-рўйхат, 885-иш, 23-бет.

II.BOB.“Qayta qurish” yillarida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar.

II.1. Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar.

KPSS MK Aprel (1985-yil) plenumida Sovet jamiyatini „qayta qurish“, jamiyat hayotining barcha sohalarini „chuqur isloh qilish masalasi qo‘yildi. Qabul qilingan qarorda ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, oshkoralik, iqtisodiy o‘rishni fan-texnika yutuqlariga tayanib jadallashtirish lozimligi ta’kidlandi⁵⁷.

Biroq uzoq yillar hukmronlik qilgan davlat monopoliyasi, idoralari, byurokratik apparat ko‘zda tutilgan rejalarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymadi. Qayta qurish siyosatini amalga oshirishga qanchlik harakat qilinmasin kutilgan natijalarga erishilmadi. Har bir o‘tgan kun Sovet tuzumi halokatidan dalolat bera boshladi.Ushbu jarayonni O‘zbekistonning janubida joylashgan Qashqadaryo viloyati misolida ko‘rib chiqamiz.

1986-yilda Qashqadaryoning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli 1985-yildagiga nisbatan ham og‘ir bo‘ldi.„Paxta ishi“, “o‘zbeklar ishi” jarayoni yanada kuchayib rahbar xodimlarni qamoqqa olish,partiya safidan chiqarishko‘paydi.Bu holat esa 1986-yildagi rejalarni bajarishga salbiy ta’sir etdi.

1986-yilning mahsulot ishlab chiqarish rejaralarini Qashqadaryo viloyatidagi 75 ta sanoat korxonasidan 22 tasi bajarmadi. Zavod-fabrikalarda sifati past mahsulotlar ishlab chiqarish davom ettirildi.Birgina Qarshi to‘quv birlashmasining chiqargan erkaklar ko‘ylagining 35 foizi sifatsizligi uchun sotilmadi.

Qarshi qurilish boshqarmasida ishdan qolishlar,ish vaqtini yo‘qotish holatlari ko‘payib ketdi.Kadrlar qo‘nimsizligi 28 foizni tashkil etdi.Qator tumanlarda rejalashtirilgan qurilishlar o‘z vaqtida bajarilmadi.Bu ishda Kitob,Qamashi,G‘uzor tumanlarining ishi ayniqsa qoniqarsiz bo‘ldi.

Qashqadaryodagi 184 ta kolxoz va sovxozdan 108 tasi xo‘jalik yilini zarar bilan yakunladi,shuning uchun viloyat davlatga paxta,meva va poliz ekinlari,go’sht, tuxum,sut va boshqa mahsulotlar sotish rejaralarini

⁵⁷ Горбачев М.С. Избранные речи и статьи.Т.2. – Москва: Политиздат, 1987. - С152.

bajarmadi. Viloyatning Chiroqchi tumanida esa 1986-yilda davlatga paxta topshirish rejasini 35,9 foizga ado etildi⁵⁸.

1986-yilda Usmon Yusupov tumani xo‘jalik rahbarlari hali ishlatsa bo‘ladigan texnikani remont qilish o‘rniga ulardan 12 ta paxta terish mashinasini hisobdan chiqarishdilar. Buning o‘rniga 15 ta yangi paxta terish mashinasini xarid qildilar⁵⁹.

Xo‘jasizlik tufayli qishloq xo‘jalik texnikasi yangi bo‘lishiga qaramasdan qismlarga bo‘lib tashlash holatlari takrorlandi.

O‘z SSR Davlat agrosanoat kompleksi kolegiyasining 1986-yil 15-martdagi majlisida Bahoriston tumanidagi S.Murodov nomli sovxozda 98 ta paxta terish mashinasining hammasida ko‘pgina qismlar yo‘qligi ta’kidlandi. Bu yerda 1983-1984 yillarda ishlab chiqarilgan 40 ta ХНН-1,8 va 14 ХБ-2,4 paxta terish mashinalari zavoddan keltirilganidan buyon yig‘ilmay turganligi ma’lum bo‘ldi. Umuman birgina shu sovxozda texnikaga xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lish 59 ming so‘mdan ko‘proq zarar keltirdi⁶⁰.

1986-yilda Qashqadaryo viloyatining Ulyanov tumanidagi qator kolxoz va sovxozlarni texnika bilan ta’minlash sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etishga kirishildi.

Jumladan, shu tumandagi “Partiya XX syezdi” sovxozida har bir texnika vositasi xo‘jalik hisobiga o‘tkazilib mexanizatorga ijaraga berildi. Ayni vaqtda sovxozda remont ustaxonasining moddiy bazasini mustahkamlashga harakat qilindi⁶¹.

1986-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1985-yilga nisbatan 171,2 mln so‘mga ko‘payib, 1223,2 mlh so‘mni tashkil etdi.

1986-yilda jami 789,7 mln so‘mlik qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu 1985-yilga nisbatan 149,2 mln so‘mga kamaydi.

Qashqadaryoda davlatga paxta, sabzovot, poliz ekinlari va mevalar topshirish 1985-yilga nisbatan kamayib ketdi. 1985-yilda 434,4 ming tonna paxta topshirilgan

⁵⁸ Кашкадарьинская правда. 1987 год 14-апреля.

⁵⁹ Кашкадарьинская правда. 1987 год. 4-января.

⁶⁰ Носиров Р. Қишлоқ хўжалигини комплекс механизациялаш масалалари. -Тошкент, 1988. 15-бет.

⁶¹ Носиров Р. Қишлоқ хўжалигини комплекс механизациялаш масалалари. Тошкент, 1988. 16-бет

bo'lsa, 1986-yilda 354,6 ming tonna paxta topshirildi. 1986-yilda 450,8 mln so'mlik kapital mablag'lar o'zlashtirildi⁶².

1986-yilda Qashqadaryoda mavjud 143 xo'jalikning 136 tasi, paxtachilik brigadalarining qariyb 82 foizi qoloqlik va qarzdorlik botqog'iga botib, viloyat bo'yicha har gektaridan hosildorlik atigi 14 sentnerni tashkil etgan⁶³. O'tgan uch yil mobaynida rejaga nisbatan davlatga 700 ming tonna paxta kam topshirilgan.

50 ming gektar yerni qamish bosgan, 60 ming gektar yer kuchli darajada sho'rlangan.

O'tgan uch yil mobaynida viloyatdagi rahbar kadrlarning qariyb 900 nafari almashtirilgan⁶⁴. Tuman va shahar partiya qo'mitalarining qator kotiblari, ijroqo'm raislari, xo'jalik rahbarlari, shuningdek, yaqindagina ishga tavsiya etilgan, endigina ish boshlagan ko'pdan ko'p mas'ul shaxslar vazifasidan olib tashlangan. Ammo bu o'zgarishlar mavjud ahvolning o'nglanishiga ta'sir ko'rsatmagan. Ishlar orqaga ketgan yillar davomida yechilmay kelayotgan ijtimoiy muammolar tufayli aholi o'rtasida norozilik kundan kunga avj olgan. Lavozimidan olingan rahbar va mutahassislarning barchasi ham ishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklari uchun jazoga tortilgan deb bo'lmasdi⁶⁵.

1986-yil yanvarida Chiroqchi tuman aholisiga jami 1110 o'rinli 10 ta kasalxona, shundan 395 o'rinli 5 ta qishloq uchastka kasalxonasi, 11 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 18 xil mutaxassilikda xizmat ko'rsatadigan markaziy tuman poliklinikasi, stomatologiya poliklinikasi, teri-tanosil kasalliklari dispanseri, 14 ta klinik laboratoriya, 80 ta feldsher-akusherlik punktlari xizmat qilgan⁶⁶.

1986-yil Qashqadaryoda qariyb 700 ta qishloq normal ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan. 150 ta qishloqda tabiiy gaz yo'q edi. Qashqadaryoning 28 ta qishloqlarida magazinlar bo'lmagan. 327 ta qishloqda maishiy xizmat korxonalari qurilmagan. Ayniqsa, Dehqonobod, Qamashi, Yakkabog' va boshqa tumanlarda ijtimoiy sohaga qishloqda aholining turmush darajasini yaxshilash sohasidagi

⁶² Кашкадарьинская правда. 3-февраля. 1987-года.

⁶³ Қашқадарё ҳақиқати. 1987-йил, 3-февраль.

⁶⁴ Равшанов П. Қашқадарё истиқлол арафасида. -Тошкент: Маънавият, 2003. 14-бет.

⁶⁵ ҚВД Анинг Шаҳрисабз филиали. 316-жамғарма, 1-рўйхат, 291-иш, 51-варақ.

⁶⁶ ҚВД Анинг Шаҳрисабз филиали. 316-жамғарма, 1-рўйхат, 291-иш, 51-варақ.

faoliyatlari talabga mutlaqo javob bermagan. Birgina U.Yusupov tuman Sulaymon Murodov sovxozida Qarshi qurilish boshqarmasining aybi bilan vodoprovod, asfalt yo‘l, qishki klub qurilmasdan qolgan, sovxozdagi 80 ta paxtachilik brigadasining faqat 16 tasida dala shiyponi mavjud bo‘lgan turar joylarda maishiy xizmatni yo‘lga qo‘yishni o‘ylashmagan⁶⁷.

1986-yilda G‘uzor tumanida ichimlik suvi muammosi pishib yetilgan. Aholini tabiiy gaz bilan ta‘minlash ham qoniqarsiz ahvolda bo‘lgan. Birgina G‘uzor shahar aholisining 45-50 foizi ichimlik suvi bilan ta‘minlangan⁶⁸.

G‘uzor tuman markazidagi suv quvuri o‘sha vaqtdan 20-25 yil muqaddam o‘tkazilganligi sababli ularning ko‘pchiligi yaroqsiz holatga kelgan.

Lekin o‘tgan 1982-1984-yillarda biror metr tuba ham almashtirilmagan.1985-yilda liniyalardan suv haydalganda, ba’zi joylarga suv yetib bormasdan qolgan. Chunki trubalar chirib chiqindilarga to‘lib qolgan. Bu ahvoldan xalq haqli ravishda norozi bo‘lishgan. Tuman aholisini ichimlik suvi bilan ta‘minlovchi Qamashi-G‘uzor suv yo‘lida bosh rejadagi uchta o‘rniga atigi bitta suv to‘plagich qurish ham kun tartibiga qo‘yilmagan⁶⁹.

Bu masala bilan Qashqadaryo viloyat vodokanal boshqarmasi, G‘uzor tuman ijroiya qo‘mitasi ham jiddiy shug‘ullanmagan.

G‘uzor tumanida viloyatning ПМК-4 qurilish tashkiloti tabiiy gaz bilan ta‘minlash sohasida ish olib borsada, 1985-yilga ajratilgan 36 ming so‘m pul ПМК tomonidan to‘liq o‘zlashtirilmasdan qolib ketgan⁷⁰.

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og‘irlashib, rahbariyatdan noroziligi ortib, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” natijasida ko‘p oilalar boshiga og‘irliklar tushgan bir paytda O‘zbekiston Markaziy Qo‘mitasi Qashqadaryo viloyat qo‘mitasining birinchi kotibi Normo‘min Turopovni vazifasidan ozod qildi va uning o‘rniga I.A.Karimovni qo‘yishga qaror qildi⁷¹.

O‘zbekiston KP Qashqadaryo viloyat qo‘mitasining 1986-yil 26-dekabrda

⁶⁷ Кашкадарьинская правда.10-декабря.1987-года.

⁶⁸ ҚВДАнинг Ғузор филиали. 1-жамғарма,1-рўйхат, 872-иш, 90-варақ.

⁶⁹ ҚВДАнинг Ғузор филиали. 1-жамғарма,1-рўйхат, 872-иш, 91-варақ.

⁷⁰ ҚВДАнинг Қарши филиали. 1-жамғарма,1-рўйхат, 146-иш, 2-варақ.

⁷¹ Равшанов П. Қашқадарё истиклол арафасида.-Тошкент:Маънавият,2003.13-бет.

bo'lib o'tgan navbatdan tashqari Plenumida O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari Davlat plan komitetining raisi vazifasida ishlab kelayotgan Islom Abdug'anievich Karimov birinchi kotib etib saylandi. O'zbekiston KP Qashqadaryo viloyat qo'mitasining ushbu plenumida ta'kidlanganidek, viloyatda xalq xo'jaligining hamma sohalari bo'yicha 1986-yilning o'n bir oylik rejalari bajarilmagan, kapital mablag'larni o'zlashtirish, qurilish-montaj ishlari rahbariyat e'tiboridan chetda qolgan edi. I.A.Karimov o'z atrofiga Qashqadaryoning oqsoqollarini, partiya, sovet rahbarlarini to'plab, barcha imkoniyatlarni o'rganib chiqib, viloyatda namoyon bo'lgan muhitni va ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yaxshilashga kirishdi. Tuman va qishloqlarga borib aholi bilan uchrashdi. Partiyadan o'chirilib, sudlanib. javobgarlikka tortilgan kishilarning shikoyatlarini tinglab, uning ijobiy yechimini izladi. Ishlatilmasdan qolgan mablag'larni jadallik bilan foydalanishni ta'minladi.

Qashqadaryo viloyatida 1987-88yillarda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 35 mln so'm pul sarflandi. Shu davrda Qashqadaryoda 250 km. yo'l qurildi. 15 ming kvartira tabiiy gaz bilan ta'minlandi. Yangidan esa 5 ta salomatlik punktlari tashkil etildi⁷².

Qashqadaryo shifoxonalarida o'rinlar sonining o'sishi bilan birga ularning asbob-uskunalar bilan ta'minlanishiga e'tibor kuchaydi, bemorlar tibbiyot asbob-uskunalaridan to'liq foydalanishi imkoniyatlari qidirildi.

1987-yilda Shaxrisabz tumanidagi 18 ta xo'jalik Markaziy posyolkalardan 16 tasida bosh reja asosida turar joy qurish ko'zda tutilgan edi. Shaxrisabz tumanidagi 134 ta aholi punktidan 100 dan ortig'ida zamonaviy qishloq qurish bo'yicha umuman bosh reja hali tuzilmagan edi. Shaxrisabz tumanida Xutor⁷³ sistemasini tugatish, ko'rimsiz qishloqlar o'rniga yangi posyolkalar barpo etish ishlariga rahbariyat tomonidan hali yetarli e'tibor berilmadi.

Tumanning ko'pgina xo'jaliklarida bu ishlar Bosh rejaga amal qilmagan holda pala-partish bajarishga kirishildi, ya'ni xutor sistemasini tugatish o'rniga yangidan

⁷² Кашкадарьинская правда. 10-декабря. 1987-года.

⁷³ Xutor-o'zi yakka ajralib turadigan yer uchastkasi va hovli. Kichkina qishloq.

rejasiz uy-joy qurilishiga yo‘l ochib berildi. Shahrisabz tumanida qishloqlarni bir-biri bilan bog‘lovchi ichki yo‘llarni ta‘mirlash ishiga kam e‘tibor berildi.

1987-yilda Shahrisabz tumanida Chorshanba-Katta, Nohi – Shiramon - Shavxak yo‘llari ta‘mirlandi. Chorshanbe-Achchig‘i-Xitoy yo‘llarida qurilish davom ettirildi⁷⁴. Shamaton-O‘rta qo‘rg‘on yo‘liga shag‘al to‘kilib, qurilish oxiriga yetkazilmadi⁷⁵.

1987-88 yillarda Qashqadaryo qishloqlari hayotida ijtimoiy-iqtisodiy sohada siljishlar ko‘zga tashlansada, mahsulot ishlab chiqarishda qoloqlik ta‘siri kuchli edi. Davlatga 374 ming tonna paxta, 58 ming tonna g‘alla, 25 ming tonna go‘sht, 12 ming tonna sut kam topshirildi. Qishloq xo‘jaligida sarflangan 1 so‘mga 75 tiyin foyda olindi.

O‘sha yillarda Qashqadaryoda ijtimoiy sohaga kapital mablag‘ sarflash 10 foizga, tashkilotlar va korxonalar hisobidan esa mablag‘ 15 foizga o‘sgan xolos. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 20 foizga ko‘paydi.

Aholiga go‘sht va go‘sht maxsulotlari ishlab chiqarish 15 foizga. sabzavot yetishtirish 30 foizga, poliz maxsulotlari 38 foizga, kartoshka yetishtirish 2 foizga ko‘paytirildi. 1987-1988 yillarda Koson tumanida xo‘jaliklar hisobidan 3 ta maktab, 57 ta sinf xonasi 4 ta medpunkt, 3 ta hammom, 5 ta magazin, 37 ta do‘kon. 27 tamaishiy xizmat korxonasi qurib ishga tushirilgan. 100 km yo‘l ta‘mirlangan. Shunday yutuqlarga Qashqadaryoning qolgan tumanlarida erishilmadi⁷⁶.

1987-yilda Qashqadaryoda 4 mingdan ziyod vrach va 12,5 ming nafar o‘rta ma‘lumotli tibbiy xodim aholiga meditsina xizmati ko‘rsatdi. Har bir vrachga 370 aholi, har bir meditsina hamshirasi yoki feldsherga 120 aholi to‘g‘ri keldi. Kasalxonalar va ambulatoriya-poliklinika muassasalari tarmog‘i kengaydi. Pul bilan ta‘minlashning barcha manbalari hisobidan 510 o‘rinli kasalxonalar va har smenada 1,8 ming bemorni qabul qiladigan ambulatoriya-poliklinika muassasalari qurildi. Aholining yuqori malakali meditsina yordamiga bo‘lgan

⁷⁴ ҚВДАнинг Шахрисабз филиали.3-жамғарма,1-рўйхат,921-иш,7-варақ.

⁷⁵ ҚВДАнинг Шахрисабз филиали.3-жамғарма,1-рўйхат,921-иш,7-варақ.

⁷⁶ Қашқадарё ҳақиқати.1988-йил,9-февраль.

talab-ehtiyojlari to'la qondirilmadi. Qishloq aholisiga meditsina xizmati ko'rsatish darajasi ancha orqada qoldi⁷⁷.

1988-yilning dekabrda Qashqadaryoda ijtimoiy ishlab chiqarishga qatnashmaydigan odamlar soni 37 ming kishini tashkil etdi.

1988-yil yanvarida Chiroqchi tumanida 10 ta kasalxona, 13 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 85 ta med punkt bo'lib. ular tuman aholisi uchun kamlik qilgan. Masalan: Tumanda aholisi 300 dan ziyod bo'lgan 133 ta qishloq bor bo'lib, tuman bo'yicha mavjud med punkt esa 85 ta bo'lgan. Demak, yana 48 taqishloqda med punkt qurish kerak bo'lgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, mavjud 85 ta medpunktning atigi bittasi namunaviy loyiha asosida qurilgan. Qolganlari esa moslashtirilgan binolarda faoliyat olib borgan⁷⁸.

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishdagi imkoniyatlardan Qashqadaryo viloyat agrosanoat qo'mitasi tarmoqlarida ham yetarli darajada foydalanilmagan. Natijada agrosanoat kompleksida ana shunday tovarlar ishlab chiqarish rejalari amalga oshmagan.

Qashqadaryo mahalliy sanoat va viloyat maishiy xizmat boshqarmalarida ham xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sur'atlari sekinlik bilan amalga oshgan. Qashqadaryo viloyatidagi kooperativlar qurilishi sekinlik bilan rivojlangan. 1988- yilda viloyatda 126 kooperativ tashkil etilgan bo'lib, ularning aksariyat qismi umumiy ovqatlanish sohasidagi kooperativlar bo'lgan. Xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi kooperativlar viloyatda 27 tani tashkil etgan. Qamashi, Ulyanov, Yakkabog', Dehqonobod, Bahoriston, G'uzor tumanlarida bunday kooperativlar umuman tashkil etilmagan. Mahalliy sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati talabga mutlaqo javob bermagan. Chiroqchi kasanachilik, Qarshi tikuvchilik, Kitob xalq iste'moli mollari, Koson qandolatchilik fabrikalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kattagina qismi davlat standartlari talabiga javob bermagan⁷⁹. Birgina 1988-yildan yuqorida zikr etilgan korxonalar 33 ta reklamatsiya olib, 29 ming so'm jarima to'lagan.

⁷⁷ Қашқадарё ҳақиқати. 1988-йил, 10-декабрь.

⁷⁸ ҚВД Анинг Шахрисабз филиали. 316-жамғарма, 1-рўйхат, 32-иш, 5-варак.

⁷⁹ Қашқадарё ҳақиқати. 1988-йил, 10-декабр.

Qashqadaryo viloyatidagi bir qator korxona va tashkilotlarda ish vaqtining qadriga yetilmadi. Shuning uchun ham ko'pgina tashkilotlar, muassasalar va ishlab chiqarish korxonalarida mehnat intizomi buzildi, ishdan qolish va bekor turib qolish hollari yuz berdi. Masalan, 1988-yilning birinchi yarmida viloyat bo'yicha bekor turib qolish natijasida 31121 ishchi kuni yo'qotildi.

Ishdan qolishlar natijasida sanoat korxonalarida 4750, qurilishda 11782 ishchi kuni yuqotildi. Natijada 1988-yilning faqatgina birinchi yarmida 3225 ming so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarilmadi, 6510 ming so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilmasdan qoldi. Viloyat bo'yicha 36,5 mln. so'mlik asosiy fondlar, 150 o'rinli kasalxonalar ishga tushirilmasdan, 32,8 mln. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilmasdan qoldi⁸⁰.

1989-yilda G'uzor tumanida 475 o'rinli markaziy kasalxona, 2 ta poliklinika, xotin-qizlar konsultatsiyasi, 85 koykali, 2 ta qishloq kasalxonasi, 140 o'rinli bolalar shifoxonasi, 100 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi, 13 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 49 ta feldsher-akusherlik punkti, 8 ta dorixona mavjud bo'lib, ularda 219 nafar oliy ma'lumotli vrachlar, 852 nafar o'rta meditsina hodimlari xizmat qilishlariga qaramasdan xalqning sihat-salomatligini zamon talablari darajasida bajara olishmagan.

1989-yilda G'uzor tumanidagi birorta xam qishloq to'liq gazlashtirilmagan, G'uzor shahridagi bor yo'g'i 200 xonadon tabiiy gazdan foydalangan. 1989-yildan e'tiboran shahardagi A.Navoiy, Kirov, Geolog ko'chalariga gaz quvurlari tashlash va o'tkazish ishlari amalga oshirilgan.

1989-yilga kelib G'uzor tumanidagi qishloqlarni tabiiy gaz bilan ta'minlashga dastlabki qadamlar qo'yildi., Partiya XX syezdi" kolxozida 3 km gaz quvuri yotqizildi. "Paccbet" xo'jaligida 7 kilometrlik quvur yotqizish ishlari davom ettirildi. Lenin nomli davlat xo'jaligida 32 km., Kuybishev nomli sovxozda 30 km, "Pachkamar" sovxozida 15 km. K.Marks nomli kolxozda 16 km tabiiy gaz quvuri yotqizishni 1991-yil rejasiga kiritildi⁸¹.

⁸⁰ Qashqadaryo viloyati. 1988-yil, 10-dekabr.

⁸¹ QВДАнинг G'uzor filiali. 1-jamg'arma, 1-ru'yxat, 1088-ish, 91-varaq.

1989-yilda Chiroqchi tumanida 22 qishloq aholisi kanal va hovuz suvidan, 11 qishloq aholisi chashma va ariq suvidan, 78 ta qishloq aholisi artezian quduqlar suvidan tashib kelish yo'li bilan foydalanildi.

Tumandagi 134 aholi punktining 23 tasidagina aholining 30-40% vodoprovod suvidan foydalandi. 1986-yilda 12,5 km, 1987-yilda 10,7 km, 1988-yilda 3,3 km, 1989-yilning o'tgan davrida 7,8 km vodoprovod liniyalari ishga tushirildi.

1989-yilda Chiroqchi tumanining Voroshilov nomli sovxozda 28 km vodoprovod liniyasi qurish, Lenin nomli sovxozning Markaziy Sho'rquduq aholi punktiga Yettitomdan ichimlik suv olib berish uchun 7 km vodoprovod liniyasi o'tkazish, Ilich nomli sovxozda 5 km vodoprovod liniyasi yotqizish va tuman bo'yicha ichimlik suvi uchun 25 ta artezian quduq qazdirish rejalashtirilib amalga oshirish boshlab yuborildi⁸².

1990-yil boshida Chiroqchi tumanidagi 21749 xonadondan atigi 13622 xonadon tabiiy gazdan foydalanmoqda edi. Afsuski, 7601 xonadon gazdan foydalanish uskunalari qurilgan bulsada, gaz bilan ta'minlanmagan edi.

1990-yilda Qashqadaryoda 4300 vrach va 14 ming o'rta tibbiyot xizmatchisi xalq salomatligi yo'lida faoliyat ko'rsatdi⁸³.

1990-yil 28-iyulda O'zR Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston SSR qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida"gi farmoni o'sha davrdagi eng dolzarb, tezda hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarni o'z ichiga olgan xujjat edi⁸⁴. Shu tufayli O'zbekiston SSR Prezidentining Farmonida jumladan shunday deyilgan. "O'zbekiston SSR qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida. Qishloqni ijtimoiy jihatdan obod qilishda yuz bergan katta qoloqlikni bartaraf etish yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni bajarish maqsadida respublika qishloq aholisini 1990-1992 yillarda ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash Davlat dasturini qabul qilish zarur deb hisoblayman.

⁸² ҚВДАнинг Шахрисабз филиали. 316-жамғарма, 1-рўйхат, 32-иш, 9-варак.

⁸³ Қашқадарё ҳақиқати. 1990-йил, 16-февраль.

⁸⁴ Совет Ўзбекистони /1990-йил. 31-июль.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveta mazkur masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilsin, qishloq aholisini markazlashtirilgan tarzda suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni tubdan ko'paytirishni ko'zda tutsin. Ko'rsatilgan davrda 1,7 million qishloq aholisiga vodoprovod tarmog'idan ichimlik suv va qishloqdagi 330 mingta uy-joy hamda kvartiraga tabiiy gaz berish ta'minlansin. Shu maqsadda suv bilan ta'minlash ishlari hajmi 3 baravar va gazlashtirish ishlari hajmi 4 baravar oshirilsin.

Sovet va xo'jalik idoralari respublikada gaz va vodoprovod tarmoqlarini qurishga qo'shimcha moddiy-texnika resurslarini jalb etish uchun mamlakatning boshqa regionlari bilan bevosita shartnomalar tuzishi kengroq amalga oshirilsin, dasturni ro'yobga chiqarishda ishtirok etayotgan mehnat jamoalari tashabbusi rag'batlantirilsin. Bu ijtimoiy dasturnimoliyaviy va moddiy-texnikaviy resurslar bilan ustun darajada ta'minlash yuzasidan sharoit yaratilsin.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1991-1993 yillar davomida har yili yanvar oyida O'zbekiston SSR Prezidentini respublika qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash dasturi qanday bajarilayotganligidan xabardor qilib tursin.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti I. Karimov Toshkent shaxri, 1990 yil 28 iyul⁸⁵ O'zbekiston SSR Prezidentaning yuqorida keltirilgai Farmoni respublika qishloq aholisining farovonligini yanada oshirishga, uning ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlanishini keskin yaxshilashga qaratilgan edi. Darhaqiqat, 1990-yil iyulida O'zbekistonning 5 milliondan ziyod qishloq aholisi toza ichimlik vodoprovod suvidan foydalanish imkoniyatiga ega emas edi. Respublika qishloqlaridagi uylar va kvartiralarda yashayotgan kishilarning faqat 18 foizi tabiiy gazdan foydalanmoqda edi. O'zbekiston SSRning 24 ta qishloq tumaniga esa tabiiy gaz hamon keltirilgani yo'q edi. Gaz va neft o'lkasi bo'lmish Qashqadaryo viloyat aholisining atigi 20 foizi, shu jumladan qishloq aholisining bor yo'g'i 5 foizi

⁸⁵ Совет Ўзбекистони. 1990-йил. 31-июль.

tabiiy gazdan foydalanayotganligi mutlaqo qanoatsiz bir hol edi⁸⁶.

O'sha davrda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tabiiy gazning 84 foizi, neftning 46 foizi Qashqadaryo viloyati hududidan qazib olinib, respublika aholisining 40 foizi tabiiy gazdan foydalanayotgan bir vaqtda Qashqadaryoda bu ko'rsatkich 2 baravarga kamligi sababini mutlaqo asoslab bo'lmas edi⁸⁷.

Aholining Sovet hokimiyatidan norozilik kayfiyatlari kundan kunga oshib bordi. Xalqning orzu-umidlari mustaqillikka erishishga bog'liq bo'lib qoldi.

Kommunistik partiya va Sovet hukumati ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada tub yerli aholini har tomonlama kamsituvchi siyosat olib bordi. O'zbekiston kommunistik partiyasi KPSSning bir tarkibiy qismi bo'lib, uning siyosatini O'zbekistonda amalga oshirib kelmoqda edi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1984-yil iyunda bo'lib o'tgan XV Plenumida O'zbekistonda partiya sovet apparati ishlarini yaxshilash uchun markazdan malakali kadrlar jo'natish zarurligi asoslandi.

Milliy kamsitish siyosatining yorqin ko'rinishlaridan biriga O'zbekiston KP Markaziy qo'mitasining XV Plenumidan so'ng markazdan O'zbekistonga yuborilgan "kadrlar desanti" yorqin misol bo'ldi. Bu "desantchilar" respublikada asosan Sovet, partiya va huquq-targ'ibot idoralarida rahbarlik lavozimlarini egallab "layoqatsiz" deb topilgan mahalliy kadrlar o'rnini egalladilar. Ushbu holatni Qashqadaryo viloyati misolida ko'rib chiqamiz.

Qashqadaryoda viloyat Ijroiya Qo'mitasining raisi vazifasida samarali ish boshlagan Toshpo'lat Saxatov o'rniga Rossiyaning Orlov viloyatidan kelgan "desantchi" A.G.Kadin Qashqadaryo viloyat ijroiya qo'mitasi raisi vazifasini egalladi. M.F.Soldatov, N.M.Mixaylov, N.M.Videshin, S.V.Utkin, V.A.Loizitskiy kabilar O'zbekiston KP Qashqadaryo viloyat qo'mitasidagi ikkinchi kotib, tashkiliy ishlar, umumiy, ma'muriy ishlar, Qarshi shahar partiya qo'mitasi birinchi kotibi vazifalariga qo'yildilar. O'zbekiston KP Kitob tuman qo'mitasining birinchi kotibi Y.A.Melentev, O'zbekiston KP Muborak shahar qo'mitasining birinchi

⁸⁶ Қашқадарё ҳақиқати. 1990-йил, 31-июль.

⁸⁷ Ҳаёт ва иқтисод. Тошкент. 1990. №4. 24-бет.

kotibi Iliadi, Muborak tuman qo'mitasining birinchi kotibi N.S.Osmanov xam yerli xalq vakillari emas edi. Qashqadaryodagi mavjud tuman partiya qo'mitalarining ikkinchi kotibi vazifalari xam ko'p holatda ularga tegishli bo'ldi⁸⁸.

Desantchilar partiya, Sovet idoralarining yig'ilishlarida rus tilida muloqot qilib yerli xalq vakillarini ham rus tilida gapirishini talab qildilar. Rus tilida durust so'zlay olmaganlar ustidan kuldilar. Qishloq aholisi orasida, maktablarda rus tilining baynalminal roliga ortiqcha baho berdilar. Milliy urf-odatlar, udumlar, hatto Navro'z bayrami ham tahqir qilindi. Qishloq odamlarining o'lim marosimlariga borishlari ham "desantchi"larga ma'qul bo'lmadi. Bu holat asta-sekin qishloq ahlining noroziligini uyg'ota boshladi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1981-yil 30-aprelda qabul qilgan qarorida ham respublikadagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ishlari olib borilishini nazorat qilish,uning keng ko'lamda olib borilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan edi.

Qarorga binoan 1982-yilda ta'mirlanishi zarur bo'lgan yodgorliklar qatoriga Shahrisabzdagi Oqsaroy,Malik Ajdar masjidi ham kiritildi.

Qashqadaryo viloyatida X-XI asrlarga oid bo'lgan Is'hoq Ota maqbarasi ta'mirlashning barcha qoidalariga xilof ravishda sement suvoq bilan suvab tashlangan.G'ishtdan yasalgan bu binodagi go'zal naqshlar esa ana shu suvoq ostida qolib ketdi.Viloyatdagi yana bir yodgorlik-Sulton mir Haydar majmuasi ham mana shunday sifatsiz ta'mirlash natijasida o'zining tarixiy va madaniy qimmatini yo'qotib qo'ydi.Qarshi shahridagi XVII asrga oid Shermuhammad madrasasi,G'uzor tumanidagi Gulshan madrasasi,Dehqonobod tumanidagi Kaltaminor,Sulyon Rabod masjidlari,Qarshi tumanidagi Charag'il,Yuqori Qorachil, Fayzi o'g'li, Zoir bobo, Kat, Parguza masjidlari shular jumlasidan. Umuman,viloyatda 1980-yillar o'rtalariga kelib buzilib,yo'qolib ketgantarixiy yodgorliklarning soni 47 tani tashkil etar edi.Vaholanki,Shahrisabz respublikadagi qadimiy davlatchilikning dastlabki maskani bo'lgan tarixiy shaharlardan hisoblanardi.

⁸⁸ ҚВДАнинг Қарши филиали.1-жамғарма,28-рўйхат,5-иш,47-варак.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 1980-yillarning oxiriga kelib, keng jamoatchilik orasida ham tarixiy yodgorliklarni tiklashga bo'lgan harakat ortib bordi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida tarixiy yodgorliklarni tiklash maqsadida bir guruh oqsoqollar, ziyolilarning tarixiy obidalar, qadimiy kitob va qo'lyozmalarni saqlash hamda avaylab asrash maqsadida yozilgan murojaatnomasi viloyat vaqtli matbuotida e'lon qilindi.

1985-yilga kelib Qashqadaryo qishloqlarining madaniy hayoti yanada chigallashdi. "O'zbeklar ishi", "paxta ishi" avj olishi natijasida kolxoz va sovxoz rahbarlarning, yetuk mutahassislarning nohaq ayblab qamoqqa olinishi natijasida qishloq aholisi orasida sovet hukumatiga nisbatan norozilik kayfiyatlari yuzaga chiqa boshladi.

1985-yilga kelib Qashqadaryoda vaziyat murakkablashganini viloyat rahbarining uch muovini, sakkiz nafar bo'lim mudiri, shahar va tuman partiya qo'mitalarining 26 nafar kotibi, viloyat ijroiya qo'mitasi raisi, uning 4 nafar o'rinbosarlari, mas'ul kotibi, shahar va tuman ijroqo'mlarining 12 nafar raisi, viloyat miqyosidagi yirik tashkilotlarning 27 nafar rahbari, kolxoz va sovxozlarning 99 nafar rais va direktorlari ishdan olingani va ularning aksariyat ko'pchiligi jinoiy javobgarlikka tortilganidan ham bilsa bo'ladi⁸⁹.

1985-86 yil o'quv yilida Qashqadaryoda 373,1 ming o'quvchiga ta'lim berildi. Maktablarda 25 ming o'qituvchi xizmat qildi. Maktab o'quvchilarini paxta terimiga jalb etish davom ettirildi⁹⁰. 1985-yilda Qashqadaryo qishloq aholisiga maishiy xizmat ko'rsatish rejasi bajarilmadi.

1985-yilda Qashqadaryo umumiy ta'lim maktablarida qurilish ishlari davom ettirilib o'uvchi o'rinlari 10 mingga, maktabgacha tarbiya muassasasi o'rinlari 2,3 mingga ko'paytirildi.

Ta'limning barcha tarmoqlarida 400 ming o'quvchiga saboq berildi. Shundan 361 minggi umumiy ta'lim maktablarida, 11 ming nafari professional texnika o'quv yurtlarida, 15 ming nafari o'rta maxsus o'quv yurtlarida shug'ullandi. 22,8

⁸⁹ Равшанов П. Қашқадарё: истиқлол арафасида. - Тошкент: Маънавият, 2003. 26-27 бетлар.

⁹⁰ ҚВД Аниинг Қарши филиали. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 5-иш, 36-варак.

nafar yigit va qizlar o'rta ma'lumotga ega bo'ldilar. Qashqadaryoda 572 ommaviy kutubxona, 465 kinomoslamasi xalqqa xizmat kildi. 1985-yilda kinolarni tomosha qilganlar soni 12 millionga etgan⁹¹.

1986-yilda Chiroqchi tumanida 34 ta basketbol, 138 ta voleybol, 55 ta futbol maydonchalari, 12 ta sport zallari mavjud bo'lib, ularda sport sog'lomlashtirish ishlari olib borilgan. Bu sohadagi ishlar "Kommuna", "Partiya XXIV syezdi" kolxozlari va "Moskva" sovxozida bir muncha yaxshi yo'lga qo'yilgan.

1987-yilda Qashqadaryoda 420,6 ming kishi ta'limning har xil turlariga jalb etildi. 37,7 ming yigit-qiz o'rta ma'lumot oldi. Maktabgacha tarbiya doimiy muassasalarida qariyb 60 ming bola tarbiyalangan⁹².

Pul bilan ta'minlashning barcha manbalari hisobidan 18,2 ming o'quvchi o'rinli umumiy ta'lim maktablari 960 o'quvchi o'rinlari hunar-texnika bilim yurtlari, 3,7 ming o'rinli maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari 3,3 ming o'rinli klublar va madaniyat uylari foydalanishga topshirilgan.

1987-yilda Davlat kapital mablag'lari hisobidan umumiy ta'lim maktablarini foydalanishga topshirish 1986-yilga nisbatan 2,9 foiz, hunar-texnika bilim yurtlarini foydalanishga topshirish 4 baravar va maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini foydalanishga topshirish 3,6foizga ko'paygan⁹³.

Qashqadaryoda kitob fondi 5 million nusxadan oshadigan 600 ta ommaviy kutubxona, shuningdek, 300 ta klub muassasasi, 460 dan ziyod kino ustanovka aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ish olib bordi. Aholiga 1987-yil mobaynida kinoseanslar namoyish etish 7 milliondan ko'proqni tashkilet-di yoki aholi jon boshiga 5 kinoseans ko'rsatildi⁹⁴.

G'uzor tumanida istirohat bog'i jamoasi 1988-yilda Lenin komsomolning shonli 70 yilligi sharafiga o'tkazilgan madaniyat va istirohat bog'larining respublika ko'rigi yakuniga binoan konkursda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdilar va O'zbekiston SSR Madaniyat Ministrligining faxriy yorlig'i bilan

⁹¹ Qashqadaryo haqiqati. 1986-yil, 3-fevral.

⁹² Qashqadaryo haqiqati. 1988-yil, 9-fevral.

⁹³ Qashqadaryo haqiqati. 1988-yil, 9-fevral.

⁹⁴ Qashqadaryo haqiqati. 1988-yil, 9-fevral.

taqdirlandi⁹⁵.

1988-yilda Qashqadaryoda 420,6 ming kishi ta'limning har xil turlariga jalb etilgan. Umumiy ta'lim va hunar maktabi islohotiga muvofiq bolalar 6 yoshdan maktabga qabul qilindi. 1987-1988 o'quv yilida 12645 nafar 6 yoshli bola, shulardan 1983 nafari maktabgacha tarbiya muassasalarida birinchi sinf dasturiga muvofiq o'qitildi.

1989-yilda Qashqadaryoda 19777 o'quvchi o'rinli umumiy ta'lim maktablari qurildi. Bu o'tgan 1988-yilga nisbatan 7,4 foizga kam edi. Umumiy ta'lim maktablari qurish rejalari Qarshi, Koson, Muborak tumanlarida bajarildi, xolos. Maktabgacha tarbiya muassasalarida o'rinlar soni 3445 taga yetkazildi. Bu o'tgan 1988-yilga nisbatan 30,7 foizga ko'paygan.

Ammo Shahrisabz, Nishon, Qamashi tumanlarida maktabgacha tarbiya muassasalari qurish rejalari bajarilmagan⁹⁶.

1989-yilda G'uzor tuman aholisining bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishlari va ularning madaniy dam olishlari uchun 23 ta madaniy oqartuv muassasalari xizmat qilib, ulardan 1 tasi tuman madaniyat uyi, 2 tasi shahar, 7 tasi qishloq madaniyat uyi, 1 tasi kasaba birlashmasi, 3 tasi sovxoz klublari, 4 tasi tashkilotlarga qarashli klublar, 2 tasi avtoklub, 4 tasi kolxoz klublari va musiqa maktablari bo'lgan.

O'sha yili G'uzordagi "Nargiz" xalq ansamblning dasturi ancha kengayib, boyigan. Oilaviy ansambllar, folklor ansambllari, tashkil etilgan. Istirohat bog'i qoshida "Orom" cholg'u ansambli ish boshlab, u 1989-yili viloyat ansambllarining ko'rik konkursida ishtirok etib, faxrli birinchi o'rinni egallagan⁹⁷.

Qishloq yoshlari orasida ham milliy qadriyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib borgan. Badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etgan yoshlar orasidan milliy ruhda ijod qilish kuchaygan. Bu haqda tuman va viloyat gazetalarida maqolalar chop etilgan. Xalqning vatanga bo'lgan tuyg'usi o'tmishini tiklashga bo'lgan intilishlar kuchaygan. Shu o'rinda Islom Karimovning 2008-yilda nashrdan chiqqan "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kitobida

⁹⁵ ҚВДАнинг Ғузор филиали. 1-жамғарма, 1-рўйхат, 1032-иш, 54-варақ.

⁹⁶ Қашқадарё ҳақиқати. 1986-йил, 16-февраль.

⁹⁷ ҚВДАнинг Ғузор филиали. 1-жамғарма, 1-рўйхат, 1032-иш, 54, 67-варақ.

keltirilgan quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o‘z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan. bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, tarixiy xotira tuyg‘usi tulaqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarli, yo‘qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan holis va haqqoniy o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi⁹⁸.

Bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondoshib, qadimiy tariximizni o‘rganish va baho berishda uning biror-bir davri yoki jabhasini e’tibordan chetda qoldirmaslikka xarakat qildik.

Jumladan, mustamlakachilik va Sovet davridagi ommaviy qatag‘onlar paytida zulm va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan, istiqlol yo‘lida jon fido etgan ajdodlarimizning hurmati va xotirasini joyiga ko‘yish, ularning el-yurt ozodligi yo‘lidagi ishlari, qoldirgan merosini izlash va o‘rganishni aynan ana shunday ma’naviy negizda yo‘lga qo‘yganimizni qayd etish zarur⁹⁹.

1989-1990 o‘quv yilida G‘uzor tumanida 11ta sakkiz yillik, 46 ta o‘rta maktab bo‘lib, jami maktablar soni 57 tani tashkil etgan. Bu maktablarda 36495 o‘quvchiga 2094 o‘qituvchi va tarbiyachilar ta’lim-tarbiya berganlar.

Tumandagi o‘qituvchi va tarbiyachilarning 1417 tasi oliy, 98 tasi to‘liqsiz oliy, 403 tasi pedagogik o‘rta, 176 tasi umumiy o‘rta ma’lumotli kadrlar bo‘lgan. Umumiy o‘rta ma’lumotli kadrlarning 141 tasi sirdan ta’lim olgan .

G‘uzortumanida 1990-yilning boshida 37 ta bog‘cha bo‘lib, ularga bog‘cha va yasli yoshidagi bolalarning 18 foizi yoki bog‘cha yoshidagi 25464 bolaning 4158 tasi borgan¹⁰⁰.

1990-yil sentabr oyida Chiroqchi tumanidagi 125 o‘rta va to‘liqsiz o‘rta maktablarda 51 mingdan oshiq o‘quvchi ta’lim olgan. Maktablarga sport va iste’mol mollari va anjomlarini inventarlar olishga zarur bo‘lgan pulni qishloq sovetlari ajratib bergan. Zarur bo‘lgan sport iste’mol mollari va anjomlarini tuman

⁹⁸ Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч .-Тошкент: Маънавият, 2008. 97-98 бетлар.

⁹⁹ Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч .-Тошкент: Маънавият, 2008. 97-98 бетлар.

¹⁰⁰ ҚВДАнинг Ғузор филиали. 1-жамғарма, 1-рўйхат, 1087-иш, 11-варақ.

xalq ta'limi bo'limi va tuman savdo birlashmalari yetkazib bergan¹⁰¹.

1990-yil fevralida Qashqadaryo viloyatida 597 ming 372 o'quvchiga ta'lim berilgan bo'lib, shundan 120 ming 321 o'quvchi 2 smenada ta'lim olishgan.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida 67 ming 858 bolaga tarbiya berilgan¹⁰².

XX asrning 80-yillarida Qashqadaryoning adabiy muhitida yangi bir sifat o'zgarishlari ro'y bergan. Qashqadaryoning Neko'z qishlog'ida 1941-yilda tavallud topgan Abdulla Oripov, 1930-yilda Po'lati qishlog'ida yorug' olamga kelgan Jumaniyoz Jabborov, 1934-yilda Xo'jaxayron qishlog'ida tug'ilgan Normurod Narzullayevlarning mamlakatimiz poytaxti Toshkentda ijod qilib xalqimiz madaniyatini rivojlantirishga qo'shayotgan hissalarini qashqadaryolik qishloq ahlining ham milliy g'ururini oshirishga xizmat qilmoqda edi¹⁰³.

Qashqadaryoning qishloqlarida tavallud topgan Muxammad Rahmon, Damin To'raev, Yusuf Berdiyev, Mahmud Sattorov, Ikrom Otamurod, Ne'mat Arslon, Amir Xudoyberdi, Zebo Mirzayeva, Zebo Rahimova, Xol Muxammad Hasan, Sharofat Ashurova, Muhammad Ochil, Geldi Berdiyev, Xosiyat Lutfullayeva, Chori Hamro, Sharifjon Orifiy, Nazar Shukur, Chori Avaz, Husan Eshmurod, Nazar Eshonqul, G'ulom Mirzo, Norqobil Jalil, Hakim Sattoriy, Jo'ra Alimardon, Qilich Abdinabiyev, Uraz Haydar va boshqalar o'zlarining nasriy, she'riy, publitsistik, adabiy, tanqidiy ishlari bilan Qashqadaryo adabiy muxitiga tanilibgina qolmasdan O'zbekiston miqyosiga ham chiqa boshlashgan¹⁰⁴. Ularning ijodida o'z navbatida "qayta qurish", "oshkoralik", "demokratiyalashtirish" deb atalgan jarayonlar ham o'z aksini topgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Qayta qurish" dasturi e'lon qilingach, butun sobiq Ittifoq hududida sanoat, ishlab chiqarish, siyosiy hayotda yangilanish jarayoni boshlandi. Shu sababli O'zSSR hududida, jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham "qayta qurish" yillarida yuqoridagi jarayonlar sodir bo'ldi. Bu yillarda Qashqadaryo hududida olib borilgan siyosat natijasida yangi sanoat

¹⁰¹ КВДАнинг Шахрисабз филиали. 316-жамғарма, 1-рўйхат, 291-иш, 13-варак.

¹⁰² Қашқадарё ҳақиқати. 1990-йил, 16-февраль.

¹⁰³ Тўраев Д Янги ўзбек адабиёти. -Тошкент: Фан, 2008. 6-16 бетлар.

¹⁰⁴ Тўраев Д Янги ўзбек адабиёти. -Тошкент: Фан, 2008. 6-16 бетлар.

korxonalari, zavod va fabrikalar, maktab va kaslxonalar qurib foydalanishga topshirildi. Bu esa o'z navbatida viloyat va uning aholisi ijtimoiy – iqtisodiy rivojiga sabab bo'ldi. Lekin shu bilan birga boqimandalik, o'z ishiga mas'uliyatsizlik kabi holatlar ham ro'y berdiki, bu holat viloyat aholisi uchun salbiy holat ko'rsata boshladi.

Qashqadaryo viloyati ahlining milliy ruhini tarbiyalashda yuqorida zikr etilgan shoir, adib va jurnalistlar tomonidan nashr etilgan adabiy-badiiy asarlarning roli katta bo'lgan.

Sovet hokimiyatining so'nggi yillarida ham Qashqadaryo hududida madaniy hayotda bir muncha siljishlar sodir bo'ldi. Qishloqlarda kutubxonalar, madaniyat saroylari o'z faoliyatlarini davom ettirgan. Qishloq ahliga o'z o'tmishiga bo'lgan qiziqish kuchaygan. Ularda milliy urf-odatlariga e'tibor ortgan.

Markaz hukumati tomonidan mafkuraviy yo'l bilan amalga oshirayotgan tadbirlariga xalq ishonmay qo'ydi. Rus tili va rus xalqiga berilgan ortiqcha e'tibor odamlarning g'ashiga tekkan. SSSR chirib o'zini-o'zi tarqatib yuborishga majbur bo'layotgan paytda O'zbekistonning poytaxti Toshkentda va boshqa yirik shaharlarda boshlangan mustaqillik g'oyasi Qashqadaryo viloyatida ham aks-sado bera boshladi.

II.2. O‘zbekistonda “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kampaniyalari boshlanishi va uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib mamlakat ichki hayotini qamrab olgan jiddiy iqtisodiy nuqsonlar qishloq xo‘jaligini o‘z domiga torta boshladi. O‘zbekiston SSR ham mamlakatning asosan xomashyo yetishtirib beradigan mintaqasi hisoblangani sababli respublika qishloq xo‘jaligi rivoji boshqa ittifoqdosh respublikalarga nisbatan ancha og‘ir, ziddiyatli jarayonlar ta’sirida qoldi. O‘ta markazlashtirilgan boshqaruv, “umumxalq manfaatlarini” ro‘kach qilib olib borilgan siyosat O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligini, shu sohada band bo‘lgan aholining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini ham nihoyatda og‘irlashtirib yubordi. O‘rta Osiyo, ayniqsa O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining “Paxta” xomashyo kompleksi atrofida rivojlantirishi bu yillarda o‘z salbi ta’sirini ko‘rsata boshlagan edi. Yillar davomida partiyaning paxta hosildorligini oshirish uchun ketma – ket berib kelgan besh yillik rejalari yerlarning chala o‘zlashtirib, belgilangan vaqtda “topshirishga”, yerning meliorativ holatini buzilishiga, ketma - ket bir xil ekinlar ekib, katta miqdordagi sarf - harajat qilinishiga sabab bo‘la boshladi. Biroq, bu sarf – harajatlarda o‘zini oqlamas, markaz esa besh yillik paxta planini bajarishni qat’iy turib talab qilar edi. Natijada olinadigan real daromad to‘liq bo‘lmas, buyruqbozlik, qattiq nazorat, tazyiq o‘tkazish kuchayib borar, kamomad, o‘g‘rilik, ichki nazorat va hisob - kitobning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi ortib borar edi. Bu holatlar butun mamlakatda qo‘shib yozish degan illatlarni kuchaytirib yubordi. X.Yunusovning ilmiy tadqiqot ishida ta’kidlanishicha, SSSR FA olimlari o‘tkazgan hisob - kitoblarga ko‘ra, qo‘shib yozishlar butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 3 foiziga teng bo‘lgan. Xomashyo yetkazish sohalarida esa, qo‘shib yozishlar 5 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan. Mamlakat iqtisodiyotidagi holatlar boshqa ittifoqdosh respublikalarda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, 1977- yilda Belorussiya SSRda qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilganligi uchun 1075 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Tojikiston SSRning Leninobod viloyatidagi qurilish tashkilotlarida 1983 - 1984 yillarda 700 ming rubllik qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilganligi

aniqlangan. Ozarbayjon SSRda esa 1983- yilning o'zida 667 sanoat korxonasi va qurilish tashkilotlarida qo'shib yozishga yo'l qo'yilgan. Moldaviyada esa qo'shib yozishlar nihoyatda avj olgan bo'lsa-da, kishilar tobora ko'proq mansab kursilarini egallab borganlar. Biroq, mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy hayotidagi barcha salbiy illatlarning tub mohiyati tahlil etilmagan va ochib berilmagan. Aksincha, ularga ayrim olib qaralgan mahalliy kadrlarning faoliyati bilan bog'liq tarzda milliy, mintaqaviy voqelik sifatidagina baho berildi. Mazkur holatlar mansabni suiste'mol qilish, poraxo'rlik, qo'shib yozishlar avj olishiga olib kelgan asosiy omillardan biri deb qaralgan¹⁰⁵. O'zbekiston mamlakatning asosiy paxta xom ashyosi bilan ta'minlovchi mintaqasi bo'lganligi sababli qo'shib yozishlar illati "rivojlangan" joy O'zbekiston deb qaraldi va qo'shib yozishlarga qarshi mamlakat miqyosida katta harakatlar boshlanib, O'zbekiston birinchi nishonga olingan respublikalardan bo'lib qoldi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, darhaqiqat xalq xo'jaligidagi qo'shib yozishlar O'zbekistonda mavjud bo'lib, aksariyat hollarda kolxoz va sovxozlarning mansabdor shaxslari tomonidan qo'shib yozishlar paxta tozalash korxonalarining tayyorlov tashkilotlariga tayyorlanmagan va topshirilmagan paxtani topshirildi deb tovarsiz fakturalarni tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan. Bunday qo'shib yozishlarga kolxoz va sovxozning brigadasida, bo'limida tuzilgan, ichki xo'jalik hisobga olish ma'lumotlari, so'ngra zavod paxta punktining tovarsiz yozilgan, bir tomondan – kolxoz va sovxoz tomonidan, ikkinchi tomondan – paxta tozalash sanoati korxonasi tomonidan rejaning bajarilganligi to'g'risidagi davlat hisoboti ko'rsatilgan ma'lumotlarni balanslashtirgan tovarsiz kvitansiyalar asos qilib olingandi. Zavod direktori va buxgalteri ushbu ma'lumotlardan rejani bajarishgani to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini oshirish uchun foydalanishgan va ularni respublika paxta tozalash sanoati vazirligiga hamda statistika boshqarmasiga topshirganlar¹⁰⁶.

104 Qarang: Yunusova X. XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma'naviy hayot. Tarix fan. Dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss... – Toshkent, 2009. – B. 197-198.

106 Xakimov I. Qo'shib yozish – jinoyat. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, -№11, 1989. – B. 51.

O‘zbekiston janubidagi Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy yo‘nalishlari ham paxtachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, paxtani qayta ishlash Qashqadaryoda 51 foizga teng bo‘lgan¹⁰⁷. Buning ustiga respublikada yetishtirilgan mahsulotlarning o‘z qiymatidan bir necha marta past bahoda sotilishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ko‘p qismi xom ashyo tariqasida sotilib, boshqa joylarda iste’mol qiymatlariga aylanishi respublika budjetiga ham sezilarli ta’sir etar edi.

XVI Plenum (1984-yil) va O‘zbekiston Kompartiyasining XXII syezdi qarorlari bilan respublikadagi yetuk, har tomonlama tajribaga ega bo‘lgan rahbar kadrlar ishdan olindi. Ming-minglab odamlar hibsga olindi. Qanchadan-qancha oilalar xonavayron qilindi. Natijada, odamlarda loqaydlik, ertangi kunga ishonchsizlik kayfiyati paydo bo‘ldi. Ishlab chiqarish maromi buzildi. Siyosiy parokandalik oddiy oila tashvishidan tortib, umumdavlat ahamiyatiga molik bo‘lgan masalalargacha barcha-barchasini boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘ydi.

“Paxta ishi”, “qo‘shib yozishlar” masalasi ham aslida 1983-yilda boshlangan. O‘z Kompartiya MQsining XVI Plenumi va unda Inomjon Usmonxo‘jayevning Markazdan O‘zbekistonga kadrlar bilan “yordam berish”ni so‘rab qilgan murojatidan so‘ng bu ish avj oldi. O‘zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bular – Anishchev, Ogarok, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, O.Gaydanov, E.Didarenko, Lyubimov, Kalinichenko, Korolyov, Maydanyuk, Mavrin, Litvinenko, Ivanov, Galkin, Kartashyan va boshqalardir. “Paxta ishi” bo‘yicha juda ko‘p guruhlar tashkil qilindi. Mahalliy xalqnig “arakter va psixologiyasi”ni yaxshi bilgan jallodlar bu guruhlarga tub yerlik prokuror va tergovchilarni bosh qilib, ularga “yaxshi konsultatsiya”lar berdilar va shu tariqa sopini o‘zidan chiqardilar. Yuqori saviyada “maslahat” olgan guruh a’zolari amaliy ishga tushib ketdilar. Ular 70-80-yillarda mamlakatda keng tus olgan qo‘shib yozishlar bo‘yicha jinoyatchilarni aniqlab berishlari kerak edi.

Haqiqatan ham shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo‘yicha qo‘shib yozishlar davlat rejalarini sun’iy ravishda bajarish usuli bo‘libgina qolmay,

¹⁰⁷ O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – B. 530.

millionlab so‘m davlat mablag‘larini suiste‘mol qilish va talon-taroj etishning sinalgan usuli edi. Poraxo‘rlik avjiga mingandi. Bunday qo‘shib yozishlar, poraxo‘rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskvaning o‘zi bo‘lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo‘jaligi direktorlari, jamoa xo‘jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalari va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog‘liq edilar. Ular asosli ravishda jinoiy javobgarlikka tortildilar va sudlandilar, bu to‘g‘rida yuqoridagi boblarda batafsil hikoya qilindi. Shu bilan bir qatorda, qo‘shib yozishlarga bevosita aloqador bo‘lmagan, bu ishga ongsiz sur‘atda yoki tasodifan o‘ralashib qolgan, rahbarlarning ta’siri va tazyiqi ko‘zbo‘yamachiliklarga noiloj qo‘shilib qolgan, undan shaxsan hech qanday moddiy manfaaddor bo‘lmagan yuzlab va minglab gunohsiz kishilar ham jabr ko‘rib, aziyat chekdilar. “O‘zbeklar ishi”, “Paxta ishi” bo‘yicha qancha odamning qamoqqa olinganligi to‘g‘risida turlicha ma’lumotlar bor. Ba’zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming, hatto 48 ming odam hibsga olinganligi ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston janubida shu jumladan, Qarshi cho‘li, Surxon - Sherobod cho‘llarini o‘zlashtirib, Respublikaning janubida joylashgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan XX asrning 80 - yillariga kelib, o‘rtacha 1 million tonna paxta yetishtirish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi. Gektaridan olinishi lozim bo‘lgan hosildorlik yildan - yilga ortib borib, uni bajarishning iloji bo‘lmagandan keyin, qo‘shib yozish degan bir illat paydo bo‘ldi. Shu yo‘sinda O‘zbekistonda “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” degan uydurma vujudga keldi. Bu ishning yaqqol ko‘zga tashlangani 1981- yilga to‘g‘ri keladi¹⁰⁸. O‘zbek xalqining fidokorona mehnatiga qaramasdan, Markaz o‘ylab topgan „paxta ishi“, „o‘zbeklar ishi“ siyosatining asorati XX asrning 80-yillaridan boshlab Qashqadaryoda yaqqol ko‘zga tashlandi. Birgina 1981-83 yillarda Qashqadaryoda halol mehnat qilib obro‘ topgan mashhur kolxoz raislari, sovxoz direktorlaridan, viloyat rahbarlari 36 kishi ishdan bo‘shatilib, ma’muriy yo‘l bilan jazolandi¹⁰⁹. Ular orasida shahrisabzlik mashhur raislar A. Turopov, Qurbonov, sovxoz direktori N. Sharopov, Kasbi rayon

¹⁰⁸ Yunusova X.E. O‘zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. - Toshkent: Zar qalam, 2005.

¹⁰⁹ ҚВДАнинг Қарши филиали, 1-жамғарма, 28-рўйхат, 5-иш, 47-варақ.

xalq kontroli qo‘mitasining raisi Ziyod Arabov, O‘zbekiston KP Bahoriston tuman qo‘mitasining ikkinchi kotibi R.Suyarov, Qarshi tuman paxta tozalash zavodi direktori Tohirovlar bor edi¹¹⁰. “Paxta ishi” bo‘yicha surishtirish ishlariga jalb etilgan „malakali” tergovchilar „talon-taroj” qilingan boyliklarni undirib olish bilan ovora bo‘lib ketib, qishloq –xo‘jalik va sanoatdagi qo‘shib yozishlarning tub mohiyatini tabiiyki, ochib bera olmaganlar. Mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy sohadagi inqiroziy holatlar, avvalo, sovet hukumatining ma’muriy-buyruqbozlik siyosati natijasi ekanligini tergov guruhi mutlaq anglab yetmas edi. Shahrisabz tuman partiya qo‘mitasining birinchi kotibi X.Xoliqov S.Jo‘rayev bilan birgalikda 4.651.000 ming so‘m pulni paxtaga qo‘shib yozish hisobiga pora sifatida olganliklarida ayblanganlar. Aslida, bu miqdordagi pulning 3.100.000 so‘mi Serpuxovo, Kutaisi, Boku, Orexovo-Zuevo va boshqa shaharlardagi to‘qimachilik korxonalariga qabul qilinmagan xomashyo uchun pora sifatida berilgan edi.

Mahalliy partiya tashkilotlari rahbarlari vaziyatni yaxshi bilsalarda,xo‘jalik rahbarlaridan berilgan rejani so‘zsiz bajarishni qat’iy talab qilganliklari oqibatida ko‘p hollarda topshirilmagan paxta uchun zavodlarga pul to‘lab, kvitansiya olib kelish tajribasi keng tarqalgan. Shubhasiz, bunday qonunsizliklarga qarshi norozilik bildirganlar ham ko‘p bo‘lgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi arxividagi ma’lumotlarda ko‘rsatilishicha, Qashqadaryo viloyati „Коммунизм” kolxozining raisi Eshmatov paxta zavodiga pul topshirib, kvitansiya olishga qarshi chiqqan. Bunga javoban viloyat partiya qo‘mitasining ikkinchi kotibi Golovachev uni viloyat partiya byurosiga chaqirtirib, unga qattiq xayfsan e’lon qildi. U agar kerakli miqdorda paxta sotib olmasa, ishdan haydalib, javobgarlikka tortilishini uqtiradi. Shundan keyin Eshmatov kolxoz g‘aznasidan pul olib, paxta zavodi xodimlariga topshirgan va „1.283 tonna paxta topshirildi”, deb tovarsiz kvitansiya yozdirib olgan¹¹¹.

¹¹⁰ ҚВДАнинг Қарши филиали. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 5-иш, 48-варақ.

¹¹¹ Yunusova X.E. O‘zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. - Toshkent: Zar qalam, 2005.

Shahrisabzdagi Engels nomli kolxoz raisi Suvonovning so‘roq vaqtida bergan ko‘rsatmalarida bunday deyiladi; “Bizning kolxozimiz 1983-yil noyabr oylari boshida paxta tayyorlash rejasini bajardi. O‘sha vaqtdagi obkomning ikkinchi kotibi Golovachev tumanimizda vakil edi. U menga paxtani qo‘shib yozishni taklif etdi. Men unga kolxoz yillik rejani bajarganini, dalada esa paxta qolmaganini aytdim. Shundan keyin 8-9 kun davomida Golovachevning ko‘ziga ko‘rinmay yurdim. u baribir meni topib uyatli so‘zlar bilan haqorat qildi. Ikki marta urdi. Men paxtaga qo‘shib yozishga majbur bo‘ldim, paxta zavodi klassifikatoriga 180.000 ming so‘m pul berdim”.

1981 – 1983 yillarda Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan 36 nafar partiya va sovet davlat idoralarining rahbarlari o‘z vazifalaridan bo‘shatilib, KPSS safidan chiqarilib, jinoiy javobgarlikka tortildilar. Jumladan, Qashqadaryo viloyat ijroya qo‘mitasining raisi Bekmurod Elboyev, O‘zbekiston KP Shahrisabz tuman qo‘mitasining birinchi kotibi Ne‘mat Hikmatov, O‘zbekiston KP Nishon tuman qo‘mitasining birinchi kotibi Jo‘ra Hushnazarov, O‘zKP Usmon Yusupov tuman qo‘mitasining kotiblari Nor Melayev, Karol Maxmudov, O‘zbekiston KP Kitob tuman qo‘mitasining kotibi Qahramon Mansurov, O‘zbekiston KP Chiroqchi tuman qo‘mitasining birinchi kotibi Tolmas Tillayev, O‘zbekiston KP Ulyanov tuman qo‘mitasining birinchi kotibi Abdi Umirov, O‘zbekiston KP Qarshi tuman qo‘mitasining birinchi kotibi Ibroxim Ochilov, Shahrisabz tumanidagi mashhur kolxoz raislari; A.Turobov, R.Qurbonov, Qarshi tumanidagi ikkinchi sovxoz direktori Mars Sharopov va boshqalar bor edi¹¹².

T. Gdlyan va N. Ivanov guruhi O‘zbekistonda tergov ishiga 1983-yil avgustida kirishdi. T. Gdlyan va N. Ivanov boshliq tergov guruhlarida O‘zbekistonda 200 – 300 nafar kishidan iborat tartibda ish ko‘rgan. Ularning soni doimo o‘zgarib ko‘payib turgan. Ular qo‘lga olgan 1-ish Buxoro viloyat ijroya qo‘mitasi ichki ishlar boshqarmasi hodimlarini hamda Buxoro shahar sanoat savdosi direktori Qudratovni ayblash bo‘yicha boshlangan edi¹¹³. T. Gdlyan guruhining

¹¹² O‘z RPDA QVF. 1-jamg‘arma, 28-ro‘yxat, 5-ish, 47-varaq.

¹¹³ Ilyuxin V. Qabohat yohud – Toshkent. O‘zbekiston, 1993. - B. 9.

O'zbekistondagi faoliyati davomida SSSR va O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirliklarining 20 nafar rahbar xodimi, O'zbekiston Kompartiyasi MQning to'rt nafar kotibi, viloyatlardagi partiya qo'mitalarining sakkiz kotibi, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi, O'zbekiston SSR Oliy Soveti prezidiumi Raisi, O'zbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri va boshqa bir qancha ma'sul xodimlari, umuman 62 nafar mas'ul shaxs pora olishda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortildilar. 1989 yilning may oyiga qadar javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi sudga oshirildi. 1984-1989 yillar davomida T. Gdlyan guruhi tomonidan 800 dan ko'proq "jinoiy" ish ko'rib chiqildi. Jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari rahbar xodimlar, 10 nafari Sotsialistik Mehnat Qahramonlari bo'lgan¹¹⁴. O'zbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri V.Usmonovga esa 1986-yilda o'lim jazosi belgilangan, hukm 1987-yilda amalga oshirilgan. "Paxta ishi" bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilganlarning ko'pchiligini kolxoz raislari, sovxoz direktorlari, brigadirlar, ferma boshliqlari tashkil etgan edi. Umuman olganda, 4018 kishi "paxta ishi" bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilgan edi¹¹⁵. Gdlyanchilar guruhi O'zbekistonda "Hamma pora oladi va hamma pora beradi", deb hisoblar edi. Ular har bir kishiga axborot manbai deb qarashar va har qanday yo'llar bilan bo'lsa ham undan o'sha axborotni sug'urib olishga harakat qilishar edi. Aybsiz fuqarolarni ko'plab ushlab keltirish va hibsga olish usuli ham xuddi mana shunday nazariya asosida qurilgan edi. Ular taxminan quyidagi qoida asosida ishlar edi: "Qo'lingdagi tergovchilik shamshirini o'ngga ham, chapga ham sermab boraver, oxiri kimgadir tegadi. Bu yerda hamma jinoyatchi, shuning uchun sening hatti harakatlarining bari –bir to'g'ri bo'lib chiqadi va oqlanadi". Ular shu darajadagi tubanlikka yetib borishgan ediki, natijada butun bir xalqni jinoyatchi deb e'lon qildilar¹¹⁶. 1984-yilning iyun - oktabr oyining o'zida 866 mas'ul rahbar xodim "o'g'rilik va mansabini suiste'mol qilganligi" aybi bilan jinoiy javobgarlikka tortildi. 1984-1985 yillar ichida viloyat, shahar, tuman partiya qo'mitalari kotiblari,

¹¹⁴ Qarang: // Sovet O'zbekistoni. 1989, 27 dekabr.

¹¹⁵ Qarang: Yunusova X. XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma'naviy hayot. Tarix fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozilgan diss... –Toshkent, 2009. - 209 b.

¹¹⁶ Ilyuxin V. Qabohat yoxud... – B. 32.

ijroiya qo'mita raislari, ularning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari rahbarlaridan ko'pi o'z lavozimlaridan olib tashlandi. Ularning orasida viloyat partiya qo'mitalarining 22 kotibi ham bo'lgan. 1984 yilning avgust-oktabr oylarida prokuratura, militsiya organlarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan 671 kishi partiya saflaridan o'chirildi. Qashqadaryo viloyatida ham 1983 – 1985 yillarda rahbar kadrlarni qariyb 900 nafari almashtirildi. Tuman va shahar partiya qo'mitalarining qator kotiblari, ijroiya qo'mitasining raislari, xo'jalik rahbarlari, shuningdek yaqinda ishga tavsiya etilgan, endigina ish boshlagan ko'pdan - ko'p ma'sul shaxslar ishdan olib tashlandi.

1982 - yil 29- iyulda Talimarjon tuman 2-sovхоз direktori Mars Sharopov ustidan tergov ishi boshlandi. Ushbu ishda 41 kishi ustidan ish ko'rildi. Ish sudda ko'rilgunga qadar ehtiyot chorasi sifatida M.Sharopov, A.To'liyev, M.Do'stov va Normatovlar qamoqda saqlangan, qolganlari esa ochiqda qoldirilgan. Sud ishi 1984- yil 23-iyulda Qashqadaryo viloyat sudida ko'rib chiqildi. Sudga ularga quyidagicha jazo choralari qo'llanildi. M.Sharopov 15 yil, B.Xidirov 13 yil, M.Rustov 15 yil, A.To'rayev 12 yil, M.Ortiqov 5 yil, R.To'raqo'lov 4 yil, Sh.Alimov 3 yil, R.SHerobodov 4 yil, J.Mirzayev 3 yil, B.Ro'ziyev 6 yil, A.Nurboyev 5 yil, T.Soqidov 3 yil, M.Iskandarov 6 yil, B.Bahriddinov 4 yil, R.Islomov 3 yil, A.Abdunazarov 3 yil, X.Shukurov 3 yil, K.Normatov 3 yil, M.Xaydarov 3 yil, A.Ibrogimov 3 yil, S.Aliyarov 3 yil, A.Aliyarov 3 yil, N.Sharopov 3 yil, B.Asalov 3 yil, Y.Jalilov 3 yil, S.Jovliyev 3 yil, D.Aminov 3 yil, I.Xo'jayev 3 yil, T. Hamdamov 3 yil, A.Aliyev 3 yil, A.Poyonov 3 yil, Sh.Shodiyev 3 yil, T.Holikov 3 yil, R.Mingliyev 3 yil, E.Umirov 3 yil, Sh.Mamatov 3 yil, I.Qurbonov 3 yil, X.Fayziyev 2 yil, N.Holikov 2 yil, K. Nurmanov 3 yil ozodlikdan mahrum qilindi¹¹⁷.

Shahrisabzlik O'roq Qurbonov ishi bo'yicha 1983-yil 24-noyabrda 13 kishi ustidan tergov ishi olib borildi. Ularning ishi 1985-yil 18-dekabrda Qashqadaryo viloyat sudida ko'rib chiqilib, O'.Qurbonovga 11 yil, B.G'aniyevga 5 yil, E.Primovga 4 yil, K.Rasulovga 10 yil, A.Hurramovga 10 yil, B. Po'latovga 4 yil,

¹¹⁷ Qashqadaryo viloyat sudi arxivi. - 5-6- varaq.

A.Qayumovga 6 oy, I.Ismoilovga 6 oy, X.Rahimovga 6 oy, Sh.Ahmedovga 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazo choralari qo'llanilgan. U.Sultonov 1 yil, M.To'rayev 1 yil, ATI ga jalb qilingan. I,Shoymurodov esa 12 yil ozodlikdan mahrum qilingan.

1983-yilda Soliyev Hoshim ishi bo'yicha ham bir nechi kishi ustidan tergov ishi boshlab yuborildi va bu ish quyidagicha yakun topdi:

Soliyev Hoshim 13 yil, Mirzayev Islom 8 yil, Saidov 12 yil, To'xtayev B 13 yil, Sherov A 3 yil, Jomurodov T 3 yil, T.Jumayev 4 yil, T.Rahmonov 3 yil, T.Jabborov 3 yil, Qurbonova Tamara 2 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilindilar.

1984-yilda Mirzo Gadjiyev ishi bo'yicha quyidagi kishilar jazolandilar: M.Gadjiyev 11 yil, R.Ismoilov 8 yil, A.Qurbonov 3 yil, N.Qorjovov 8 yil, T.Rahimov 3 yil, B.Bozorov 7 yil, X.Davronov 3 yil, U.Donyorov 7 yil, N.Qurbonov 3 yil, A.Ortiqov 6 yil, E.Dilmurodov 3 yil, Q.Odilov 10 yil, Y.Jo'rayev 3 yil, E.Otaniyozov 6 yil ozodlikdan mahrum qilindilar¹¹⁸.

1984-yilda Qodirov Amir ishi bo'yicha ham bir necha kishi ayblanib, jazolandi; Qodirov A. 8 yil, Norqulov E. 7 yil, A.Altiboyev 7 yil, K.Xidirov 5 yil, M.Egamshukurov 5 yil, S.Abdullayev 5 yil, B.Xaydarov 5 yil, Abdumo'min Norqulov 5 yil ozodlikdan mahrum qilindi¹¹⁹.

1984-yilda Akbarov Samad ishi bo'yicha quyidagi kishilar ustidan ish qo'zg'aldi, 1985-yil 28 -sentabrda ushbu ish Qashqadaryo viloyat sudida ko'rib chiqildi, hamda quyida nomlari keltirilgan kishilar jazoga tortildilar:

S.Akbarov 12 yil, D.Mamatov 12 yil, E.Qorayev 10 yil, Ne'mat Shukurov 12 yil, E.Qo'chqorov 14 yil, Jumanazar Ochilov 12 yil, Juma Bekturodov 3 yil, Abduvosit Gulyamov 12 yil, A.Beytullayev 2 yil, X.Qo'ziyev 2 yil ozodlikdan mahrum qilindi¹²⁰.

Bundan tashqari 1984-yilning o'zida Sh.Boboyorov, G.Bo'tanov, X. Norqobilov, M.Avlayev, Ne'mat Holiqov, K.Boyqo'ziyev, E.Xasanov, S.Xushvaqto'v, A.To'rayev, P.Xudoyberdiyev, X.Rahmonov, B.Yangiboyev,

¹¹⁸ Qashqadaryo viloyat sudi arxivi.. – . 2- varaq.

¹¹⁹ Qashqadaryo viloyat sudi arxivi.– . 3- varaq.

¹²⁰ Qashqadaryo viloyat sudi arxivi. 2-varaq.

S.Mirzayev, Z.Melimurodovlar ustidan tergov ishi qo'zg'atilib, har bir ishda 5 talab, 10 talab va undan ham ko'proq kishilar nohaq ayblanib, jazolandilar, bir necha yillar qamoqxonalarda o'tirishga majbur bo'ldilar.

Bunday holatlar 1985 – 1986, hatto, 1987-yillarda ham avjiga chiqsa - chiqdiki, pasaymadi. Bu yillarda ham nohaq jabr chekkanlar soni bir necha o'nlab, bir necha yuzlab kishilarni tashkil etdi.

1985-yilda quyidagi kishilar ustidan tergov ishlar qo'zg'atilib, ular bir necha yillab qamoq jazosini tortdilar: Abrayev 6 yil, M.Allayorov 15 yil, K.Jo'rayev 13 yil, D.Eshmamatov 13 yil, X.Xurramov 8 yil, B.Qurbonov 8 yil, K.Boymurodov 3 yil, K.Kamolov 3 yil, T.To'rayev 4 yil ozodlikdan mahrum qilindilar, mol – mulklari musodara qilindi.

1986-yilda ham xuddi shunday ahvol davom etdi. 1986-yildan Chiroqchi tuman Lenin kolxoz agrotexnigi Qo'chqor O'sanov ustidan tergov ishi boshlanib, 1986-yil 25-iyulda ushbu ish Qashqadaryo viloyat sudida ko'rib chiqildi. Quyidagi kishilar aybdor deb topilib, jabrlandilar:

Q.O'sanov 6 yil, B.Xolbozorov, Xolmamat Markayev, S.Arkayev 4 yildan, D.Markayev 3 yil ozodlikdan mahrum qilindi¹²¹.

1986-yil 20-fevraldan J.Shodiyev ustidan tergov ishi boshlandi. 1986 yil 4 sentabrda ish Qashqadaryo viloyat sudida ko'rib chiqildi.

1987-yilda ham "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" degan uydurma asosida xalqni jazolash ishi davom etdi. 1987-yil 28 -aprelda Bo'ri Jumayev ustidan jinoiy ish qo'zg'atilib, 1988-yil 24- fevraldan ish Qashqadaryo viloyat sudida ko'rib chiqildi. Bo'ri Jumayev 3 yil, A.Sharopov 3 yil ozodlikdan mahrum qilindi¹²². 1987-yilda Muhammadi Normurodov ustidan ham tergov ishi qo'zg'atilib, 1988-yil 12 - dekabrda Qashqadaryo viloyat sudida ko'rib chiqildi, hamda 3 yil ozodlikdan mahrum etish chorasi qo'llanildi.

1968-1984 yillarda O'zbekiston KP Qashqadaryo viloyat qo'mitasining 1-kotibi bo'lib ishlagan, 1922 - yilda tavallud topgan II-jahon urushi qatnashchisi

¹²¹ Qashqadaryo viloyat sudi arxivi. 4-varaq.

¹²² Qashqadaryo viloyat sudi arxivi. 11-varaq.

Ro‘zimat G‘oyipov nohaq vazifasidan bo‘shatilib, Gdlyan va Ivanovchilarning azob - uqubatlariga chiday olmay, ularning ko‘zini shamg‘alat qilib, o‘z joniga qasd qildi¹²³.

1984-yilning fevralida Qashqadaryo partiya qo‘mitasiga 1968-yildan beri rahbarlik qilib kelgan Ro‘zimat G‘oyibov ham vazifasidan ozod etildi. Xalqimizning “tanlay, tanlay tozisiga uchraysan” degan dono hikmati bor. Qashqadaryoliklar baxtiga Normo‘min Turopov to‘g‘ri kelib qoldi. U kishi ishlagan vaqtida odamlarni partiyadan o‘chirish, qamoqqa olish harakati ayniqsa kuchaydi. Ammo mustabid tuzum Normo‘min Turopovni ham tinch qo‘ymadi. 1984-1986 yil dekabrigacha O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Qashqadaryo viloyat qo‘mitasining birinchi kotibi lavozimida ishlagan N.Turopov ham hibsga olinib, azob-uqubatlarini o‘z boshidan o‘tkazdi¹²⁴. Qashqadaryoga tuman partiya qo‘mitasi kotiblari, bir qator xo‘jalik rahbarlari, yetakchi mutaxassislar, bosh hisobchi, xazinachi va paxta topshiruvchilar ustidan jinoiy ish qo‘zg‘aldi.

1985-yilning kuzida “III internatsional” davlat xo‘jaligining bosh hisobchisi Inoq Soriyev, paxta topshiruvchi Bozor Mamatqulov, xazinachi Raimqul Xudoyqulov o‘z vazifasidan ozod etilib, hibsga olindilar. Xo‘jalik direktori Qahhor Tursunov yil oxirida o‘z vazifasidan ozod etilib, jinoiy ish qo‘zg‘aldi. 1986-yil 1-martdan 30-martgacha sud jarayoni davom etib, Qamashi elining to‘rt farzandi ozodlikdan mahrum etildi. Qamoq jazosini Qahhor Tursunovga Qashqadaryo hududidagi Koson lagerida o‘tash to‘g‘ri keldi. Bozor Mamatqulov esa Qarshi yaqinidagi Shayxali lagerida saqlandi. Keyin Quvasoy g‘isht zavodiga yuborildi. Inoq Soriyevni esa Namangan viloyati Pop tumanidagi lagerga jo‘natildi. Ular yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum etilgan edilar.

1986-yilning dekabrda Qashqadaryo viloyat partiya qo‘mitasi birinchi kotibligiga Islom Karimov saylandi. Adolatsiz ayblanib hibsga olinganlarning qavm-qarindoshlari u kishining qabuliga kirib “paxta ishi” markaz o‘ylab topgan, o‘zbek xalqiga qarshi qaratilgan siyosat ekanligini aytdi. Qamoqqa olinganlarning

¹²³ Мўминов О.Афсонага айланган одам.- Қарши: Насаф, 1992.

¹²⁴ Ёриев Б. Умидли дунё.- Тошкент: Ёзувчи, 2001. 48-49 бет.

mushtipar onalari, farzandlari va oilalari O‘zbekiston Oliy Kengashi Rayosatiga ham murojaat qilishga majbur bo‘ldilar. 1987-yildan e‘tiboran “paxta ishi” bo‘yicha qamoqqa olingan kishilarning jinoiy ishlarini qayta ko‘rish boshlandi. Nihoyat o‘sha yili qamashiliklardan ikki jabrdiyda – Inoq Soriyev va Qahhor Tursunov ozodlikka chiqishga muvaffaq bo‘ldilar.

Qashqadaryo viloyat prokurori lavozimida mehnat qilib, o‘zini ijobiy tomondan xalq orasida namoyon qilgan, keyin markazning topshirig‘i bo‘yicha Shahrisabz tuman partiya qo‘mitasining 1–kotibi vazifasiga tavsiya qilingan “huquqshunos” Halil Holikov qo‘shib yozishlariga majbur qilinib, keyin ushbu ayb bilan nohaq ayblanib, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilib, mustabid tuzum qiynoq – azoblariga chiday olmay qamoqda olamdan o‘tdi.

O‘zbekiston ichki ishlar vazirligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasida ko‘p yillar mehnat qilib, oddiy ishchidan viloyat boshqarmasi boshlig‘i darajasigacha, oddiy serjantlikdan general darajasigacha ko‘tarilgan Hushvaqt Norbo‘tayev nohaq ayblanib, ozodlikdan mahrum etilib, turma azoblarini boshidan o‘tkazdi va mustaqillik tufayli oqlanib chiqishga muvaffaq bo‘ldi.

Ko‘p yillar Qarshi shahar savdosini boshqargan, Qashqadaryo savdo madaniyatini rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan Zarifullo Muyanov nohaq ayblanib, partiya safidan chiqarilib, jinoiy javobgarlikka tortildi. Qamoq azoblarini boshidan o‘tkazib, mustaqillik tufayligina sog‘- salomat xalq orasiga qaytib kelishga muvaffaq bo‘ldi.

Qarshi shahar ijroya qo‘mitasining raisi bo‘lib ishlagan Ro‘zimurod Shodiyev uyushtirilgan holda pora olishda ayblanib, o‘z vazifasidan bo‘shatildi, partiya safidan chiqarilib, jinoiy javobgarlikka tortildi¹²⁵.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatida ham o‘tkazilgan “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” nomli qatag‘onlardan qattiq azob tortdi. Qariyb 10 ming nafar qashqadaryolik “paxta ishi”, “o‘zbek ishi”da ayblandi. Jinoyat ishi ochilganlar soni ko‘pchilik bo‘lganidan Qashqadaryodagi mavjud hibsxona va lagerlarga sig‘may qolganligi sababli viloyatning Koson shahrida yangi lager – zona ochildi.

¹²⁵ QVDA. 27-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1262-ish, 1-76 varaq.

Qamoqqa olingan qashqadaryoliklarning ma'lum qismi Toshkent turmasida, Respublikadagi boshqa turmalarda azob tortdilar. Moskva va markazning boshqa shaharlarida hibsda saqlandilar¹²⁶.

Xullas, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” siyosati markazning SSSR inqirozi kuchayib ketib, tanazzul topishi muqarrar bo‘lgan davrdagi uydurmasi edi. Ushbu o‘zbek xalqiga qaratilgan nohaq siyosat va ayblovdan O‘zbekiston xalqi, jumladan, uning janubiy viloyatlari ahli juda og‘ir, tuzatib bo‘lmaydigan moddiy va ma’naviy zararga duchor bo‘ldilar.

Nohaq ayblangan kishilarni oqlash, adolatni qaror toptirish uchun o‘zbek xalqiga mustaqillik zarur edi va mustaqillik tufayli nohaq ayblangan kishilarning yuzlari yorug‘bo‘lib, mustabid tuzum qamoqxonalariga bardosh berib, sog‘– omon qolganlari o‘z oilalariga qaytib kelishga muvaffaq bo‘ldilar. Azob-uqubatlarga chiday olmay olamdan o‘tganlari esa, qatag‘on qurbonlari singari oqlanib, ularning farzandlari oldidagi munosib nomlari tiklandi, insoniy qadriyatlari o‘rniga qo‘yildi.

Davlat o‘z mafkuraviy g‘oyalarini keng xalq ommasiga singdirishda madaniy oqartiruv muassasalarining roli shubhasiz ahamiyatli darajada hisoblanadi. Sovet hukumati ham bunday turdagi muassasalar faoliyatini, asosan “kommunizm” quruvchisini tarbiyalashdek g‘oyaviy mafkuraviy vazifalarni bajarishga yo‘naltiradi. Kommunistik mafkura “ shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” degan tushuncha asosida madaniyatni siyosiylashgan yo‘lga moslashtirgan edi. Ma’muriy buyruqbozlik tizimi esa madaniyatni, ayniqsa milliy o‘lkalar madaniyatini mafkuraviy iskanjada uslab turishga intilar edi. Milliy qadriyatlarga shubha bilan qaragan hukmron mafkura ma’naviy-madaniy merosning tarbiyaviy ahamiyatini e’tiborga olmas edi.

¹²⁶ Jo‘raqulov O. Yaqin o‘tmish dahshatlari // Muloqot. 2004. - №3. 23-varaq.

III.BOB. Qashqadaryo viloyatida madaniyat sohasidagi o'zgarishlar (XX asr 80-yillarida).

III.1. Viloyat ta'lim tizimidagi ahvol: muammo va ziddiyatlar.

1980-1981 o'quv yilida Qashqadaryoda o'quvchilar soni 334,7 mingga yetgan bo'lsa, 1985-1986 o'quv yilida Qashqadaryoda 373,1 ming o'quvchiga, ta'lim berildi¹²⁷.

Mazkur o'quv yilida Qashqadaryo viloyatida 884 ta o'rta umumiy ta'lim maktablari mavjud edi¹²⁸. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ta'lim sohasida xizmat qilgan B. Haqnazarov, I. SHukurov, M. P. Yaminchinov, S. V. Nesterova, M. Bo'riev, R. Boboshev, X. Samadov, Z. Tursunov, K. A .Xayra, M. Mo'minova, X.Ibrahimov, Sh. Mirzaev, S.Kenjaev, N. Ro'ziboev, E. Siddiqov, M. Boboniyozova, Yu. Sharopov, I. Boboxo'jaev, M. Husanov, T. Mamadaliev, N. Norov, V. A. Shevardnadze, B. Chingizboeva, S. Eshboev kabi o'nlab maorif xodimlari, taniqli ta'lim arboblari bo'lganlar.

Sovet hukumatining maorif sohasida amalga oshirgan siyosati respublikada, shu jumladan Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarida yoshlarning g'oyaviy, axloqiy tarbiyasi, sinfiylik, partiyaviylik tamoyillari ustuvorligi asosida olib borildi. O'quvchilarga o'qitilayotgan fanlar, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, o'ta siyosatlashtirilgan, mafkuralashtirilgan bo'lib, tabiiyki, milliy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berilmadi. Maorif sohasidagi ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda SSSR tarixi ko'zda tutilib, asosan rus madaniyati va Rossiya tarixi namuna sifatida talqin etildi. Umumta'lim maktablarida o'zbek xalqi tarixini o'rganishga bor-yo'g'i 52 soat ajratildi. Qolgan tarix darslarida esa, asosan, SSSR tarixi o'qitildi. Boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti fani uchun 1600 soat ajratildi¹²⁹. Oqibatda o'zbek o'quvchilarida o'z ona tilini o'rganishga qiziqish pasaydi, milliy o'zlikni anglash, urf-odat va an'analarga sodiqlik kayfiyatidan ajralish hollari kuchaya boshladi.

¹²⁷ Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987. -Т.: Узбекистан, 1988. -С.272.

¹²⁸ Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет советской власти. -Т.:Узбекистан, 1987.-С.259.

¹²⁹ Носиров Р. Социальное развитие села Узбекистана (1965-1985 гг). - Т., 1994. -Б.27-28.

Urushdan keyingi yillarda xalq maorifi sohasiga ham ijtimoiy tizimning asosiy bo'g'ini sifatida qaralib, unga ma'lum darajada e'tibor berildi. Maktablar va o'quvchilar soni yillar davomida o'sib bordi. Ammo, xalq ta'limi markaz manfaatlariga bo'ysundirilgan holda, kommunistik partiya g'oyalari asosida faoliyat olib bordi.

Iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar va madaniy sohaga nisbatan olib borilgan "qoldiq prinsipi", maorif tizimidagi nuqsonlar va kamchiliklarni bartaraf etishga imkon bermay keldi. Xalq maorifi uchun ajratilgan mablag'lar uning ehtiyojini qondirishga qodir bo'lmadi.

Davlat tomonidan tegishli sarf-harajatning ajratilmaganligi tufayli janubiy viloyatlardagi ko'pchilik maktablar namunaviy ta'lim binolarida emas, balki bu sohaga moslashtirilmagan binolarga joylashtirildi. Maktablarda o'quvchilar sonining ortib borishi o'qituvchilar sonini ham o'stirishga olib kelsada, biroq, ularning kasb mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarligi talab darajasida bo'lmadi. Sovet jamiyatida mavjud bo'lgan sifat ketidan emas, balki son ketidan quvish, mavjud holatning faqat raqamlarda aks etishi, ko'zbo'yamachilikni, bir qator salbiy illatlarning avj olishi maktab-maorif tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Maktablarning texnik jihozlanishi, binolarning talab darajasi, suv ta'minoti va boshqalar zamonaviy talab, jahon andozalariga mutlaqo javob bermas, bu esa o'z navbatida o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. O'quvchi yoshlarda loqaydlik va manqurtlik kayfiyatlarining paydo bo'lishi ham aynan shu davrdan boshlangan desak ayni haqiqat bo'lur edi.

1970-1980 yillarda O'zbekistonda xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar 11% dan 8% ga kamayib ketdi. Buni quyidagi misoldan yaqqol ko'rish mumkin. Jumladan, 1971-1975 yillar davomida respublikada jami 1824 o'rta maktab foydalanishgato'pshirilgan bo'lsa, 1981-1985 yillarda 1230 tani tashkil etdi. Janubiy viloyatlarda bu ko'rsatkich 1971-1975 yillarda 310 ta maktab

qurilgan bo'lsa, 1981-1985 yillarda 222 tani tashkil etdi¹³⁰. Ammo, ularning sifat darajasi ancha past bo'lib, qishloqlardagi ahvol ancha achinarli darajada edi.

SSSR Maorif Ministrligi 1977-yil 10-mayda "Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida yoshlar o'rtasida tarbiyani yanada kuchaytirish to'g'risida"gi buyrug'ini e'lon qildi. Ushbu buyruq asosida talabalarga bilim berish maqsadida darslarni kabinet tizimida olib borish tashkillashtirildi. 1973-1974 o'quv yilida Qashqadaryodagi pedagogika bilim yurtlarida 23 ta kabinet faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1979-1980 o'quv yilida ularning soni 37 taga etdi. Lekin, pedagogika bilim yurtlaridagi o'quv xonalari, fan kabinetlari zamon talabiga etarlicha javob bermas, jihozlar etishmas edi. Davlat ajratgan mablag'lar o'quv binolarini ta'mirlashga to'liq etmas edi. Shuning uchun ularni joriy ta'mirlashda talabalarining kuchidan foydalanildi. O'qituvchilar boshchiligida barcha o'quv xonalari, fan kabinetlari talabalar kuchi bilan joriy ta'mirdan chiqarildi¹³¹.

Shahrisabz pedagogika bilim yurtida 1978-yildan e'tiboran sirtqi bo'limning salmog'i oshdi. Quyidagi jadvalda Shahrisabz pedagogika bilim yurti sirtqi bo'limga "2010-bolalar bog'chasi tarbiyachisi" mutaxassisligi bo'yicha qabul va bitiruvchilar soni ko'rsatib o'tilgan¹³².

Jadval №1.

O'quv yillari	Qabul rejasi	Qabul qilindi	Bitirdi
1978-1979	100	100	51
1979-1980	115	115	74
1980-1981	160	160	82

Shahrisabz pedagogika bilim yurtida 1978-1981 yillarda sirtqi ta'lim talabalar qabul soni o'sgan bo'lsada, bitiruvchilar soni 55% ni tashkil etdi. Bu holat bilim yurtida ta'lim-tarbiya jarayonini e'tiborsizligi hamda talabalarining imkoniyatidan kelib chiqib, o'qishni tashlab ketish holatlari ham sabab bo'ldi.

¹³⁰ Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет советской власти. -Т.:Узбекистан, 1987.-С.253.

¹³¹ Қашқадарё ВДА. Шахрисабз филиали.72-жамғарма, 1-рўйхат, 39-иш, 43-варақ.

¹³² Қашқадарё ВДА. Шахрисабз филиали.72-жамғарма, 1-рўйхат, 39-иш, 43-варақ.

Shahrisabz pedagogika bilim yurtida 1979-1980 o'quv yilida talabalar soni 295 nafarni, 1981-1982 o'quv yilida esa 529 nafarni tashkil etdi. 1979-1980 o'quv yilida bilim yurtida 18 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1980-1981 o'quv yilida ularning soni 26 nafarga etdi¹³³. Taalluqli ravishda oliy ma'lumotlilar soni 14 nafardan 22 nafarga ko'paydi. 1980-1981 o'quv yilida Qarshi pedagogika bilim yurtida 2 ta o'quv binosi, 40 kabinet, kutubxona (6000 nusxa kitob), 60 o'rinli qiroatxona, 120 o'rinli oshxona, choyxona, bufet, matbuot uyi, tibbiy yordam markazi faoliyat ko'rsatdi. Mazkur o'quv yilida bilim yurti epidoskop, filmskop, magnitofon "Layna", kinoapparat "Ukraina- 3", "KPSH-3", televizor "TEMT", radio "Tamma", diaproskop, kodoskop hamda 8 ming rubllik kitoblar bilan ta'minlandi.

1981-yilda bilim yurtidagi rasm-chizmachilik bo'limi yopildi. Oqibatda talabalar qabulida o'zgarishlar bo'ldi. 1980-1981 o'quv yilida bilim yurtiga 450 nafar talaba qabul qilingan bo'lsa 1984- 1985 o'quv yilida ularning soni 360 taga tushib qoldi. Shuningdek, bilim yurtidagi o'qituvchilar soni 112 nafardan, 89 taga tushdi¹³⁴. 1981-1982 o'quv yilida Qarshi maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurti maxsus qurilgan ikki qavatli binoga ko'chirildi. Binoda 20 ta o'quv xona va 16 kabinet, kutubxona (fondi 500 kitobdan iborat) va o'quv zali mavjud edi.

1981-1982 o'quv yilida Qarshi maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtining kunduzgi bo'limiga 180 ta, sirtqi bo'limiga 160 ta talaba qabul qilinishi belgilandi. Mazkur o'quv yilida talabalar soni kunduzgi bo'limda 590 nafar va sirtqi bo'limda 519 nafar bo'lib, jami 1109 tani tashkil etdi. Bilim yurtida o'qituvchilar soni 43 nafar bo'lib, ularning 37 tasi oliy ma'lumotli edi¹³⁵.

Shahrisabz pedagogika bilim yurtining 1984 yilgi natijalarini tahlil qilganda o'quv-tarbiya ishlarining takomillashganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, 1984 yilga qadar bilim yurtini 3618 ta o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis tugatdi. Shundan 3009 nafari kunduzgi bo'limni, 609 nafari sirtqi bo'limni bitirdi. Jami bitirganlardan 2934 nafari xotin-qizlar edi. 1175 yosh mutaxassisga boshlang'ich

¹³³ Қашқадарё ВДА 534-жамғарма, 1-рўйхат, 49-иш, 6-7 varaqlar.

¹³⁴ Қашқадарё ВДА. 534-жамғарма, 1-рўйхат, 199-иш, 4-5 varaqlar.

¹³⁵ Қашқадарё ВДА. 534-жамғарма, 1-рўйхат, 70-иш, 3-19 varaqlar.

sinflarda rus tilini o'qitish huquqi berildi. Shahrisabz pedagogika bilim yurtida o'qituvchilar soni 76 nafarga, fan kabinetlari 48 taga, kutubxona fondi 20 mingdan ortiq nusxaga, fan to'garaklari 32 taga etdi. Talabalarga 40 o'rinli o'quv zali, 300 o'rinli klub, siyosiy maorif uyi, radiouzel, telestudiya, 300 o'rinli oshxona, 40 o'rinli bufet, do'kon, matbuot uyi, tibbiy yordam markazi xizmat qildi¹³⁶.

Qarshi maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtida 1983-yildan keyin talabalar qabul qilish birmuncha yaxshilandi. 1983-1984 o'quv yilida kunduzgi bo'limga 180 ta, sirtqi bo'limga 220 nafar talaba qabul qilindi. Kunduzgi bo'limdagi jami talabalar soni 521 tani, sirtqi bo'limda 723 tani tashkil etdi, jami talabalar soni 1344 nafarga etdi. Mazkur o'quv yilida bilim yurtida 55 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi. Shuningdek, 1984 yil 25 mayda bilim yurti talabalari uchun yotoqxona qurib bitkazildi¹³⁷. Qarshi maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtiga O.Sayfieva, G.Aralova, A.Jumaevlar rahbarlik qildilar.

1987-yilda O'zSSR Ministrlar Sovetining buyrug'iga asosan Qarshi maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurti Qarshi pedagogika bilim yurtiga qo'shib yuborildi. Qarshi pedagogika bilim yurtida maktabgacha tarbiya bo'limi sifatida faoliyat olib bordi¹³⁸.

Xulosa tarzida ta'kidlash mumkinki, ikkinchi jahon urushidankeyingi yillarda xalq xo'jaligini tiklash bilan bog'liq qiyinchiliklarga qaramasdan respublika hukumati o'zining bor imkoniyatlarini ishga solgan holda, O'zbekistonning janubiy hududlarida o'rta maxsus ma'lumotli pedagoglar tayyorlaydigan o'quv yurtlari tashkil etilib, ko'plab mutaxassis kadrlar xalq xo'jaligiga etkazib berildi. Biroq, bular miqdor ko'rsatkichlaridagi ayrim siljishlar edi. Lekin, masalaning asosiy jihati o'rta maxsus ta'lim muassasalarining bitirib chiqayotgan mutaxassislarning sifati, bilim yurtlarining moddiy bazasi masalasida muammolar mavjud edi. Shuningdek, o'quv yurtlarida mutaxassislik bo'yicha asosiy fanlarni takomillashtirish o'rniga KPSS tarixi, ilmiy kommunizm kabi fanlarning chuqur o'qitilishi, talabalarning hur fikrlash, ilmiy dunyoqarashini

¹³⁶ Қашкадарё ВДА. Шаҳрисабз филиали, 72-жамғарма, 1-рўйхат, 109-иш, 5-9 varaqlar.

¹³⁷ Қашкадарё ВДА. 534-жамғарма, 1-рўйхат, 94-иш, 4-10 varaqlar.

¹³⁸ Жўраев А. Тўнғич илм маскани //Бошланғич таълим. -Тошкент, 1993. -№ 5-6.-Б.14.

shakllantirishga jiddiy to'siq bo'ldi. Lekin, shuni ham ta'kidlash joizki, O'zbekistonning janubiy huddularida ochilgan ilm maskanlari mashaqqatlar bilan bo'lsada ilgarilab bordi, ta'lim tizimini rivojlanishida, aholini madaniy saviyasini ko'tarilishida, xalq xo'jaligini o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlashda o'zining ijobiy rolini o'ynadi.

Sovet hokimiyatining maktab-maorif, madaniy-ma'naviy tashkilotlar, davlat idoralarini oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash siyosati o'zining istiqbolsiz ekanini namoyon etdi. Uning asosiy sababi muhim bo'g'inlar, boshqaruvga mutaxassis kadrlar, asosan markazdan yuborilar, ular esa mahalliy turmush tarzi, respublika hayot tarzi bilan chuqur tanish emasdilar. Bu o'z navbatida qator muammolarni keltirib chiqardi. Shundan so'ng viloyat markazlarida ham oliy va to'liqsiz oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yila boshlangan edi.

1978-yilning iyulida Qarshi davlat pedagogika institutining kunduzgi bo'limida 2040 talabaga, sirtqi bo'limida 2626 talabaga, jami 4666 talabaga ta'lim berildi. Institut o'quv korpuslari va talabalar yotoqxonalarini ta'mirlash, ularning atroflarini obodonlashtirishga e'tibor berildi. 1976-1980 yillarda institute tadqiqotchilaridan 27 nafari nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildi. Institutda faoliyat ko'rsatgan 232 professor-o'qituvchilarning 4 nafari fan doktori, professor, 101 nafari fan nomzodi, dotsentlarni tashkil etdi¹³⁹.

1980-yilda Qarshi davlat pedagogika institutida ilmiy ishlar bo'yicha prorektor vazifasida ishlab kelayotgan G.N.Sheglova Toshkent rus tili va adabiyoti institutiga rektorlik lavozimiga tayinlandi. Bu esa mazkur institutning ilmiy darajasi o'sganligidan darak berar edi. Ilmiy ishlar bo'yicha prorektorlikka dotsent N.O'ljaboeva tayinlandi. Shu o'quv yilida 14 kishi turli shaharlarda aspiranturaga o'qishga yuborildi¹⁴⁰. 1981-1982 o'quv yilida Qarshi davlat pedagogika institutining tadqiqotchilaridan B.Xayriddinov, Q.Xurramov, M.Mazitova, S.Azizov, T.O'roqov, G.S.Konyuk, N.Dilmurodov turli mavzulardagi nomzodlik

¹³⁹ . Қашқадарё ВДА 1-жамғарма, 2-рўйхат, 108-иш, 8-варак.

¹⁴⁰ Қашқадарё ВДА. 94-жамғарма, 7-рўйхат, 384-иш, 8-варак.

dissertatsiyalarini himoya qildilar. Institutda 1975-yildan boshlab katta ilmiy xodim lavozimiga chiqib, doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishga ahd qilganlar soni 1982-yil martiga kelib 7 nafar kishiga etdi. Ular orasida birinchi bo'lib, Sh.Qurbonov 1982-yil aprelida biologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga erishdi. 1982 yilda Qarshi davlat pedagogika institutda kafedralar soni 31 taga etdi. O'sha yilda M.Boltaevning "Abu Ali ibn Sino velikiy mislitel, uchyoniy, ensiklopedist srednevekovogo Vostoka", S.Mustafaevning "Boboviye yuga Uzbekistana", O.Jo'raqulovning "Qudratli energiya manbai", T.Nafasov, T.Qudratovlarning "Lingvistik tahlil" kabi kitoblari chop etildi¹⁴¹. 1982-1983 o'quv yilida Qarshi davlat pedagogika institutning kafedralari soni 33 taga etdi. Ikki yillik katta ilmiy xodimlik lavozimiga chiqarilganlar orasidan ikkinchi bo'lib M.Ochilov "Nravstvennoe formirovanie budushchego uchitelya" nomli ishini himoya qilib, pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi. Endi institutda mehnat qilayotgan professor-o'qituvchilar soni 233 nafar bo'lib, ulardan fan doktorlari soni 5 nafarga, fan nomzodlari soni esa 113 nafarga ko'paydi.

1983-1984 o'quv yilida Qarshi davlat pedagogika instituti dotsenti O.Jo'raqulov katta ilmiy xodimlar orasida uchinchi bo'lib doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, tarix fanlari doktori ilmiy darajasini oldi¹⁴².

Qarshi davlat pedagogika instituti olimlari orasida birinchi bo'lib "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan shaxs, tarix fanlari doktori, professor S.M.Zaxarov qashqadaryoliklar orasidan 10 ga yaqin fan nomzodlarini tayyorladi. 1984-1985 o'quv yilida Qarshi davlat pedagogika instituti Falsafa kafedrasi dotsenti A.CHoriev doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. SHu davrda institutda rektorning tarbiyaviy ishlar bo'yicha jamoatchilik asosida ishlovchi o'rinbosari lavozimi tashkil etilib, unga dotsent O.Eshquvvatov tayinlandi.

1985-1986 o'quv yilida N.N.Belalov doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olishga sazovor bo'ldi. Ochil Ergashev

¹⁴¹ Қашқадарё ВДА. 94-жамғарма, 8-рўйхат, 35-иш, 108-варақ.

¹⁴² Ўзбекистон Республикаси Президенти девони архивининг Қашқадарё вилояти филиали. 911-жамғарма, 66-иш, 133-варақ.

ham ushbu o'quv yilida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish baxtiga erishdi.

60-80 yillardagi janubiy viloyatlar oliy ta'lim sohasida yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlarni e'tirof qilgan holda, ta'kidlash joizki, sovet davlatida yuzaga kelgan inqiroziy holatlar ta'lim sohasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan edi. Tabiiyki, janubiy viloyatlar oliy ta'lim ham bundan benasib qolgani yo'q.

Mahalliychilik, qon-qarindoshlik, ta'magirlik, tanish-bilishchilik orqali o'quv yurtiga kirish, mansab lavozimlariga iqtidoriga qaramasdan, boshqa omillarga ko'proq e'tibor berish kabi salbiy illatlar ta'lim sohasiga ham kirib kelgan edi. Bu kabi salbiy holatlar nafaqat professor-o'qituvchilar, hatto talabalar orasida ham keng tarqala boshladi. O'zbekistonning Janubiy viloyatlarida faoliyat ko'rsatayotgan ilm-fan ahli o'zlarining ilm-fan yo'lidagi shijoatlari evaziga Qarshi davlat pedagogika instituti salohiyati va obro'-e'tiborini ko'tarishga muvaffaq bo'ldilar. Shu davrga kelib butun mamlakatda M.Gorbachevning halokat yoqasiga kelib qolgan SSSR davlatini saqlab qolishga qaratilgan, tarixda "qayta qurish" deb nom olgan siyosati boshlangan edi. Ana shunday bir vaziyatda SSSR tarkibidagi milliy respublikalarning yetuk, ongli ziyolilari mustaqillikka erishish yo'lidagi harakatlarga bel bog'lab, siyosiy kurash maydoniga chiqdilar. Milliy ziyolilarning faol qismi o'zlikni anglash, qadriyat va an'analarni tiklash, milliy tilga e'tiborni kuchaytirish, demokratiya ruhini singdirish harakatlarida jonbozlik ko'rsatdilar. Buni o'z navbatida janubiy viloyatlar oliy ta'lim arboblari faoliyatida ham ko'rish mumkin edi.

Bugun mustaqillik sharofatidan bahramand bo'lgan o'zbek xalqi erishayotgan yutuqlarga ilm ahillarining ham munosib ulushlari borligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa shundan iboratki, O'zbekistonning janubiy viloyatlarida oliy o'quv yurtlari muammosini echish jabhasida mazkur davrda ma'lum ijobiy ishlar qilindi. Urushdan keyingi yillardagi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, respublika hukumati o'zining bor imkoniyatlarini ishga solib, mavjud o'qituvchilar institutlari

bazasida oliy o'quv yurtlari tashkil qilinib, pedagog kadrlar xalq xo'jaligiga etkazib berildi.

Biroq, oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqqan mutaxassislarning sifati masalasida ayrim muammolar mavjud edi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozaga solinishi, mutaxassislik bo'yicha o'qitiladigan asosiy fanlarni takomillashtirish o'rniga kommunistik mafkurani shakllantiruvchi uch tarkibiy qismi hisoblangan dialektik va tarixiy materializm, KPSS tarixi kabi fanlarning o'qitishga asosiy e'tiborni qaratilishi, ularni o'qitishni yanada yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqilishi salbiy oqibatlarga olib keldi. O'quv jarayoni uchun muhim bo'lgan demokratik va ijobiy jihatlar inkor etilib, bu esa talabalardagi hur fikrlashni shakllanishiga to'siq bo'ldi. O'tmishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar tahlili shunday xulosaga olib keldiki, o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash masalasiga davlat miqyosida e'tibor berilishi hozir g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Vatanimiz ravnaqi, kelajagi tayyorlanadigan kadrlarning bilim va malakasiga bog'liq. Shu ma'noda mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi mamlakatimiz ilm-fan salohiyatining beqiyos rivojlantirish, jahonga keng qamrov bilan chiqish omili bo'ldi.

III.2. Viloyatdagi adabiyot va san'atning ahvoli, teatrlarning faoliyati.

Davlat o'z mafkuraviy g'oyalarini keng xalq ommasiga singdirishda madaniy oqartuv muassasalarining, roli shubhasiz ahamiyatli darajada hisoblanadi. Sovet hukumati ham bunday turdagi muassasalar faoliyatini, asosan, "kommunizm" quruvchisini tarbiyalashdek g'oyaviy-mafkuraviy vazifalarni bajarishga yo'naltirdi. Kommunistik mafkura "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" degan tushuncha asosida madaniyatni siyosiylashgan yo'lga moslashtirgan edi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi esa madaniyatni, ayniqsa milliy o'lkalar madaniyatini mafkuraviy iskanjada ushlab turishga intilar edi. Milliy qadriyatlarga shubha bilan qaragan hukmron mafkura ma'naviy-madaniy merosning tarbiyaviy ahamiyatini e'tiborga olmas edi¹⁴³.

Sovet davlatining "shaklan milliy" deb atalmish madaniyati, marksizm-leninizmdan iborat umumiy dunyoqarash asosiga ega bo'lib, u ijtimoiy hayot hodisalariga sinfiy yondashish, partiyaviylik va xalqchillik lenincha prinsiplari asosida rivojlandi, uning asosiy metodi sotsialistik realizm bo'ldi. KPSS qator dasturlarida qabul qilingan aholini "ma'rifatli qilish" vazifalarini amalga oshirishda maktabgacha tarbiya, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidan tashqari, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy ta'lim muassasalar tarmog'i: kutubxonalar, klublar, kinoteatrlar jamoalari oldiga mas'uliyatli talablar qo'yilib, madaniy-oqartuv ishlari kommunistik partiya tashviqotining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirildi. Madaniy-oqartuv muassasalari hukmron partiyaning tashviqot va targ'ibot olib boruvchi qudratli quroli sifatida keng xalq ommasi ongiga yangi mafkurani singdirishga xizmat qildi. Sovet davlati kommunistik g'oyalar asosida milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashish jarayoni ularning har birida ko'p millatli butun sovet madaniyatiga hos bo'lgan umumiy xususiyatlar yotar edi. Shu bois butun sovet hukumronligi yillarida sof milliy madaniyat emas, balki umumiy qonuniyatlarga asoslangan sovet madaniyati targ'iboti ustun edi.

¹⁴³ Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари. -Тошкент: Зарқалам, 2005. -Б.15.

Ta’kidlash joizki, sovet hukmronligi yillarida madaniy-oqartuv muassasalari soni yildan-yilga o’sib, uning tarmog’i kengayib bordi.

Madaniy-oqartuv muassasalardan biri - klublar bo‘lib, ular o‘z faoliyatini barcha davlat va jamoa xo‘jaliklariga qarashli qo‘rg‘on va qishloqlarda, kolxoz va sovxozlarda shuningdek, shahar va tuman markazlarida amalga oshirdilar.

Klublar oldiga partiya va sovet davlati siyosatini qo‘llab- quvvatlash, aholi o‘rtasida tegishli partiyaviy tashviqot ishlarini olib borishi lozim edi. Bu boradagi ishlarni jonlantirish maqsadida ularning soni yildan-yilga ko‘paytirib borilganini quyidagi jadvaldan bilsa bo‘ladi:

Jadval №2

O‘zbekiston va janubiy viloyatlardagi klublar soni¹⁴⁴

Yillar	1945	1950	1953	1960	1970	1980	1985
O‘zbekiston SSR	2165	3610	3415	2885	3344	4041	4450
Qashqadaryo vil.	165	288	278	2230	249	280	315

1982-yilda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida jami 542 ta klub bo‘lib, shundan Madaniyat vazirligiga qarashlisi 203 ta, 126 ta kolxoz klubi, 113 ta esa kasaba uyushmasiga qarashli edi¹⁴⁵.

1984 yilda Qashqadaryo viloyati Koson tumanida madaniyat bo‘limiga qarashli 20 ta klub muassasalari mehnatkashlarga madaniy xizmat ko‘rsatgan. Koson tuman madaniyat xodimlaridan 3 ta oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘lib, shundan 2 nafar xodim klub ishi mutaxassisligi bo‘yicha ma’lumotga ega edi¹⁴⁶.

Xullas, 1945-yilda Qashqadaryoda 165 ta va Surxondaryoda 167 ta klub faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1985- yilda taalluqli ravishda 315 ta va 245 taga etdi yoki o‘tgan 40 yil mobaynida klublarning soni taxminan 2 baravarga ko‘paydi.

Raqamlarga qarab baho berilganda, bu shubhasiz o‘shish deb ta’kidlash

¹⁴⁴ Советский Узбекистан за 40 лет. Ст.сб. -Т.: Узбекистан, 1964. -С.329.

¹⁴⁵ Показатели мин.культуры УзССР. -Т., 1983. -С.2.

¹⁴⁶ Қашқадарё ВДА. 390-жамғарма, 1-рўйхат, 274-иш. -Б.43.

mumkin. Lekin, bu borada masalaning boshqa tomoniga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Klublarda, avvalo sovet tuzumining ichki siyosati, g'oyaviy mafkuraviy tamoyillari targ'ib qilindi. Ommani amalda tasdiqlanmagan, bajarilishi real bo'lmagan rejalarni tuzib, uni amalga oshirishga hissa qo'shdirishga safarbar etishga harakat qilindi. Sovet davrida zamonaviy klublar qurish, davr talabiga javob beradigan texnik jihozlar bilan ta'minlash ishiga deyarli e'tibor qaratilmadi. Klublar aslida KPSSning kommunistik jamiyat qurish g'oyalarini targ'ibot-tashviqot qilish markazlariga aylantirildi. Aksariyat holatlarda uyushtirilgan uchrashuvlar, turli darajadagi kechalarga tinglovchilar majburan jalb qilinar edi. Ko'p holatlarda esa klublar asosan maktab o'quvchilari hisobidan to'ldirilib, rosmi ko'rinish hosil qilinar edi. 70-80 yillarning birinchi yarmida, klublarda o'tkaziladigan aksariyat kechalarga bormaslik, undan ketib qolish holatlari avj oldi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistondagi mavjud kutubxonalar o'z faoliyatlarini sovet tuzumi sharoitida amalga oshirib, tarbiyaviy ishlarni yaxshilash va kengaytirish maqsadida turli mavzularda kitob ko'rgazmalari, ma'ruzalar, munozaralar, konferensiya va kechalarni uyushtirishning asosiy tashkilotchilaridan biriga aylandi. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 17-noyabrida qabul qilgan "O'zbekiston SSRda kutubxonalar ishini yaxshilash tabirlari to'g'risida"gi qarorida Respublika kutubxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, milliy an'analar asosida rivojlantirish kabi masalalar emas, aksincha partiyaning g'oyaviy-siyosiy mafkurasini targ'ib etish vazifalari belgilab berildi¹⁴⁷. Qarorda aholi o'rtasida, asosan, siyosiy va ateistik tarbiyani kuchaytirish bosh vazifa qilib belgilandi. Shunga muvofiq, kutubxonalar ishining asosiy mazmuni dinga qarshi kurash, o'tmishning "zararli sarqit"larini qoralash, partiya va sovet davlatini mahv etish masalalari tashkil etdi.

Kutubxonalarda uyushtirilgan ma'ruza, ko'rgazma, suhbat va konferensiya mavzularini tanlashda ham yuqorida ta'kidlangan omillar to'la o'z aksini topgan. Jumladan, "Lenin-yoshlarga", "Lenin kommunistik axloq to'g'risida", "Ulug'dohiyning safdoshlari", "Kommunistik va diniy axloq", "Diniy

¹⁴⁷ Косимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1977. -Б.108.

bayramlarning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risida", "Dinga qarshi dalillar" kabi mavzular kundalik hayotning yetakchi mavzusiga aylantirildi. Gazetalarda "Yuksak turmush tarzi uchun", "Qishloqqa-yuksak turmush madaniyati", "Kolxoz qishloqlari jamoli", "Qishloqlarimiz qiyofasi", "Yangi an'analar hayoti" kabi ruknlar ostida respublikada qishloqlar qurilishi, sotsialistik turmush tarzi va umumsovet madaniy turmush an'analarini tashviqot qilishga bag'ishlangan ko'plab materiallar e'lon qilingan. Kutubxonalarda ateistik tashviqotlar uchun "Ateizm burchagi" tashkil etilib, unga adabiyotlar bilan birga mavzuga oid tavsiya ro'yxatlari, suhbatlar, ma'ruzalarning taxminiy matnlari ham qo'yildi. Kutubxonalarda dinning "zararli" tomonlarini targ'ib etuvchi adabiyotlar guruhlar orasida suhbat, munozara tariqasida keng xalq ommasiga yoyildi. Asosiy madaniy-oqartuv muassasalardan biri bo'lmish kutubxonalarda ham xuddi yuqorida ta'kidlangandek, salbiy illatlar va nochor ahvolni kuzatish mumkin edi. Tadqiq qilinayotgan yillarda janubiy viloyatlarda kutubxona muassasalari shu ishga moslashtirilmagan, hech bir qulayliklarga ega bo'lmagan binolarda faoliyat olib bordi. Kutubxonalarda ishning sifatini emas, sonini o'stirish yo'liga e'tibor qaratildi. Bu holatning tasdig'ini quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin.

Jadval №3.

O'zbekiston va janubiy viloyatlarda kutubxonalar soni (1960-1985 yy.)¹⁴⁸

	1960		1970		1980		1985	
	Kutu bxona	Kit. va jur. ming. nusxa	Kutu bxona	Kit. va jur. ming. nusxa	Kutu bxona	Kit. va jur. ming. nusxa	Kutu bxona	Kit. va jur. ming. nusxa
O'zbekiston SSR	3317	20382	5709	34232	6856	5987	7688	79504
Qashqadaryo vil	189	1085	412	1662	522	3557	595	5014

¹⁴⁸ Кашкадарё ВДА. 390-жамғарма, 1-рўйхат, 10-иш, 1-варак. Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет. - С.276-277.

O'zbekistonda, jumladan janubiy viloyatlarda kutubxonalar soni asosan XX asrning 60- yillaridan ko'paya boshladi. Qashqadaryoda 1950-yilda 125 ta kutubxona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1985-yilda ularning soni 595 taga etdi. Qashqadaryo viloyat kutubxonasi 1980-yilga kelib namunaviy loyihada bunyod etilgan 3 qavatli binoga ko'chib o'tdi¹⁴⁹. Kutubxonalar fondi tadqiq etilayotgan yillarda sezilarli darajada o'sib borib, 1980 yilda bu ko'rsatkich 3098 ming nusxani tashkil qildi. 1980-yilda Qashqadaryo kutubxonalarida 3557 nusxa kitob, jurnallar mavjud bo'lsa, Surxondaryoda 3098 nusxadagi kitob va jurnallar mavjud bo'lgan. 1985 yilga kelib esa, Qashqadaryo viloyati kutubxonalarida 5014 nusxa kitob va jurnal, Surxondaryoda 4392 nusxa kitob va jurnallar bor edi. 1985 yilda Qashqadaryo shaharlaridagi kutubxonalarda 3,3 million nusxa kitob va jurnallar, qishloq joylaridagi kutubxonalarda 7,2 million kitob va jurnallar bo'lgan. O'sha vaqtda shaharlarda 0,3 ming kutubxona, qishloq joylarda esa 1,2 ming kutubxona faoliyat ko'rsatgan¹⁵⁰.

Tahlil etilayotgan yillarda O'zbekistonning janubida faoliyat olib borgan kutubxonalarning ishini yaxshilash, kitob fondlarini ko'paytirish borasida bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Lekin, zamon talablariga javob beradigan darajadagi sharoit yaratishning imkoniyati bo'lmay, kutubxonalarda davr mafkurasi talablaridan kelib chiqib, o'zbek xalqining milliy an'analariga yot ko'rinishdagi targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi.

Madaniy-oqartuv muassasalari ishining asosiy turlaridan biri badiiy havaskorlik to'garaklari hisoblanadi. Badiiy havaskorlik to'garaklarini tuzish va ularning faoliyatini rivojlantirish, klublar sohasining o'ziga xos ish yuritish usuliga aylandi. Bu kabi to'garaklarda yuzlab kishilar o'z qiziqishlari, iqtidorlariga qarab birlashtirildi.

Tadqiq etilayotgan davrlarda tuzilgan dramatik, musiqali, xor to'garaklari xalq orasida ma'lum darajada faoliyat olib borib, ularning soni yildan yilga o'sib bordi. Urushdan keyingi yillarda Qashqadaryo va Surxondaryoning deyarli barcha

¹⁴⁹ Қашқадарё ВДА. 390-жамғарма, 1-рўйхат, 108-иш, 13-варак.

¹⁵⁰ Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет советской власти. -Т.,1987. -С.276.

qishloqlarida urush keltirgan og‘ir qiyinchiliklar tufayli badiiy havaskorlik to‘garaklarining faoliyati deyarli to‘xtab qolgan edi. Shaharlar va tuman markazlarida bu sohadagi ishlar ma’lum darajada davom ettirildi.

Tadqiq etilayotgan davrda Qashqadaryoning “Bo‘ston” (Qamashi), “Shodiyona” (Shahrisabz), “Tog‘ go‘zali” (Dehqonobod), “Gullola” (Yakkabog‘), “Cho‘l chamani” (Qarshi tumani), “Gulbahor” (Chiroqchi), “Gulshan” (Kasbi), “Yulduz” (Kitob), “Tarona” (Qarshi shahri), “Navro‘z” (Kitob), “Marhabo” (Qarshi tumani), “Feruza” (Yakkabog‘)¹⁵¹ kabi xalq ashula va raqs hamda badiiy havaskorlik guruhleri ko‘plab yangi konsertlar uyushtirdilar.

1977-yilda Qashqadaryoda 369 ta kinoqurilmasi mavjud bo‘lib, shundan 231 tasi davlat hisobidan 138 tasi kasaba uyushmasi hisobidan faoliyat olib bordi. 1977-yilda Qashqadaryoda 17 ta kinoteatr va kinoqurilmalar ishga tushirildi. Yil davomida kino tomoshabinlari soni 7 million kishiga etdi¹⁵². Bu ko‘rsatkich o‘z navbatida aholi madaniy hordiq darajasi va saviyasidan darak berar edi. 1980-yilda Qashqadaryoda 377 ta kinoqurilma bo‘lib, 1985-yilda, ularning soni 483 taga etdi. Qashqadaryo viloyatida 1980-yilda 7 million kishi kinoteatrlarga kirgan bo‘lsa, 1985-yillarda 8 million kishi kinofilmni tomosha qildi¹⁵³.

Madaniy-oqartuv ishida muzeylar o‘ziga xos o‘rinni egallab keldi. Tadqiq etilayotgan davrlarda Qashqadaryo viloyatlarida jami 1 ta, ya’ni Qarshi shahrida o‘lkashunoslik muzeyi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, sohalar bo‘yicha muzeylar tashkil etish ishi esa e’tibordan chetda qoldirildi. Qashqadaryo o‘lkashunoslik muzeyi 1932 yilda, mazkur muzeyda ish yuritishning asosiy mazmuni, markscha-lenincha mafkurani targ‘ib etadigan ko‘rgazmalar namoyish etishdan iborat bo‘ldi. Muzeylardagi bo‘limlar faoliyati ham aynan shu maqsadga bo‘ysundirilgan edi. Ta’kidlash joizki, muzeylarda turli joylargaekskursiya o‘tkazish, ma’lum mavzularda ma’ruzalar, konferensiya, uchrashuv va ko‘rgazmalar uyushtirish ham yo‘lga qo‘yilgan edi. Muzeylarda o‘tkaziladigan tadbirlarning bosh mavzusi shubhasiz, sovet davlati g‘oyalari, sotsialistik “tuzum yutuqlari”ni targ‘ibot qilish,

¹⁵¹ Қашқадарё ВДА. 390-жамғарма. 1-рўйхат, 174-иш. 17-варак.

¹⁵² Қашқадарё ВДА. 1-жамғарма, 2-рўйхат, 234-иш, 1-варак.

¹⁵³ Народное хозяйство Узбекской ССР. 1987. -Т.,1988. -С.294.

o‘z navbatida milliy va diniy qadriyatlarni qoralash bo‘lib qoldi. Jumladan, Qashqadaryo viloyat o‘lkashunoslik muzeyi 3 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, bular o‘lka tabiati, revolyusiyaga qadar bo‘lgan davr, sovet davri tarixi deb nomlangan edi.

Madaniy-oqartuv muassasalarining ish shakli, uslublari siyosiylashtirilib, klub, kutubxona, muzey kabi madaniy maskanlarning faoliyati xalq milliy qadriyatlaridan uzoqlashtirilib, milliy qadriyat va an‘analarga zid bo‘lgan kommunistik mafkurani targ‘ib etishga yo‘naltirildi. Mazkur muassasalar, asosan, “eskilikka qarshi kurash” niqobi ostida dinga, qadriyatlarga qarshi kurashni avj oldirdi.

Umuman olganda, klublar qoshida tashkil qilingan badiiy havaskorlik to‘garaklari hamda ular asosida vujudga kelgan xalq teatrlari faoliyatini hisobga olmaganida madaniy- oqartuv muassalari “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat” dasturini amalga oshirishda “faollik” ko‘rsatdi.

Madaniy-maorifiy muassasalarning asosiy vazifasi axolining badiiy estetik ehtiyojlarini qondirish kabi vazifalarni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan, ular esa kommunistik partiyaning g‘oyalarini omma ongiga singdirish rus madaniyatini, targ‘ibot- tashviqot qilish kabi ishlarni amalga oshirishda faollik ko‘rsatdilar.

Madaniy-maorifiy muassasalar oldiga maqsadning noto‘g‘ri belgilanishi oqibatida, ular faoliyatida olg‘a siljish ro‘y bermadi. Lekin, shunga qaramasdan klublar qoshida tashkil qilingan badiiy havaskorlik to‘garaklari milliy san‘atimizni saqlab qolishda hozirgi kunda xalqqa xizmat qilayotgan ko‘plab san‘atkorlarni etishib chiqishida faoliyat ko‘rsatdi.

Ma’lumki, har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi adabiyot va san‘at hisoblanadi. Adabiyotda xalqning muayyan tarixiy hayotidagi va ruhiyatidagi xususiyatlari aks ettiriladi. Sovet hukmronligi va ma’muriy buyruqbozlik tuzumining yakka hokimligi sharoitida O‘zbekistonda, jumladan, Qashqadaryo va milliy-an‘anaviy qadriyatlarga zid bo‘lgan yangi “o‘zbek sovet adabiyoti” shakllandi.

Ta'kidlash joizki, ma'muriy buyruqbozlik tuzumi g'oyalarini keng yoyishda adabiyot asosiy qurollardan biri vazifasini o'tadi. Xalqning ma'rifatga, milliy an'ana va ma'naviyatga bo'lgan intilishi sovetlarga xos bo'lgan siyosiy manfaatlar yo'liga burildi. Yangi avlodni shakllantirishda siyosiy manfaatlar ustuvor qilib qo'yildi. Eski adabiy muhitdan voz kechish ana shunday maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi. Badiiy asarlardagi xalqning tarixi, diniy, milliy qadriyatlarini ulug'lashga bo'lgan intilishi hukmron mafkura tomonidan to'sqinlikka uchradi.

1983-yilda O'zbekiston KP MQ "Teatr san'atining ahvoli va uni yanada takomillashtirish hamda ruspublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda tarbiyalashda uning rolini oshirish tadbirlari to'g'risida"gi qarorni qabul qildi¹⁵⁴.

Qarorga muvofiq teatr jamoalari, dramaturglar, rejissyorlar zimmasiga dastlab inqilobiy sovet turmush tarzini ulug'lovchi asarlar sonini ko'paytirishga asosiy e'tiborni qaratish lozimligi belgilandi. Milliy-tarixiy mavzudagi asarlarga "burjua mafkurasiga sajda qilish" deb baholandi. Ammo, bu kabi ko'rsatmalar teatr sahnalarining bo'shab qolishiga, tomashabinlar e'tiborini pasayishiga olib keladi. Sahna asarlaridan qanoat hosil qilmagan aholining teatrga borishi yildan-yilga kamayib ketdi. Masalan, 1980-yilda Qashqadaryo viloyati teatriga 134,4 ming kishi borgan bo'lsa, 1985-yil bu raqam 119,4 mingga teng bo'ldi¹⁵⁵. O'zbekistonning janubiy hududlarida tahlil etilgan yillarda san'atning baxshichilik, xalq qo'shiqchiligi kabi yo'nalishlari ham ma'lum darajada rivojlandi.

O'zbekistonda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari baxshilarning beshigi hisoblanib, bu erda o'ziga xos dostonchilik maktablari shakllangan edi. Jumladan, Qashqadaryoning Dehqonobod, Chiroqchi, Qamashi, Surxondaryoning Boysun, Jarqo'rg'on, Sherobod tumanlarida dostonchilik an'analari qadimiy xarakterga ega bo'lib, ular sovet hukumati mafkuraviy-g'oyaviy tazyiqlari kuchaygan sharoitda ham deyarli yashirin tarzda faoliyat olib bordi.

Qashqadaryoda Chiroqchi-Qamashi dostonchilik maktabi mavjud bo'lgan. Sherobod dostonchilik maktabi ustoz-shogirdchilik an'anasi tarqalishi jihatdan

¹⁵⁴ Ўзбекистон театрларида. -Тошкент, 1985. -№ 10. -Б.7-8.

¹⁵⁵ Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет Советской власти. -Т.Узбекистан, 1987. -С.281.

juda katta hududni egallaydi. Xususan, Gʻuzor, Dehqonobod, Qamashi tumanlari, Surxondaryo, Tojikiston va Turkmaniston SSRning oʻzbeklar yashaydigan hududlarini oʻz ichiga olgan. Bu maktabning markazi Sheroboddagi Azon qishlogʻi boʻlgan. Baxshilarni birlashtirgan mashhur baxshi Shernazar Berdinazarov boʻlgan edi¹⁵⁶. Qashqadaryo dostonchilari ustoz-shogirdlik shajarasining 2 ta yoʻnalishi boʻlib, uning boshlanishi XIX asrlarga borib taqaladi. Birinchi shajaraning boshida XIX asr oʻrtalarida Qamashining Toʻqboy qishlogʻida tugʻilgan Berdimurod turadi. U qovchinlik Turob shoir, gʻuzorlik SHonazar shoir, chiroqchilik Xushvaqt shoirlarni tarbiyalab etishtirgan. Dostonchilikdagi ustoz-shogirdlik anʼanalarining ikkinchi shajarasiga gʻuzorlik Rustam shoir asos solgan. Uning Iskandar baxshi, Rajab shoir, Toʻra shoir kabi shogirdlari boʻlgan. Dostonchilik maktabi anʼanalari sovet hukmronligi yillari turli xil taʼqiblar ostida yashashda davom etdi.

Kommunistik partiya mafkurasi sharoitida ijod qilib, ustoz- shogirdlik anʼanalarini avaylab-asragan, davr ijtimoiy-siyosiy voqealarini tez anglab, chuqur idrok eta olgan baxshilardan biri Qodir baxshi boʻlgan. U 1937-yili Dehqonobod tumanining Chaliqa qishlogʻida tugʻildi. Qodir baxshining bobolari Turob va Normurodlar elga tanilgan baxshilar boʻlgan¹⁵⁷. Qodir baxshi Rahimov dostonchilik maktabi rivojiga qoʻshgan hissasi va sermahsul ijodi tufayli respublika xalq baxshilari koʻriklarining birinchi darajali diplomlari bilan taqdirlangan. U 1974-yilda Moskvada boʻlgan Xalqaro konkursning laureati, 1979-yil Parij shahrida boʻlgan III jahon xalq ijodiyoti koʻrigining sovrindori boʻladi¹⁵⁸. 1980 va 1982-yillarda Toshkent va Olmaota shaharlarida boʻlib oʻtgan jahon miqyosidagi xalq ijodkorlari anjumanining gʻolibi boʻldi. Qodir baxshi Rahimov 70dan ortiq dostonni yoddan bilgan inson edi.

U XX asrning 60-yillarida Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Tojikiston, Turkmaniston hududlarini piyoda kezib chiqib, Sherna baxshi anʼanalarini davom ettirayotgan xalq baxshilaridan saboq oldi.

¹⁵⁶ Афзалева М. Ўзбек халқ бахшилари //Шарқ юлдузи. -Тошкент, 1996. -№ 8. -Б.141.

¹⁵⁷ Йўлдошев Б. Қашқадарё бадиияти. -Т.: Шарқ, 1998. -Б.424.

¹⁵⁸ Йўлдошев Б. Қашқадарё бадиияти. -Т.: Шарқ, 1998. -Б.424.

Qodir baxshining repertuarida “Nurali”, “Kuntug‘mish”, “Bolhuvon”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Shirin va Shakar”, “Asqad”, “Qosimjon”, “Berdiyor”, “Intizor”, “Oychinor” kabi dostonlar o‘rin olgan. Uning “Oychinor” dostoni 1984-yil nashr etilgan. Qodir baxshi ishlarini uning o‘g‘li Qahhor baxshi davom ettirdi. U 40ga yaqin zamonaviy dostonlarni o‘zlashtirgan bo‘lib, o‘zi ham 50 dan ortiq termalarni yozdi.

Sovet davlatining qatag‘onlik siyosatidan baxshilar ham chetda qolmadi. Chiroqchilik Tog‘ay baxshi (1893-1976 yy) 30-yillarda shimoliy Qozog‘istonning Sibir erlari bilan chegaradosh joylariga surgun qilindi va 50-yillarning oxirlarida boshqa qatag‘on qurbonlari singari oqlanib, o‘z yurtiga qaytib keldi. O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi muzeyida saqlanayotgan o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida Tog‘ay shoir Mahmon o‘g‘li variantlari bilan aytiladigan dostonlari ham bor. Uning o‘g‘li Shomurod shoir ijodida Vatan, qatag‘on yillarining zo‘ravonlik va adolatsizligiga qarshi g‘oyalar markaziy o‘rinni egallagan¹⁵⁹. Uning “Vatan”, “Makkamchol” dostonlarida ana shunday g‘oyalar olg‘a suriladi. Shomurod baxshi haqida Moskvadan Ostankino televideniyasida bir nechta ko‘rsatuvlar tayyorlangan va u 1985-yilda Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan baxshilarning “Aytis” konkursida “yuksak ijrochilik mahorati uchun” oltin medali bilan mukofotlanadi.

O‘zbek ma’naviyatining muhim tarmog‘i bo‘lgan qo‘shiqchilik san’ati urushdan keyingi yillarda o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlandi. Sovet hukmronligi yillarida milliy qo‘shiqchilikka qarshi baynalmilallikning qo‘yilishiga qaramay, xalq an’anaviy qo‘shiqchilik san’ati rivojlanib bordi. Shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryoda asosan xalq qo‘shiqchiligi janri bu hududning ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlariga bog‘liq holda davom ettirildi. Bolani beshikka solish, mehnat, maishiy mavzular bilan bog‘liq qo‘shiqlar ijod qilindi. “Sust xotin”, “Boychechak”, “Yil boshi”, “Navro‘z keldi” kabi qo‘shiqlar quvnoq ohang bilan aytilib, mavsum-marosim qo‘shiqlari hisoblangan.

¹⁵⁹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ ғожеаси. - Тошкент.: Шарқ, 2003. - Б.17.

Shuningdek, to'y marosimlari qo'shiqlari ham keng tarqalgan. "Yor-yor" yoki "O'lan", "Al-Muborak", "Kelin salom" shular jumlasidandir.

O'zbekistonnin janubida ham "xudosizlik"ni targ'ib etuvchi, diniy qoralovchi maxsus lektor-ateistlar maktablari ochildi.

Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 1981-1982 o'quv yilida viloyat partiya komiteti huzuridagi marksizm-leninizm universitetining ideologiya fakultetida lektor-ateistlar bo'limi ochilib, unda mazkur o'quv yilida 30 lektor-ateist tayyorlandi. O'sha o'quv yilida Termiz va Qarshi Davlat pedagogika institutlari, Toshkent irrigatsiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti Qarshi filiali, Qarshi tibbiyot bilim yurtlari huzurida ham yosh ateistlar maktabi faoliyati yo'lga qo'yildi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining barcha shahar va tumanlarida 2 yillik ilmiy-ateizm bo'yicha maktablar ochildi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida diniy ishlar qo'mitasi ish olib borib, mazkur qo'mita joylarda masjid, madrasa va qabristonlar o'rnini qayta ko'rib chiqish va boshqa shunga o'xshash masalalar bilan shug'ullangan³. Komissiya qarori va sa'yi harakati tufayli Qashqadaryo va Surxondaryodagi ko'plab masjidlar faoliyati to'xtatib, ular yopib qo'yildi. 1982-yilda 23-mart Qashqadaryo viloyatining Dasht qishlog'i masjidida namoz o'qishga kelgan kishilar haydab yuborildi. Masjid binosi yopib qo'yildi. O'tganlarni xotirlashga kelgan kishilar mozorlarga kiritilmadi¹⁶⁰.

Qashqadaryodagi Langar ota, Bashir ota, Xo'jai jarroh maqbaralari ziyoratgohlari qarovsiz holga keltirildi va u erlarga kishilarning ziyorat qilishlari ta'qiqlandi. Kitob tumani, Navoiy nomli sovxozning Xo'jaizparvoz qishlog'idagi Oqsuv ziyoratgohi va "Oqsuv" marosimini fosh etish maqsadida maxsus reydtashkil etiladi hamda mazkur ziyoratgoh ham yopib qo'yiladi¹⁶¹.

"Xudosizlar ittifoqi" nafaqat diniy muassasalar, balki diniy va milliy bayramlar va marosimlarga ham qarshi kurash olib bordi. Qashqadaryo va Surxondaryoning qishloq hududlarida Qarshi, Termiz, Denov, Boysun, Shahrisabz va boshqa janub

¹⁶⁰ Қашқадарё вилояти Қарши тумани Чўли ота жамоа хўжалигида яшовчи Рўзи бобо Давлатов билан бўлган суҳбат.

¹⁶¹ Қашқадарё ҳақиқати. 1982, 10 ноябрь.

shaharlarida hayit marosimlarini bayram sifatida nishonlash man etish darajasiga etgan edi.

Qamashi, Chiroqchi, Jarqo'rg'on, Boysun, Koson tumanlarida dinga qarshi targ'ibot kuchaygan yillarda ham hayit bilan bog'liq an'analar yashirin davom ettirilib, yangi jihatlar bilan boyib bordi.

Jumladan, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumani Chiyali qishlog'ida hayit bayramlari boshqa bayramlarga nisbatan kengroq nishonlanib, xalq uchun alohida ahamiyat kasb etgan.

Xullas, sovet hukmronligi yillarida madaniyatning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan adabiyot va san'atning ahvolini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosaga kelindi: adabiyot va san'atni rivojlantirish bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarni baholashga keskin partiyaviy mafkura nuqtayi nazardan yondashilishi natijasida madaniy hayot katta zarar ko'rdi. Adabiyot va san'at sohasi xodimlari faoliyati bir xil qolipga solinib, unda "sotsialistik realizm" hukmronlik qildi va ijod ahli uning tamoyillari asosida asarlar yaratishga majbur bo'ldi. Bu davrda yaratilgan badiiy asarlar xalq ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-madaniy va ruhiy xususiyatlaridan, muammolaridan ancha uzoq edi.

Shoir va adiblar zamonga mos maqtovlarga boy asarlarni yaratish bilan birga millatning orzu-armonlari, erkinlikka intilishi, o'zlikni anglashi kabi g'oyalarini aks ettiruvchi chinakam badiiy va san'at asarlarini ham yaratdilar. Yozuvchi, shoir va rassomlarning asarlari hukmron mafkuraga u yoki bu darajada moslashtirilib kommunistik g'oya va shiorlarni targ'ib etdi.

XULOSA

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi harakatlar respublika hayotining barcha jabhalarida o'z aksini topib bordi. Bugungi kunda ijtimoiy – gumanitar fanlar sohasidagi qo'lga kiritilgan ilmiy yangiliklar, nashr yuzini ko'rgan katta ilmiy asarlar ham erishilgan yutuqlar qatorida turmoqda. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, XX asr dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lgan sovet davlati tarixidagi ayanchli tarixiy jarayonlar – sovet davri qatag'onlarini ilmiy, xolisona tahlil etish, o'rganish ham bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda, tarixiy xotirani mustahkamlashda, tarixdan saboq chiqarishda ham ahamiyat kasb etmoqda.

XX asr 80-yillari birinchi yarmida Qashqadaryo viloyati sanoat, ishlab chiqarish sohasida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangidan yangi sanoat korxonalari, fabrika, zavodlar, kombinatlar qurib ishga tushirildi. Bu esa Qashqadaryo viloyati sanoati va ishlab chiqarish rivojiga ijobiy hissa qo'shdi. Lekin Qashqadaryo viloyatida sodir bo'lgan bunday ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, viloyat sanoati va ishlab chiqarish sohalariga bir tekisda rivojlanmadi. Butun O'zSSRda bo'lganidek, Qashqadaryo viloyatida ham "sotsialistik majburiyatlarni bajarish jarayonida ko'plab xato va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Bu esa keyinchalik viloyat sanoat, ishlab chiqarish sohalariga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Qashqadaryo viloyati aholisi uchun ko'rsatilgan ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy xizmatlar XX asrning 80 – yillarida birmuncha yaxshilanib, yuksalib bordi. Yangidan yangi o'quv muassasalar, kasalxonalar, qishloq vrachlik punktlari, sport zallari, klub va choyxonalar qurilib foydalanishga topshirildi. Mavjudlarini o'rin sonlari ko'paytirildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini moddiy ta'minlash choralarini yaxshilashga harakat qilindi.

"Qayta qurish" dasturi e'lon qilingach, butun sobiq Ittifoq hududida sanoat, ishlab chiqarish, siyosiy hayotda yangilanish jarayoni boshlandi. Shu sababli O'zSSR hududida, jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham "qayta qurish" yillarida yuqoridagi jarayonlar sodir bo'ldi. Bu yillarda Qashqadaryo hududida olib borilgan siyosat natijasida yangi sanoat korxonalari, zavod va fabrikalar,

maktab va kasalxonalar qurib foydalanishga topshirildi. Bu esa o'z navbatida viloyat va uning aholisi ijtimoiy – iqtisodiy rivojiga sabab bo'ldi. Lekin shu bilan birga boqimandalik, o'z ishiga mas'uliyatsizlik kabi holatlar ham ro'y berdiki, bu holat viloyat aholisi uchun salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Sovet hokimiyatining so'nggi yillarida ham Qashqadaryo hududida madaniy hayotda birmuncha siljishlar sodir bo'ldi. Qishloqlarda kutubxonalar, madaniyat saroylari o'z faoliyatlarini davom ettirgan. Qishloq ahliga o'z o'tmishiga bo'lgan qiziqish kuchaygan. Ularda milliy urf-odatlariga e'tibor ortgan edi.

Markaz hukumati tomonidan mafkuraviy yo'l bilan amalga oshirayotgan tadbirlariga xalq ishonmay qo'ydi. SSSR chirib o'zini-o'zi tarqatib yuborishga majbur bo'layotgan paytda O'zbekistonning poytaxti Toshkentda va boshqa yirik shaharlarda boshlangan mustaqillik g'oyasi Qashqadaryo viloyatida ham aks-sado bera boshladi.

XX asrning 70-yillarida Sobiq ittifoq xalq xo'jaligida qo'shib yozish illati paydo bo'ldi. Markaz iqtisodda ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning hajmini, qishloq xo'jaligi sohasida har yili har gektar hisobidan olinadigan hosilni ko'paytirib borishni qat'iy nazorati ostida ushlagan, berilgan besh yillik rejalarni to'xtatmay bajarilishdan manfaatdor edi. Shu maqsadda har yili "sotsialistik musobaqa" tashkil qilinar, masalaning yechimi esa qo'shib yozishda o'z aksini topgan edi. Maxsulot amalda bo'lmasa ham qog'ozda bajarilar edi. Ushbu ko'rinish jamiyat ho'jaligining boshqa sohalarida ham tomir otib ketdi va bundan jamiyatning, xalqning ko'rayotgan moddiy zarari, mahsulot yetishmasligi, tannarxning qimmatlashuvi, sifatining pasayib ketishi, ish hajmining kamayishi, oxir oqibatda iqtisodiy tanglikning yuzaga kelishi ayon bo'lib qoldi.

Jamiyatda mahsulot ishlab chiqarishni amalda ko'paytirish, tannarxni arzonlashtirish, sifatini yaxshilash uchun kurash, mamlakat miqyosida boshlandi. Ana shu ko'rinish O'zbekistonda va uning janubiy viloyatlarida "paxta ishi" "o'zbek ishi" ko'rinishida namoyon bo'ldi. Haqiqatda markaz hukumati "paxta ishi" degan yolg'on uydurmani o'ylab topib, O'zbekiston xalqiga "odob" bermoqchi bo'ldi. Haqiqatni aytadigan bo'lsak, qo'shib yozishlar faqat

O'zbekistonda emas, qolgan Respublikalarda ham mavjud bo'lib, bu kompaniyadan O'zbekiston xalqi nihoyatda katta moddiy, ma'naviy zarar ko'rdi. Mustabid tuzum hibsonalarida ancha kishi qiynoq azoblarga chiday olmay olamdan o'tdi.

Sovet hokimiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayoti inqiroziy xolatga kelib, tarqalib ketishi arafasida O'zbekistonga o'tkazgan zug'umi minglab odamlar ustidan jinoiy ishlarni qo'zg'alib, qamoqlarga tashlanishi, Qashqadaryo viloyatida mavjud bo'lgan qamoqxonalarga va lagerlarga odamlarning sig'may qolganligi oqibatida mustabid tuzum shoshilinch ravishda Qashqadaryoning Koson shahrida yangi lagerning ochishi, qamoqlarda sharoitning yaxshi bo'lmaganligi uchun qamalgan o'rta yoshli, yoshlari bir joyga borib qolgan, keksaygan, davolash qiyin bo'lgan dardga chalinishi, turmalar-da o'lganlar haqidagi xatlarning qishloqlarga, rayonlarga kelishi, qamalgan kishilarning bola-chaqalarini emas, qo'ni-qo'shnilarining, hamqishloqlarining ham g'azabini uyg'otdi va xalq sovet hokimiyatidan ochiqchasiga norozi bo'la boshladi. Bu ishda yoshlar ko'proq o'zlarini namoyon qila boshladilar, xalq orasida sovet hokimiyatidan, uning o'tkazadigan siyosatidan norozilik kayfiyati yuzaga keldi. Xalqning milliy ongi uyg'ona boshladi.

Qashqadaryo xalqi boshiga og'ir kunlar tushib, paxta ishidan kishilar aziyat chekib, markaz hokimiyatining va O'zbekiston rahbariyatining olib borgan nomaqbul siyosati tufayli vaziyat keskinlashgan bir paytda I.A.Karimovning Qashqadaryoga viloyat partiya qo'mitasining birinchi kotibi vazifasiga kelishi ijobiy voqea bo'lib, xalq shuurida qoldi. I.A.Karimovning astoydilligi tufayli Qashqadaryo viloyati, Buxoro viloyati bilan qo'shilishidan qutilib qoldi. Paxta ishi bilan nohaq ayblanganlar ishini qayta ko'rib chiqishning chora - tadbirlari izlandi. Xalqning ko'z o'ngida adolat qaror topa boshladi va endi xalqning ko'zi ochilib, oqni-oq, qorani-qora deyish imkoniyatiga erishdi. Mustabid tuzumning, xalqimizning orzu-umidlari ro'yobga chiqishiga qodir emasligini tushunib yetdilar. Xalqning milliy ongi o'sib, SSSR tarkibidan chiqish, mustaqil bo'lish g'oyasi

shakllana boshladi. Ana shu ishda Qashqadaryoda samarali mehnat qilib kelayotgan I.A.Karimovning roli katta bo'ldi.

O'zbekistonga mustaqillik arafasida 1–rahbar bo'lib, I.A.Karimovning kelishi bilan Respublika miqyosida “paxta ishi” dan, “o'zbeklar ishi”dan aziyat chekkan kishilarning jinoiy ishlarini qayta ko'rib chiqish yo'lga qo'yila boshlandi. Mustaqillikka erishilgandan keyin “paxta ishi”dan zarar ko'rgan kishilarning hujjatlari qayta o'rganilib, adolatli yechimga kelindi. Jazolangan kishilarning ko'pchiligi oqlanib, ularning bola – chaqalari, qovmi – qarindoshlari, el oldidagi hurmatlari o'rniga qo'yildi. Jinoyat qilgan kishilarning ko'plarining xatolari O'zbekiston hukumati tomonidan avf etilib, ular ham mustaqillik arafasida yorug'yuz bilan yurishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbekiston o'z mustaqillining qo'lga kiritib, jamiyat hayotini barcha jabhalarida bo'lgani singari fan, madaniyat sohasida ham ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirilishiga imkon berdi. Xususan, o'zbek xalqining asriy madaniyati, uning rivoji, shakllanish tarixini o'rganish, tarixiy tahlil etish ham Vatan tarixini holis tahlil va tadqiq etish borasidagi amalga oshirilgan qator tadqiqotlar doirasiga kiradi. Yangi davlat, yangi jamiyat barpo etishga kirishgan mustaqil O'zbekiston xalqining asrlar davomida shakllangan mentalitetini hurmat qilgan holda qadriyatlar, urf-odat, an'analarni e'zozlash davlat siyosatining asosini tashkil etdi. Xususan, milliy madaniyat jamiyat hayotini bir bo'g'ini ekanligi bois iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda rivojlandi. Lekin, o'zbek xalqi madaniy hayotini tarixiy tahlil etish ana shu jarayonlarning uzviy bog'liq tomoni bo'ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston janubida o'zbek adabiyotida o'z nomiga ega bo'lgan, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, xalq shoirlari Normurod Narzullaev, Jumaniyoz Jabborov, Sirojiddin Sayid kabi adiblar janubiy hududlarda shakllanib, adabiyot maydoniga kirib keldilar. Bir qator iqtidorli adiblar, chunonchi Samar Nurov, Tesha Saydaliev, Nizomjon Parda, Muhammad Azimov, Hamid Badalov, Majid Abdurahimov, Sharifjon Orifiy, Suvon Soqiy, Ismoil To'xtamishev kabilar

janubiy hududlarda muqim yashab, o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shdilar.

Sovet davlatida mahalliy aholiga rus tili va adabiyotining ta'sirini o'tkazishga ustivor vazifa sifatida qaraldi. Natijada aksariyat oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida darslarning, asosan, rus tilida olib borilishi o'zbek millatiga mansub talabalarning to'laqonli bilim egallashlariga to'siq bo'ldi. SHuningdek, o'quv rejalarida O'zbekiston tarixi, o'zbek tili va adabiyoti fanlariga ajratilgan soatlar kam darajada edi. O'quv tizimidagi bu kabi holatlar o'z o'rnida milliy til va madaniyatning yoyilishi va rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Madaniy soha moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishi markaz manfaatlari, ehtiyoj va maqsadlaridan kelib chiqqan holda yo'lga qo'yildi. Mazkur sohani mablag' bilan ta'minlashda "qoldiq" prinsipiga amal qilindi.

Xalqni milliy an'analardan uzoqlashtirish, omma ongiga yot bo'lgan mafkurani singdirish uchun ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o'zbek xalqi ota-bobolaridan qolgan merosni asrab-avaylash yo'llarini topib, uni rivojlantirdilar. Xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lgan, baxshichilik san'ati Qashqadaryo vohasida yashashda davom etib, yanada mukammallashib, yangi dostonlar bilan boyib bordi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyyoti va xalq farovonligi garovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shasiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va Farovon, Demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalq bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. T. 5. – 384 b.
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. T. 7. – 410 b.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston. T. 8. – 528 b.
8. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2001. T. 9. – 432 b.
9. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. 16. – Toshkent: O'zbekiston, - 365 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
11. Karimov I.A . Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. –Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 304 b .
12. Postonovlenie XX s'ezda KPSS O kulte lichnosti i ego 3-posledstviyax. KPSS v rezolyusiyax. T- 9. Moskva. Politizdat, 1986. – 90 s.
13. Postanovlenie SK KPSS o preodeleni kulte lichnosti i ego posledstviy. 30-iyunya 1956. KPSS v rezolyusiyaxT-9. - Moskva. Polizdat, 1985. - S. 111-129.

14. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyul “O‘zbekiston Respublikasidagi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarori // Xalq so‘zi. 1998-yil 28-iyul.
15. O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1999-yil 12-may “Sho‘ro tuzumi davrida Vatanimiz istiqboli va ozodligi yo‘lida, amaliy istiqlol va taraqqiyot yo‘lidagi intilishlari uchun nohaq ayblanib, turli jazo va tazyiqlarga duchor qilingan Vatandoshlarimiz nomlarini aniqlash, faoliyatini o‘rganish, xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi farmoyishi // Vatanparvar. 1999-yil 13 may.
16. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-iyul “Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi qarori // Xalq so‘zi. 1999-yil 23-iyul.
17. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida”gi farmoni // Xalq so‘zi. 2001-yil 2-may.
18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi (O‘zRMDA) 1, 88 90, 93, 95, 1714, 2349-jamg‘armalar.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni Arxivining Qashqadaryo viloyat filiali (O‘z.RPDA QVF) 1. 2, 10, 14, 34-jamg‘armalar.
20. Qashqadaryo viloyat Davlat arxivi 390, 94, 197, 249, 133, 432, 533, 534, 385, 391, 545- jamg‘armalar.
21. Jo‘raqulov O., Rahmatov A. Shahrisabz yilnomasi. Shaxrisabza. Chronicle of Shahrisabz. – Toshkent: Fan, 2007. -190 b.
22. Jo‘raqulov O. Chandir turkmanlari. – Toshkent: Fan, 1992. - 221 b.
23. Mo‘minov O. Afsonaga aylangan odam. – Qarshi: Nasaf, 1992. –178 b.
24. Ilyuxin V. Qabohat yohud – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – 53 b.
25. Perestroyka: glasnost, demokratiya, sotsializm. Inogone dano / Pod red. Yu.N. Afanaseva. - M.: Progress, 1988. – 671 s.
26. Ravshanov P. Qashqadaryo: istiqlol arafasida. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003. - 182 b.
27. Ravshanov P., SaidovM. Jeynov tarixi. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi Toshkent nashriyoti 1996. - 71 b.

28. Xo‘jamberdiyev Y. O‘zbeklarishi. – Toshkent: Yozuvchi, 1990. - 304 b.
29. Shahrisabz ming yillar merosi. – Toshkent: Sharq, 2002. - 228 b.
30. Ergashev E. Beshkent tarixi. – Qarshi: Nasaf, 2000. - 178 b.
31. Yunusova X.E. O‘zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. - Toshkent: Zar qalam, 2005. - 115 b.
32. Yunusova X.E. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar. – Toshkent: Abu matbuot – konsalt, 2009. -176 b .
33. Yoriyev B. Umidli dunyo. -Toshkent.: Yozuvchi. 2001. - 232 b.
34. Alimova D., Golovanov A. O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari. (1917-1990 yy.). -T.: Sharq, 2000.- 80 b.
35. Jo‘raqulov O. Qarshi Davlat universiteti. -T.: Fan, 1999. -33 b.
36. Mirzayev S., SHermuxammedov S. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: O‘zbekiston, 1993.- 422 b.
37. Мухаммедов А. Педагогика культурно-просветительной работы. -Т.: ТашГУ, 1985.-132 с.-132s.
38. Нажимов Т.Н. Народные традиции и культура. -Т. Узбекистан, 1992.-120 с.
39. Нишанов М.Н. Обновление духовной жизни нации.-Т.: Фан, 1992.- 106 с.
40. Nurmuhammedova M.X. Kultura sela: problemy i sujdeniya. -T.: Uzbekistan, 1993.-66 s.
41. Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarini o‘zlashtirilishi. -T.: SHarq, 2001.-B.341.
42. Hamidov H. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. -T.:O‘qituvchi, 1996. -174 b.
43. Эргашева Ю. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития.-Т.: Фан, 1997. - 210 с.
44. Shahrisabz 2700 ming yillar merosi /Mas’ul muharrir. H.Karamatov. T.:Sharq,2002.-228b.
45. Шермухаммедов С.Ш. Некоторые вопросы теории и практики развития социалистической культура.-Т.: Узбекистан, 1980.-272.
46. Yunusov N. Xalq maorifining nurli yo‘li. -T.: O‘qituvchi,1980.-32b.

47. Yoʻldosheva S.X. Oʻzbekistonda muzika tarbiyasi va taʼlimining rivojlanishi.- T.:Oʻqituvchi,1985.-267b.
48. Yoʻldoshev B. Qashqadaryo badiiyati.-T.: SHarq, 1998.-464 b.
49. Yoʻldoshev B. Nasaf nafasi.-Qarshi: Nasaf, 1992.-224 b.
50. Баракаев Д.Б. Развитие культуры Узбекистана за годы Советской власти.- T.: Узбекистан, 1984.-47 с.
51. Xoʻjambrdiyev Y. Oyning yorugʻ kunlari. – Qarshi: Nasaf, 2011. 112.
52. Сиддиқов Р.Б. Среднеспециальное профессиональное образование Узбекистана в период советского тоталитаризма и в годы независимости (1945-2001 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. -Ташкент, 2002. -24 с.
53. Xolmoʻminov H.E. Oʻzbekistonda sovet mustamlakachiligi siyosatining migratsion jarayonlarga taʼsiri (janubiy viloyatlar misolida (1946-1990 yy.): Tarix. fan.nomz. diss. ...avtoref. -Toshkent, 2007. -B.30.
54. Sohibova M.T. Oʻzbekistonda madaniy hayot: tajriba va muammolar (janubiy viloyatlar misolida (1946-1985 yy.)) Tarix fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent: 2008. - 32 b.
55. Quvvatova N.Q. XX asrning 20-80 yillarida Oʻzbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (Qashqadaryo viloyati misolida) Tarix fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent: 2010. - 28 b.
56. Qodirov F.Y. Sovet mustamlakachiligi yillarida oʻrta maxsus maʼlumotli kadrlar tayyorlash (Qashqadaryo viloyati misolida). Magistrlik dissertatsiyasi. Qarshi, 2006.
57. Mamatqulov B. Nishon tumanining sovet mustamlakachiligi yillaridagi ahvoli. Magistrlik dissertatsiyasi.Qarshi, 2007.
58. “Qashqadaryo haqiqati”, “Kashkadarinskaya pravda” gazetalari.
59. “Voha” gazetasi.
60. www.sputnik.uz